

ISMAILOV A.M., DAVLETOV I.X., XOLOV X.T.

# UY-JOY KOMMUNAL INFRATUZILMANI STRATEGIK BOSHQARISH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH INSTITUTI**

**ISMAILOV A.M., DAVLETOV I.X., XOLOV X.T.**

**UY-JOY KOMMUNAL  
INFRAUZILMANI  
STRATEGIK BOSHQARISH**

**DARSLIK**

**"Sarvar print"  
TOSHKENT – 2024**

UDK: 332.871

KBK 65.44

**Ismailov A.M., Davletov I.X., Xolov X.T. Uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish. Darslik. T.: "Sarvar print" nashriyoti, 2024 y. 233 bet.**

*Mazkur darslikda uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarishning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari, korxonada missiyasi va maqsadini shakllantirish, uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqaruv jarayoni, uy-joy kommunal infratuzilma sohasida strategiya yaratishning vazifalari, tarmoqdagi umumiy holat va undagi raqobat tahlili, uy-joy kommunal xo'jaligi soha sub'ektlari holati tahlili, strategiya va raqobat ustunligi, marketing strategiyasini tanlash, diversifikatsiyalashning korporativ strategiyalari, strategik boshqaruvdagi zamonaviy tendensiyalar to'g'risida nazariy va amaliy yondashuvlar keltirilgan.*

*Darslik oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida tahsil oluvchi 70730201 –Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi hamda ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar va sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarini oshirishlari uchun xizmat qiladi.*

**Taqrizchilar:**

**Rahimov Q.E. -** TAQI, "Qurilishda menejment" kafedrasida dotsenti.

**Salimov B.T. -** TDIU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil, 6 - noyabrdagi 491-sonli buyrug'iga asosan o'qiruv qo'llanma sifatida nashr etishga ruxsat berildi (grif № 232-871).*

**ISBN:978-9910-7132-0-0**

© ISMAILOV A.M., DAVLETOV I.X., XOLOV X.T.

© "Sarvar print" nashriyoti, 2024 y

---

## KIRISH

---

Mamlakatimiz hayotining tarmoq va sohalari rivojida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Taraqqiyotning bosh omili demokratik islohotlar va samarali boshqaruv jarayonlarining uzluksizligi iqtisodiyot rivojlanishini ta'minlab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi fikrlarni "Joriy yilda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yanada yaxshilandi, ilk bor milliy valyutada 2 trillion so'mlik davlat yevroobligatsiyalari past foizlarda joylashtirildi. Bu yil respublikamizda 197 ta yirik, minglab kichik va o'rta korxonalar hamda infratuzilma ob'ektlari barpo etildi. Jumladan, "Navoiyazot" da ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi hamda azot kislotasi zavodi, Muborak, Gazli va Sho'rtan neft-gaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmalari, Toshkent metallurgiya zavodi kabi yirik quvvatlar ishga tushirildi deb ta'kidlab o'tgan<sup>1</sup>.

Tarmoqlar rivojidadagi samarali va izchil islohotlar zamonaviy raqobat muhitini ta'minlagan holda mamlakatimizda iqtisodiyot sektorlarini jadal o'sishi hamda rivojlanishini yuqori sur'atlarda taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Pirovardida nafaqat davlat, balki xususiy korxonalar va kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar va xorijiy investorlar uchun ishonchli, samarali va eng munosib hamkorlarga aylanish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo'ladi. Har bir tarmoq va sohalar boshqaruvida strategiya tamoyillarini uzluksiz tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tashkilot, har bir hududiy tizim uchun strategiya nihoyatda zarur. Hech bir tashkilot, mahalliy hamjamiyat, hech bir davlat o'z strategiyasiz mavjud bo'lolmaydi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29 dekabr, 2020 yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: <http://www.press-service.uz>

Strategiyani ishlab chiqish va real hayotda amalga oshirish, firma, tashkilot va jamiyatning bozor qiymatlarini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Bozor va rejaga qarshi turish mumkin emasligi ko'pdan beri gapirib kelinmoqda. Bundan tashqari, bozor qanchalik katta bo'lsa, reja shunchalik katta bo'lishi kerak. Ushbu aforistik iborada qanday reja nazarda tutilgan? Albatta, birinchi navbatda, strategik reja. Strategik reja tijorat firmasi, universitet, shahar va umuman mamlakat uchun zarurdir.

So'nggi paytlarda zamonaviy o'zbek jamiyatida xususiy tadbirkorlar uchun ham, davlat idoralari uchun ham faoliyat uchun ko'rsatmalar beradigan aniq belgilangan strategiya yo'qligini tez-tez eshitishingiz mumkin. Davlat miqyosida uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish usullari va texnologiyalaridan keng foydalanish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

An'anaga ko'ra, G'arbda ham, Sharqda ham, bizning mamlakatimizda ham strategik boshqaruv deganda odatda tijorat tuzilmalarini yoki ular aytganidek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni strategik boshqarish tushuniladi. Ushbu darslikda uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish nafaqat tijorat tuzilmalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Shuningdek davlat, tashkilotlar va hududiy hamjamiyatlarga - mamlakatlar, viloyatlar va shaharlarga nisbatan ham ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham xorijiy, ham mahalliy mualliflarning uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish bo'yicha etarli miqdordagi kitoblari nashr etildi. Biroq, strategik menejmentni nafaqat tijorat firmalariga, balki davlat tashkilotlari va hududiy tuzilmalariga ham tegishli deb hisoblaydigan bunday darslik hali mavjud emas. Ushbu o'quv qo'llanma o'z sohasida birinchilardan bo'lib hisoblanadi. U iqtisodiy oliy o'quv yurtlari talabalari, tadqiqotchilari va

professor-o'qituvchilari, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlari tinglovchilari uchun mo'ljallangan.

Mazkur darslikning yozilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son hamda "2017-2021 yillarda va keyingi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi taraqqiy etishining "Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi sari" rivojlanish yo'nalishlarida belgilangan to'rtinchi ustivor yo'nalish, sifatli ta'lim-tarbiya masalasi ekanligi alohida o'rin tutadi.

Mualliflar faoliyat olib borayotgan Toshkent arxitektura-qurilish instituti "Qurilishda menejment" kafedrasida uy-joy kommunal xo'jaligi ob'ektlariga nisbatan strategik boshqaruvni o'rgatish bo'yicha etarli tajriba to'plagan. Kafedrada bir necha yillardan buyon "Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish" magistratura mutaxassisligi bo'yicha talabalar ta'lim olishadi. O'qitish jarayonida to'plangan tajriba darslikning tuzilishi va mazmunida o'z ifodasini topadi.

Ushbu darslikning ajoyib jihati shundaki, u asosan mahalliy misollarga asoslangan va bu O'zbekiston hamda chet elda strategik menejmentning asosiy g'oyalarini qo'llashni solishtirish imkonini beradi.

Va nihoyat, darslikning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, unda strategik sheriklik g'oyasiga alohida urg'u berilgan, iste'molchilar, pudratchilar, ijtimoiy muhit bilan strategik hamkorlik aloqalarini o'rnatish nazariyasi va amaliyoti ochib berilgan. Zamonaviy globallashuv va postindustrial dunyo rivojlanishi sharoitida tarmoq boshqaruvi tuzilmalari rivojlanishining yangi talqinlari berilgan. Bilimlarni boshqarish, hududlar marketingi firma va tashkilotlarga noyob raqobatdosh ustunliklarni taqdim etuvchi strategik vosita sifatida katta e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu darslikni tayyorlashda strategik boshqaruv bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan xorijiy mamlakatlar olimlari, MDH davlatlari va respublikamizda shu sohada tadqiqot olib borgan olimlarning tadqiqot natijalari, mahalliy va xorijiy adabiyotlar, statistik ko'rsatkichlar, korporativ boshqaruv shaklidagi korxonalar faoliyatining natijalaridan ham keng foydalanilgan.

Ushbu darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va fan dasturiga mos keladi. Shuningdek, darslikni tayyorlashda xorijiy adabiyotlar va texnologiyalardan foydalanilgan. Xususan, Robert M. Grant. (2016) *Contemporary Strategy Analysis. Text and Cases*, Arthur A. Thompson, Margaret A. Peteraf, John E. Gamble, A.J., (2018) *Crafting & Executing Strategy: The Quest For Competitive Advantage*, kabi adabiyotlardan foydalanilgan.

Mazkur darslik Kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi talabalari, tadqiqotchilar hamda har qanday mulk shaklidagi tashkilotlarning barcha darajadagi boshqaruvchilari ushbu darslikni o'rganishlari orqali sohadagi nazariy va amaliy bilimlarini yanada oshirishlariga xizmat qiladi.

*A'lo natijaga erishish uchun sizga aqlli strategiya kerak.*

*Rory Mcilroy, Golf Monthly*

---

**I-BOB: "UY-JOY KOMMUNAL INFRATUZILMANI STRATEGIK BOSHQARISH" FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI**

---

**REJA:**

- 1.1. Uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqaruvi fanining predmeti va vazifalari.**
- 1.2. Strategiya va strategik boshqarish tushunchalarining mazmuni va mohiyati.**
- 1.3. Strategik boshqaruvning ob'ektlari va sub'ektlari.**
- 1.4. Faoliyat turlari va rivojlanish jarayonini boshqarish.**
- 1.5. Turli boshqaruv darajalarida strategik boshqaruvni amalga oshirish.**
- 1.6. Dastlabki strateg - tadqiqotchilar va amaliyotchilar.**
- 1.7. Zamonaviy strategik boshqarish nazariyasi asoschilari.**

*Tayanch so'zlar: uy-joy fondi, uy-joy kommunal xo'jaligi, infratuzilma, uy-joy siyosati, ijtimoiy infratuzilma, transport infratuzilmasi, muhandislik infratuzilmasi, milliy iqtisodiyot infratuzilmasi, harbiy infratuzilma, turistik infratuzilma, menejment, funktsiya, menejment funksiyalari, boshqaruv, boshqaruv jarayoni funksiyalari, boshqaruv vazifalari, strategiya, strategic boshqaruv, strategik boshqaruv jarayoni, strategik reja, strategik boshqaruv ob'ektlari.*

**1.1. Uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqaruvi fanining predmeti va vazifalari**

Respublikamiz mustaqillikka erishganining dastlabki kunlaridan boshlab hozirgi kunga qadar iqtisodiyotning barcha sohalarida erkin bozor munosabatlarini joriy etish va erkin raqobat muhitiga asoslangan shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Respublikamizda o'tgan qisqa vaqt mobaynida mahalliy

xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan va provard natijada aholining turmush darajasini yuksaltirishga hamda xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy mexanizm shakllantirildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub mazmun-mohiyati xalq farovonligini ta'minlashdan iborat bo'lib eng avvalo ijtimoiy soha rivojini ta'minlash, uning muhim qismi bo'lgan uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

So'nggi yillarda respublikada servis va xizmat ko'rsatish sohasini qo'llab-quvatlash borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, bu sohadagi alohida olingan tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar pirovardida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlanishiga, shuningdek uy-joy xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan o'sishiga olib kelmoqda. Buning qonuniy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17-maydagi «Xizmat ko'rsatish va servis sohasini 2006-2010 yillarda rivojlantirish haqida»gi PQ-325-sonli, 2007-yil 21-maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010 yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida»gi PQ-640-sonli va 2001 yil 17-apreldagi «Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to'g'risida»gi PF-2832-sonli Farmolarini va mazkur hujjatlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni misol qilib keltirish mumkin.

Avvalombor infratuzilma deganda ma'lum bir tizimning ishlashini ta'minlovchi asos ekanligini tushunishimiz kerak. Infratuzilma har qanday tizimning ishlashiga imkon beradigan turli xil ob'ektlardan iborat bo'lib infratuzilma taqdim etadigan tizimga qarab, uni turli xil turlarga tasniflash mumkin.

Infratuzilmani turlarga ajratishda birinchi o'rinda, uning faoliyat ko'lamiga bo'yicha turlarga ajratish ilmiy adabiyotlarda tavsiya etiladi. Shu nuqtai nazardan infratuzilma quyidagi turlarga ajratiladi.

- ishlab chiqarish infratuzilmasi;
- ijtimoiy infratuzilma;
- transport infratuzilmasi;
- muhandislik infratuzilmasi;
- milliy iqtisodiyot infratuzilmasi;
- harbiy infratuzilma;
- turistik infratuzilma va h.z.

Biz uchun kerakli bo'lgan infratuzilma bu ijtimoiy infratuzilma bo'lib, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari inson yashashi va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan barcha shart-sharoitlar va munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- uy-joylar (kvartiralar, uylar);
- obodonlashtirish ishlari;
- uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish ob'ektlari (uy-joy kommunal xo'jaligi);
- tibbiy tashkilotlar (klinikalar, shifoxonalar);
- bolalar bog'chalari;
- maktablar;
- o'rta va oliy ta'lim muassasalari;
- madaniy ob'ektlar (teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, galereyalar va boshqalar);
- sport inshootlari (stadionlar, o'yin maydonchalari, velosiped yo'llari va boshqalar);
- dam olish maskanlari (parklar, maydonlar va boshqalar);
- ovqatlanish joylari (oshxonalar, kafelar, restoranlar va boshqalar);

- yo'lovchilar tashish transporti tizimi;
- xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari (atele va sartaroshxonalar);
- banklar;
- yuridik hamda notarial idoralar va b.q.

Uy-joy kommunal xo'jaligi – bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo'lgan resurslar yetkazib berilishi bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi aholi turar joylari, ma'muriy va ishlab chiqarish binolari, noishlabchiqarish va ijtimoiy sohada foydalanilayotgan binolar, inshootlar, hududlar va uzatuvchi magistrallarga xizmat ko'rsatuvchi, foydalanishni tashkil etuvchi, qurilish-ta'mirlash, transport, energiya ishlab chiqaruvchi va boshqa turli tovar va xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalardan tashkil topgan, keng qamrovli faoliyatining pirovard natijasi inson hayot faoliyatini tashkil etuvchi, shahar infratuzilmasini rivojlantiruvchi va ekologik muhitni yaxshilashga xizmat qiluvchi soha hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xos xususiyati uning ko'p tarmoqliligi va turli-tuman xizmatlardan tashkil topganligidadir. Ko'p soha va tarmoqlardan tashkil topgan uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi o'z navbatida, turli tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asosdagi ishlab chiqarish va noishlabchiqarish sohasi korxonalar va tashkilotlariga xizmat ko'rsatadi, ular faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi aholini farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq ekan albatta, aholi yashaydigan shahar va qishloqlarda turli xildagi kommunal xizmatlarga ehtiyoj mavjud

bo'ladi. Doimiy yashash joylarida aholi sonining ko'payib borishi o'z navbatida kommunal xizmatlarga ehtiyojning ortib borishiga olib keladi. Masalan, hozirgi kunda chekka hududlarda joylashgan kichik qishloqda faqat elektr energiyasi ta'minoti tashkil etilgan, qishloq joylari va aholi yashash markazlarida (posyolkalar) elektr energiyasi, gaz va ichimlik suvi ta'minoti tizimi faoliyat ko'rsasa, shaharlarda esa kommunal xizmatlarning turli-tuman shakllari mavjud. Kommunal xo'jalik tizimi va kommunal xizmatlarning tashkil etilish darajasi aholiga farovon yashash uchun yaratilgan shart-sharoitni ko'rsatadi. Aholi sonining ko'payib borishi ma'lum hudud chegaralarining kengayib borishiga, kommunal xizmatlar tizimining takomillashib borishiga va vaqt o'tishi bilan qishloq joylarining aholi yashash markazlariga, aholi yashash markazlarini esa shaharlarga aylanishiga olib keladi.

Shahar bu yirik aholi yashovchi ma'muriy hudud bo'lib, u ishlab chiqarish, savdo va madaniyat markazi hisoblanadi. Shahar kommunal xo'jalik tizimi nafaqat aholining farovon yashashi uchun shart-sharoit yaratuvchi, balki barcha turdagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari, ijtimoiy soha va ma'muriy boshqaruv tizimi korxonalar va tashkilotlariga turli kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar majmuasidan tashkil topadi. Yuridik mavq'ega ega bo'lgan har qanday korxonalar o'z faoliyatida kommunal xizmatlarning u yoki bu turlaridan foydalanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar, ko'rsatadigan xizmat turlaridan kelib chiqib, asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) Uy-joy majmuasiga xizmat ko'rsatish va uy-joy fondini ta'mirlash-qurilish tashkilotlari;
- 2) Issiqlik energiyasi ta'minoti xo'jaligi;


- 3) Gaz ta'minoti xo'jaligi;
- 4) Elektr energetika ta'minoti va ko'chalarni yoritish xo'jaligi;
- 5) Suv ta'minoti va oqova-quvur xo'jaligi;
- 6) Muhandislik tizimlari va inshootlari (lift, havoni shamollatish - sovitish va boshqalar)ga xizmat ko'rsatish korxonalari.

Uy-joy kommunal xo'jaligi shahar xo'jaligining asosiy qismini tashkil yetib, shahar xo'jaligi infratuzilmasida uy-joy kommunal xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va kommunal xo'jaligi tizimining ajralmas qismi hisoblanuvchi sohalarga quyidagilar kiradi:

1. Yo'l xo'jaligi va shahar aholi tashish transporti;
2. Aloqa xizmati va muhandislik kommunikasiyalari, xabar beruvchi va yong'in xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar;
3. Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish;
4. Sanitariya-gigiena va ekologik himoyani ta'minlash hamda nazorat qilish xizmatlari;
5. Istirohat bog'lari, xiyobonlar, cho'milish havzalari va basseynlari;
6. Haykallar va tarixiy obidalarni saqlash;
7. Mehmonxona xo'jaligi;
8. Hammomxona va kir yuvish xo'jaligi;
9. Ijtimoiy soha va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari.

Aholiga bevosita shartnoma asosida ko'rsatilayotgan xizmat turlari tarkibidan kelib chiqib kommunal xo'jaligi tizimi tashkilotlari asosan 8 guruhga bo'linadi (1.1-rasm).

Bunday murakkab tizimning faoliyat ko'rsatishi uchun har xil turdagi tarqoq, idoraviy va iqtisodiy tuzilmasi turli-tuman bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni yagona xo'jalik mexanizmiga aylantirish zarur.



**1.1- rasm. Uy-joy kommunal xizmatlar turlari**

Ishlab chiqarish kuchlari, turar joy hududlari va transport tizimlarining joylashishi kommunal xo'jaligi korxonalarining tashkil etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir shaharda o'ziga xos kommunal xo'jaligi tizimi shakllanadi. Mazkur tizim faoliyati samaradorligini oshirish joylarda boshqaruv mexanizmining tashkil etilganligiga bog'liq bog'ladi. Amaliyotda kommunal-xo'jaligi tizimi faoliyati mahalliy hokimiyat tomonidan koordenasiya qilinadi. Har bir shahar, tuman hokimiyati huzurida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi xizmatlar faoliyat ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahrida kommunal xo'jaligi tizimi faoliyati Toshkent shahar hokimiyati qoshidagi Kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan tartibga solinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mazkur xizmatlar faoliyati kommunal xo'jaligi tizimini ma'muriy boshqarishga emas, balki sohadagi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida raqobat muhitini shakllantirishga, ular faoliyatini shartnoma munosabatlari asosida tashkil etishga yo'naltirilgan.

Jamiyatda ijtimoiy sohaning rivojlanish darajasi aholining uy-joy xo'jaligi, turmush sharoiti va kommunal xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining rivojlanish darajasi aholi turmush sharoitining ichki tashkillashtirilishi va hayot tarzini belgilab beradi. Shuning uchun ham, respublikamizda aynan uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tarmog'ini isloh qilishga alohida ye'tibor qaratilmoqda.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan uyushmalar, korxonalar va tashkilotlarning yig'indisidan tashkil topadi va ular umumiy qonuniyatlar hamda oldilariga qo'yilgan maqsadga asoslangan holda yagona tizim sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

"Uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish" fani uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini yagona bir tizim sifatida o'rganadi va ushbu tizim uy-joy kommunal infratuzilmani strategik boshqarish fanining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha sohalari kabi uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga eski tizimdan konstruktiv ijro jihatidan nomukammal bo'lgan ko'p xonadonli uylar va ularni saqlash hamda ta'mirlashning samarasiz tizimi, sohani boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik uslubiga asoslangan, byudjet mablag'lari hisobidan boqimanda kun ko'rishga o'rganib qolgan iqtisodiy samarasiz tizim meros bo'lib qoldi. Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab kommunal xizmat ko'rsatish tizimini isloh qilishga kirishildi. Davlat tasarrufida bo'lgan uy-joy fondi xususiylashtirildi, tarmoqning asosiy Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi<sup>2</sup> qabul qilindi, kommunal xo'jaligi tizimi faoliyatini bozor mexanizmi tamoyillari asosida tashkil etishni ta'minlovchi qonuniy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va

<sup>2</sup> -O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24-dekabrda 713-I-soni Qonuni bilan tasdiqlangan, 1999 yil 1 apreldan amalga kiritilgan.

uni kompleks rivojlantirishga qaratilgan aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiya<sup>3</sup> hamda tegishli dasturlar ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlar asosida respublika uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Kommunal xo'jaligi sohasida hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlarni o'rganib, ilmiy tahlil qilib bormasdan turib bu sohada ulkan muvoffaqiyatlarga erishib bo'lmaydi. Tarmoqda amalga oshirilayotgan jarayonlarni o'rganish va ilmiy tahlil qilib borishda hamda sohaga amaliy bilimlarga ega bo'lgan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fanining ahamiyati katta.

Kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fani quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi va mavjud muammolarni ilmiy asoslangan holda hal etishga xizmat qiladi:

- Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining yagona tizim sifatida aholi hayot darajasini yaxshilashdagi rolini o'rganadi, uning nazariy va amaliy asoslarini shakllantiradi;

- kommunal xo'jaligi sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini belgilaydi hamda sohada yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning ilmiy asoslangan yo'llarini belgilaydi;

- uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqadi;

- kommunal xizmatlar narxini shakllantirish, tannarxni kamaytirish va to'lov tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganadi;

- kommunal xizmatlar ko'rsatishda shartnomaviy munosabatlarni keng joriy etish, turarjoy va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirishi yo'llarini o'rganadi;

---

<sup>3</sup> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 3-noyabrdagi 461-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish Konsepsiyasi"

- uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkiliy va iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish va uy-joy fondini boshqarishda progressiv usullar hamda fan va texnika yutuqlarini keng joriy etish masalalarini o'rganadi;

- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hamda yuzaga kelgan ehtiyojlar uchun moliyaviy mablag'larni (kredit, grantlar, homiylar mablag'larini) jalb etish yo'llarini izlab topish va boshqa uy-joy xo'jaligini boshqarish bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni o'rganadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti fani mazkur tizimning shakllanishi va uning faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy masalalarni o'rganishda Iqtisodiyot nazariyasi, Mikroiqtisodiyot, Tarmoqlar iqtisodiyoti, Qurilish iqtisodiyoti, Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti, Statistika, Investitsiyalar va boshqa iqtisodiy fanlarning nazariy bilimlariga asoslaniladi.

## **1.2. Strategiya va strategik boshqarish tushunchalarining mazmuni va mohiyati**

"Strategiya" so'zi yunoncha "strategos" dan olingan bo'lib, "general san'ati" degan ma'noni anglatadi. Strategiya tushunchasi harbiy ishlar nazariyasidan kelib chiqqan bo'lib "general san'ati" va "leytenant san'ati" tushunchalari o'rtasidagi aniq farqni ifodalaydi. "General san'ati" ma'lum bir guruh yoki jangning umumiy rejasini belgilash, asosiy harakatlar ketma-ketligini qurish, asosiy hujum yo'nalishlarini aniqlash, asosiy kuchlarni front bo'ylab taqsimlash va janglar borishining mumkin bo'lgan variantlarini ishlab chiqishni o'z ichiga olsa, leitenant esa boshqa narsa haqida qayg'uradi, ya'ni olingan buyruqni qanday eng yaxshi tarzda bajarish va yuqori rahbariyat tomonidan qo'yilgan vazifalarni hal qilishni va buning uchun unga bo'ysunuvchilarning zarur o'zaro hamkorligini ta'minlash kabi qator vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi.

Zamonaviy menejmentda, xuddi harbiy ishlarda bo'lgani kabi, strategik va taktik jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Jumladan, strategik masalalarga quyidagilar kiradi:

- tashkilotning maqsadlari;
- tashkilot faoliyatining asosiy turlari va "asosiy zarba" yo'nalishi;
- ittifoqchilar va raqiblarni aniqlash;
- o'zining afzalliklari va ulardan foydalanish yo'nalishdari.

Strategiya - bu yuqori darajadagi boshqaruv qarorlari va muhim tashkiliy resurslarni talab qiladigan potentsial faoliyatdir. Strategiya - rivojlanishning umumiy yo'nalishi. Agar buni aniq ko'rsatib bo'lmasa, rivojlanishning aniq yo'nalishi yo'qligidan ko'ra foydaliroqdir. Hatto yetarlicha aniq bo'lmagan, ammo tushunarli umumiy yo'nalish ham viloyatlar, shaharlar va aholi punktlarini to'g'ri yo'nalishda rivojlantirishga xizmat qiluvchi taktik qadam va dasturlarda mujassamlanishi mumkin. Bunda nafaqat strategiyaga ega bo'lish, balki uni izchil amalga oshirish ham birdek muhim bo'lib hisoblanadi. Yaxshi va izchil bajarilgan texnik jihatdan nomukammal reja faqat qog'ozda qoladigan eng mukammal rejadan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Strategik boshqaruv hech qachon tugamaydigan byurokratik tomoshaga o'xshamasligi kerak, balki tashkilotdagi menejerlar va xodimlarni asosiy strategik masalalar va muayyan muammolarni hal qilishning muqobil usullari bilan tanishtiradigan o'quv jarayoni bo'lishi kerak. Strategik boshqaruv juda rasmiy va bashorat qilinadigan marosim bo'lmasligi kerak. Strategik boshqaruvning asosiy roli doimiy o'rganish va o'zgarishdir. Strategik boshqaruv jarayonining muhim xususiyati samarali strategiyani ishlab chiqishda ishtirok etuvchilarning ochiq fikrliligidir. Yangi istiqbollarni, yangi g'oyalarni va yangi imkoniyatlarni ko'rib chiqishga tayyorlik ushbu jarayonning zaruriy xususiyatidir.

Strategik boshqaruv jarayoni uch bosqichni o'z ichiga oladi - strategik rejalashtirish, strategiyani amalga oshirish, strategik nazorat (1.2-rasm).



1.2-rasm. Strategik boshqaruv jarayonlari.

Strategik rejani shakllantirish o'z missiyasi va qarashini ishlab chiqish, tashqi imkoniyatlar va tahdidlarni, tashkilotning ichki ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash, uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, muqobil strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun aniq strategiyalarni tanlashni o'z ichiga oladi. Tijorat tashkilotlari uchun bu bosqich tashkilot qaysi yangi biznesga kirishi, qaysi biznesni tark etishi, resurslarni qanday taqsimlash, diversifikatsiyani amalga oshirish, o'z faoliyatini muayyan hududlarda va bozorlarda kengaytirish, qayerda va qaysi biznesda qo'shma korxonalarini tashkil etishni, korxonalarining raqobatchilari tomonidan egallab olinishini qanday bartaraf etish kerakligi, shuningdek, tashkilot taqdirini va uning kelajagini belgilaydigan boshqa ko'plab amaliy masalalarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Strategiya – bu muvaffaqiyatga erishish yo'lidir. Strategiya nima ekanligi hamda tashkilotlar va shaxslarning muvaffaqiyatga erishishlarida nima uchun muhimligi aynan shu bobda tushuntirib o'tiladi. Bevosita biz strategiyani rejalashtirishdan ajratishimiz lozim. Strategiya turli ko'rsatmalarning batafsil rejasi yoki dasturi emas, balki bu uyg'unlik va

aniqlikni belgilab beradigan hamda shaxs yoki tashkilotning harakatlari va qarorlariga e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jarayondir<sup>4</sup>.

Strategiya - bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

*XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi.* Strategiya - deb dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi.

*Har qanday kompaniya yoki tashkilot strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchta omilga bog'liq:*

- aniq, izchil va uzoq muddatli maqsadlarni to'g'ri belgilash;
- raqobatbardosh muhitni chuqur anglab yetish;
- resurslarni maqsadli baholash (1.3-rasm).

*Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat.* Siyosat, strategiya va taktika - strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlarini bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob'ektning mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi.

---

<sup>4</sup> Robert M. Grant. Contemporary strategy analysis. Copyright © 2016, 2013, 2010 Robert M Grant. John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex, PO19 8SQ, United Kingdom. 8 <http://okd.uz>

Siyosat - bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinidir<sup>5</sup>.



### 1.3-rasm. Muvaffaqiyatli strategiyalardagi umumiy yondashuvlar<sup>6</sup>

Strategiya – ishlovchilar uchun mezondir. Aniq xarakat rejalashtirilmay, innovatsion salohiyat uchun sharoit yaratish va tashkil qilish harakatining umumiy ongligi bilan ta'minlanmaydi. U zarur kishilar qobilyati va malakasini shakillantirish, siyosiy rejalashtirish bo'lib rejalashtirish ob'ekti bo'lgan dividentalar, ish haqqi, ish joyi, matbuot, hukumat va kasaba uyushmasi bilan ishlashlarini o'z ichiga oladi.

*Strategiya – bu kelajakni tadqiq qilish, ssenariy tahlilidir.*

- Strategiya – bu raqobat kurashida afzallik beruvchi g'oya.
- Strategiya – bu boshqarish faoliyatida qo'llaniladigan uslublar tizimi.
- Strategiya – bu korxonada faoliyati uchun mo'ljallar yig'indisi.
- Strategiya – bu maqsadga erishish va tashkil qilishni amalga oshirishga mo'ljallangan majmuaviy reja.

*Strategik rejalashtirishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:*

- Vazifalar, maqsadlar va strategik yo'nalishni aniqlash.
- Tashqi sharoitlar, imkoniyat va tahdidlar tahlili.

<sup>5</sup> <https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi>.

<sup>6</sup> Yuqorida keltirilgan manba.

- Ichki kuchli va zaif tomonlarni baholash.
- Maqsadlarni belgilash.
- Maqsadga erishish uchun strategiyani tanlash.
- Vazifalarni aniqlash.
- Har bir vazifani hal etish uchun zarur tadbirlar bilan ishchi dasturlarni ishlab chiqish.

Strategik reja - bu belgilangan maqsadlarga erishish uchun birlashtirilgan harakatlar ketma-ketligidir. Strategik rejalashtirish tashkilot faoliyatining asosiy maqsadlari va yo'nalishlarini belgilaydi, mavjud afzalliklardan foydalanish va yangilarini yaratish orqali tanlangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi. Strategik rejalashtirish tashkilot qanday mahsulotlarni chiqarishini, qaysi bozorlarda bo'lishini, qanday resurslarni jalb qilish va kelajak uchun qanday texnologiyalardan foydalanishni belgilaydi. Biznes strategiyalari jug'rofiy kengayish, diversifikatsiya, sotib olish, mahsulotni ishlab chiqish, bozorga kirish, qisqartirish, tugatish va korxonalarni birlashtirishni o'z ichiga olishi mumkin. Strategiya oxir-oqibat raqobatdosh ustunlikni belgilab beradi. Strategiyani amalga oshirish bosqichi uning strategik rejalashtirish doirasidagi shakllanish bosqichidan kam ahamiyat kasb etmaydi. Tuzilgan, lekin amalga oshirilmagan strategiya shunchaki vaqtni behuda sarflash emas, bu bema'ni holat bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, har bir strategiya uni amalga oshirish uchun shakllantiriladi. Strategiyani amalga oshirish tashkilotning taktik maqsadlarni qo'yishini, xodimlarni rag'batlantirishni va resurslarni strategik maqsadga erishish mumkin bo'lgan tarzda taqsimlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, korporativ madaniyat shakllanadi, rivojlantiriladi va qo'llab-quvvatlanadi, bu esa strategiyani amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, boshqaruvning muayyan tashkiliy tuzilmasi yaratiladi, marketing harakatlari taqsimlanadi, byudjetlar shakllantiriladi, tegishli axborot tizimi ishlab

chiqiladi va tegishli mehnatga haq to'lash tizimi yo'lga qo'yiladi. Xodimlar intizom va mas'uliyatni nazarda tutuvchi tanlangan strategiyani amalga oshirish uchun safarbar qilinadi. Muvaffaqiyatli strategiyani amalga oshirish jiddiy ravishda xodimlarning motivatsiyasiga bog'liq. Strategik nazorat bosqichida qabul qilingan strategiyaning qanchalik muvaffaqiyatli ekanligi, u qanchalik to'liq amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Ko'pgina adabiyotlarda strategiya atamasiga ta'rif berishda qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun tanlangan harakat rejasidir deb ta'rif beriladi. Lekin bizningcha, bunday ta'riflar ya'ni qisqa, o'rta va uzoq muddatli davr deyilganda odatda har bir davr uchun muddat ko'rsatilishi talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda biz strategiya atamasiga ta'rif berishda unda ko'yilayotgan muddatni umumiy holda aks ettirish lozim deb hisoblaymiz. Bundan kelib chiqqan holda strategiya– bu ma'lum vaqt oralig'ida ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun tanlangan harakat rejasidir, deb ta'riflasak maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

### **1.3. Strategik boshqaruvning ob'ektlari va sub'ektlari**

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan ham ko'rish mumkinki, ilmiy "menejment" jarayoni insonni, ya'ni insonning aqliy va jismoniy qobiliyatini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanar ekan.

Rossiya iqtisodchi olimi L.T.Tkachuk menejment atamasiga va menejment funksiyasiga quyidagicha ta'rif beradi. "Menejment" atamasi bozor sharoitida faoliyat ko'rsatadigan tashkilotlar (korxonalar) darajasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda qo'llaniladi. Boshqaruv jarayoni nafaqat sanoat korxonalari, balki banklar, sug'urta va sayyohlik

kompaniyalari, bozorda mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida faoliyat yuritadigan boshqa iqtisodiy bo'linmalar faoliyatini ham qamrab oladi.<sup>7</sup>

Menejment funksiyasi - bu maxsus usullar, vositalar va uslublardan foydalangan holda amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatining o'ziga xos turi, shuningdek ishni tashkil etish va uning faoliyati ustidan nazorat qilish demakdir.<sup>8</sup>

L.T.Tkachuk o'z tadqiqotlarida menejment funksiyalarini 4 ta ga bo'ladi va uningcha menejment funksiyalari ".....menejmentning asosiy funksiyalari, rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish va nazorat."<sup>9</sup> deb tariflaydi. Bu esa shuni anglatadiki, rejalashtirish o'z navbatida tashkil etish va nazorat funksiyalarisiz, tashkil etish esa rejalashtirish, nazorat qilish va rag'batlantirish funksiyalaridan alohida holda ishlay olmaydi.


Biroq hozirgi kunda ko'pgina adabiyotlarda menejment funksiyalarini 4 tadan ko'p, ayrim adabiyotlarda 5 va undan ham ko'p qilib keltirilgan. Menejment maktablari va turli xil menejment to'g'risidagi konsepsiyalar har doim ham mazmunan bir xil yondoshuvni taklif etavermaydilar. Turli adabiyotlar bilan ishlashda o'quvchi turli mualliflar, ba'zan o'z funksiyalari ro'yxatini taklif qilishlarini ko'rish mumkin. Bizningcha, bugungi kunda "menejment" atamasining "boshqaruv" tushunchasi bilan farqlanishini aniqlashtirib olish zarurati yuzaga keldi. Chunki, iqtisodiy adabiyotlarda aksariyat hollarda "menejment" atamasi "boshqaruv" tushunchasi o'rinda qo'llanilib kelinmoqda. Turli xil yondoshuvlar va fikrlar orasida ham qabul qilingan boshqaruv modeli, ya'ni "boshqaruv" tushunchasining atama sifatida o'ziga xos funksiyalarini belgilab olish zarur. Bular qatoriga **rejalashtirish, kengashish, muvofiqlashtirish, tavakkalchilik, tashkil**

<sup>7</sup> Менеджмент / Л. Т. Ткачук, под ред. М. И. Щадова. — Ростов н/Д : Феникс, 2012. — 539 с.— (Высшее образование). (С.6)

<sup>8</sup> Менеджмент / Л. Т. Ткачук, под ред. М. И. Щадова. — Ростов н/Д : Феникс, 2012. — 539 с.— (Высшее образование). (С.8)

<sup>9</sup> Менеджмент / Л. Т. Ткачук, под ред. М. И. Щадова. — Ростов н/Д : Феникс, 2012 — 539 с.— (Высшее образование). (С.8)

etish, nazorat qilish, tartibga solish hamda rag'batlantirish kabi funksiyalarni keltirish mumkin (1.4-rasm). Boshqaruv funksiyalarining menejment funksiyalaridan muhim farqi shundaki, menejment funksiyalari uzluksiz holda ishlaganda ya'ni mavjud funksiyalar biri boshqasini taqozo etgan holda faoliyatning uzluksizligi ta'minlanadi.



1.4-rasm. Boshqaruv jarayoni funksiyalari<sup>10</sup>

Lekin boshqaruv jarayonida mavjud funksiyalarning u yoki bu turini alohida ishlashi, ya'ni barcha holda mavjud funksiyalar bir birlari bilan bog'langan holda ishlashi talab etmaydi. Bunga misol tariqasida shuni aytish mumkinki, avtomobil menejmenti degan iborani qo'llash mazmunan va mohiyatan noto'g'ri. Chunki, avtomobil boshqaruvi jarayonida menejment funksiyalarining barchasi baravariga uzluksiz holda qo'llanilishi mumkin emas. Bu esa bugungi kunda "menejment" atamasining mutlaqo ko'p hollarda noo'rin foydalanilayotganligini cheklash zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Boshqaruvdagi har qanday jarayonni tashkil etish mos ravishda ma'lum vaqt ichida bajarilishi va erishishi kerak bo'lgan vazifalar va maqsadlar tizimini shakllantirishdan boshlanadi. Keyin turli tadbirlarni

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

rejalashtirish amalga oshiriladi, uning maqsadi tashkilot oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishdir. Bundan kelib chiqadiki, rejalashtirish funksiyasi boshqaruv siklini yuzaga keltiradi va rejalashtirilgan tadbirlar hamda resurslardan belgilangan maqsadlarga erishish aniq ta'minlagandagina rejalashtirish jarayoni amalga oshadi. Rejalashtirish - bu faoliyatning maqsadlari va buning uchun zarur bo'lgan mablag'larni belgilaydigan, shuningdek ularga ma'lum sharoitlarda erishishning eng samarali usullarini ishlab chiqadigan funktsiya sifatida tushuniladi. Bu korxon va tashkilotlar uchun reja tuzish va ularning tarkibiy qismlarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv faoliyatining bir turidir. Reja esa o'z navbatida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar ro'yxatini belgilaydi, ularning ketma-ketligini, resurslarni va belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarish vaqtini oldindan belgilab oladi. Zamonaviy sharoitda rejalashtirish kashf etilgan imkoniyatlar, sharoitlar va omillar yordamida tashkilot faoliyatini yaxshilashning yangi usullari va uslubaridan foydalanishning doimiy jarayoniga aylanib bormoqda. Rejalashtirishni bir martalik tadbir sifatida taqdim etish mumkin emas<sup>11</sup>.

Boshqaruv jarayonini to'g'ri tashkil qilish o'z navbatida to'g'ri qaror qabul qilishga bevosita bog'liq hisoblanadi. To'g'ri qaror qabul qilish esa mazkur sohaning yetuk vakillari bilan kengashish asosida umumiy va eng maqbul qaror qabul qilish natijasida shakllanadi. Bunga asos sifatida muqaddas kitoblarimizdagi har bir ishni boshlashdan oldin maslahat qilish lozimligi va keyin esa yaranganga tavakkal qilish kerakligi keltirilgan oyatlarni ham aytishimiz mumkin. Bundan tashqari qaror qabul qilish funksiyasi, bu ma'lum faoliyatni olib borish yoki biror ishni bajarishda bevosita o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan funksiyalardan biri bo'lib

---

<sup>11</sup> Магальник Л. А. Менеджмент в сфере образования. Планирование как функция управления/рецензенты А. И. Ушаков, А. К. Костин - Издательство Института развития образования Иркутской Области, 2006. - 79 с.

hisoblanadi. Aynan qaror qabul qilish jarayoniga to'g'ri yondoshuv ya'ni to'g'ri qaror qabul qilish bilangina to'g'ri ish faoliyatini boshlashga erishiladi. Bu esa fikrlashish va sohaning yetakchi mutaxasislari bilan maslahatlashgan holda yagona to'g'ri qaror qabul qilish lozim ekanligini ko'rsatadi.

Boshqaruvning ilmiy asosi sifatida navbatdagi funksiyasi vaziyatni baholash bo'lib, boshqaruv jarayonini tashkil etishda yoki birlamchi qarorlar qabul qilishda har bir boshqaruvchi inson yoki insonlar guruhi oldindan vaziyatga baho berish bilan shug'ullanadi. Demakki, mavjud vaziyatni o'rganish, rejalashtirilgan ishni amalga oshirish ehtimolligini qiyosiy baholab oladi va shundan keyingina ushbu ishni bajarish bo'yicha yagona qaror qabul qiladi. Aynan mana shu funktsiya orqali boshqaruv jarayonida vaziyatga qanchalik to'g'ri baho berish orqali to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Tashkiliy faoliyat, ya'ni tashkil etish kabi boshqaruv funksiyasi mahsulot ishlab chiqarish va taqsimlashning rejalashtirilgan ishini ta'minlaydigan yangi tashkiliy munosabatlarning o'ta murakkab va nozik tarmoqlarini shakllantirish muammolarini hal qilish bilan shug'ullanadi. "Tashkil etish" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda har xil semantik ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi odamlar tashkil etishni "menejment" tushunchasidan ustun sifatda qabul qilishadi. Tashkil etish haqida gapirganda, biz dasturning amalga oshirilishini ta'minlash yoki strategiya va rejani qabul qilish uchun sharoit yaratish uchun mo'ljallangan tashkiliy tadbirlar haqida gapirishimiz mumkin <sup>12</sup>.

Tashkiliy funksiyalarning asosiy maqsadi - boshqaruv va boshqarish tizimlarini, shuningdek ular orasidagi aloqalar va munosabatlarni shakllantirish. Tashkil etish inson va texnik resurslarning samarali

---

<sup>12</sup>Смирнов Б. В. Функции управления  
«Экономика», 1977. - 141 с.

hamkorligi uchun imkoniyatlarni taqdim etadi, bunda ularning birgalikdagi mehnat faoliyati minimal xarajatlar bilan maksimal natijalarga erishadi. Ushbu jarayon uyushmagan faoliyatdan yoki tartibsizlikdan uyushganlikka o'tishni belgilaydi.

Tizimning uyushgan tashkiliy funksiyasining elementlari muzlatilgan va o'zgarmas jism emas. Tirik mavjudotlar singari, ular doimo o'zgarib turadigan dunyoga moslashadilar. Barqaror hayotiy tizim doimo turli xil o'zgarishlarga uchraydi. Agar tashkiliy tizim o'z hayotini davom ettirish va rivojlantirishni maqsad qilgan bo'lsa, eski shakldan yangisiga o'tish muqarrar deb hisoblanadi. Tashkil etish funksiyasini amalga oshiradigan ishchilarning asosiy vazifasi tizimni boshqarib bo'lmaydigan bo'lishiga va modifikatsiya jarayonida ishlab chiqarish yo'qotishlariga olib kelishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Tashkil etish funksiyasi, shuningdek uning boshqa boshqaruv funksiyalaridan ustunligi shundaki, u boshqa barcha boshqaruv funksiyalarining o'zaro bog'liqligi va samaradorligini ta'minlaydigan yagona mexanizmdir. Tashkil etish funksiyasining ob'ektivligi inson va moddiy tarkibiy qismlarning birlashishi tasodifiy emas, balki oldindan rejalashtirilgan strategiya bo'yicha sodir bo'lishida va u boshqaruv qonunlariga bo'ysunishi va aniq vazifani bajarishga qaratilganligi bilan ifodalanadi.

Boshqaruvning nazorat qilish, tartibga solish va rag'batlantirish funksiyalari ham "menejment" funksiyalari qatori boshqariluvchi ob'ektda yo'lga qo'yilgan mehnat jarayonini nazorat qilib borish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va unga to'g'ri yechim ko'rsatish hamda ishchi va xodimlarning mehnat samaradorligini oshirish maqsadida ularni moddiy, ma'naviy va boshqa yo'llar bilan rag'batlantirib borishdir.

Boshqaruvning yakuniy vazifasi – muvofiqlashtirish bo‘lib, barcha funksiyalar orasida bu eng kam o‘rganilganlardan biri, ammo ahamiyati jihatidan u boshqa funksiyalardan kam emas. Ushbu funksiya boshqaruv mehnatini taqsimlash bilan bog‘liq muammolarni hal qilish va boshqaruv tizimining barcha elementlari ishlarining izchilligini, shuningdek boshqaruv ob‘ekti va sub‘ekti, ishlab chiqarish tuzilishi o‘rtasidagi munosabatlarning birligini ta‘minlash bilan shug‘ullanadi. Ushbu birlik korxonada ichidagi jarayonlarning maqsadga muvofiqligi shaklidir. Muvofiqlashtirishning asosiy vazifasi - barcha ishlab chiqarish jamoalarining ishlarini yaxshi muvofiqlashtirilgan va uyushgan shaklga keltirishdir. Ammo bu funksiya tashkil etish va tartibga solishdan farq qiladi, chunki u bo‘linmalarni uyg‘unlashtirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlarni o‘z ichiga oladi, bu esa kompaniyada mavjud bo‘lgan resurslarni boshqarish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Boshqaruvning tashkil etish va tartibga solish funksiyalari, muvofiqlashtirish funksiyasiga o‘xshashdir. Chunki ularning barchasi me‘yor tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liqlikka ega va ularning asosiy vazifasi - kelishmovchiliklarni kamaytirish va sub‘ektning ishini muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarish tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshqaruv jarayonini tashkil etishda boshqaruv funksiyalaridan tashqari, boshqaruv tamoyillari, usullari va shakllari ham mavjud bo‘lib, “boshqaruvni” tashkil etishning ushbu nazariy asosi “menejment” tamoyillari va usullariga to‘la mos keladi.

Strategik boshqarish ob‘ektlari sifatida tijorat kompaniyalari, mamlakat, viloyat, shahar, OTM, kichik biznes sub‘ektlari, jamoatchilik tashkilotlari va boshqa shu kabi korxonalar va tashkilotlar bo‘lishlari mumkin. Ko‘pgina zamonaviy tashkilotlarda strategik boshqaruvni tashkil etish jarayonida barcha xodimlarning ishtiroki ta‘minlanishi talab etiladi va ishlab chiqishda ishtirok etishi majburiy bo‘lib hisoblanadi. Masalan, firma

Faoliyat doirasini umumiy belgilashda ko'rsatiladigan xizmat turlari umumiylik xususiyatiga ega bo'ladi. Detallashtirilgan belgilash da esa aholi qatlamlarinining o'ziga hosligini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish demakdir.

Maqsadni aniqlash strategik ko'rish va kompaniyaning rivojlanish yo'nalishlarini aniq maqsadga aylantirib beradi. *Maqsad - bu kompaniya boshqaruv apparatining belgilangan vaqtda aniq natijaga erishish majburiyatidir.*

Kompaniyaning uzoq muddatli rejaları aniq o'lchanadigan konkret

vazifalarga aylantirilmaguncha missiya va kompaniyaning kelajak niyatlari chiroyli so'zlar bo'lib qolaveradi. *Maqsadni aniqlash strategik boshqarishning xal qiluvchi daqiqasidir.*

Korporativ maqsad - bu tashkilot o'z aksionerlarining manfaatlariga qanday qarashini ko'rsatuvchi birinchi hal qiluvchi ko'rsatkichdir. Maqsadga yo'nalganlik kompaniyaning biznesini, asosiy maqsadlarini, xarakteristikalarini va uning yetakchi falsafasini ifodalaydi. Maqsadga yo'nalganlik kelgusi strategik qarorlar uchun tashkiliy mazmun kasb etadi.

Korporativ maqsadga yo'nalganlikning uch asosiy tarkibiy qismi quyidagilardan iborat:

- kompaniya faoliyati aniqlash;
- uning asosiy maqsadlarini belgilash;
- korporativ falsafani aniqlash.

Kompaniyaning maqsadga yo'nalganligi va strategiyasini ifodalashga turli tashqi va ichki guruxlar ta'sir ko'rsatadi (4.1-rasm.)



4.1-rasm. Maqsadni belgilash va kompaniya strategiyasini shakllantirishda xarakatlanuvchi guruxlar<sup>20</sup>

Faoliyatni aniqlashda quyidagi savollarga javob berish lozim:

- Bizning biznes faoliyatimiz nimadan iborat?
- U qanday bo'ladi?

<sup>20</sup> N.Q. Yo'ldoshev. Strategik menejment. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TDIU, 2012 y. – 20-b.

- U qanday bo'lishi kerak?

Birgina biznes bilan shug'ullanuvi kompaniya uchun «Bizning biznes faoliyatimiz nimadan iborat?» degan savolga beriladigan javob uchun avvalambor quyidagi savollarga javob topishni taqozo etadi:

- kimning yehtiyoji qondiriladi (iste'molchilarning qanday guruxlari)?

- qanday ehtiyojlar qondiriladi (iste'molchilarning qaysi ehtiyojlari)?

- iste'molchilarning ehtiyojlari qanday qondiriladi (san'at yoki farq qiluvchi ustunliklar)?

Diversifikasiyalangan kompaniya uchun «Bizning biznesimiz nimadan iborat?» degan savol ikki tabaqada ko'rib chiqilishi kerak:

- xo'jalikning o'rta bo'g'inlari uchun iste'molchiga yo'naltirilgan (birgina biznes bilan shug'ullanuvchi kompaniya uchun ham);

- korporasiya miqyosidagi xo'jalikning o'rta bug'inlari portfeliga yo'naltirilgan.

Bu esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompaniya portfelining maqsadlari;
- xo'jalikning o'rta bug'inlari portfeli diversifikasiyasi;
- portfeldagi xo'jalikning o'rta bug'inlari o'rtasidagi balans.

Kompaniyaing asosiy maqsadi foydani maksimallashtirish va erkin raqobatchiga aylanaolishdan iborat bo'lsa uning missiyasi esa maqsadga mos ravishda iste'molchilarga xizmat qilish, ularning manfaatlarini ustun qo'yish va ularning ehtiyojlarini qondirish yo'lida xizmat qilishdan iboratdir. Ayni paytda tashkilotning har bir bo'linmasini kerakli tomonga yo'naltirish jarayoni ham ana shunday boshlanadi. Maxsus muhim natijalar odatda tarmoqning miqyosi va darajasini, ishning rivojlanishi, investitsiyalarning qaytarilishini, dividendlarning o'sishini, bozorning

o'lchamlarini, sifatli maxsulotning yoki texnologik peshqadamlilikning obro'sini, beqaror iqtisodiyotda ishlay olish qobiliyatini, diversifikasiya darajasini, moliyaviy qudratni, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni, qiymat bo'yicha raqobatlasha olish qobiliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Mashxur kompaniyalarning maqsadlariga misol keltiramiz:

- Federal Express: Dunyodagi eng katta va eng yaxshi transport kompaniyasi bo'lish

- Alcan Aluminum: Eng arzon alyuminiy ishlab chiqaruvchi korxonaga bo'lish.

- General Electric: Dunyodagi eng qudratli raqobatchi bo'lish, kompaniya biznesining har bir soxasida bozordagi ulush bo'yicha birinchi yoki ikkinchi o'rinni egallash.

- Atlas Corp: arzon oltin ishlab chiqaruvchi o'rtacha ishlab chiqaruvchi bo'lish va oltin ishlab chiqarish xajmini yiliga 125000 unsiyaga yetkazib, 1500000 unsiyaga teng oltin zaxirasiga ega bo'lish.

- Black and Decker: yangi mahsulotlar chiqarishni va biznesni globallashtirishni davom ettirish

Bu yerda ham uzoq muddatli, ham qisqa muddatli maqsadlar talab qilinadi. Uzoq muddatli maqsadlar ikki xil bo'ladi: birinchidan, ular uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun bugun nima qilish kerakligini ko'rsatadi, ikkinchidan bunday maqsadlarning mavjudligi menejerni uzoq muddatli istiqbolni xisobga olgan holda bugungi qarorlarni qabul qilishga undaydi.

Qisqa muddatli maqsadlar izchillik bilan eng yaqin kelajakda qaysi natijalarga zudlik bilan erishish kerakligini ko'rsatib beradi. Ular tashkilotga tanlab olingan yo'ldan borish uchun kerak bo'lgan tezlikni xam, qilinishi kerak bo'lgan ishlarning talab qilingan darajasini xam (qachon va qanchalik ko'p ish qilish kerakligini) ko'rsatadilar.

Tashkilotning maqsad va vazifalari ochiq-oydin bo'lishi lozim. Ba'zi kompaniyalarning menejerlari har bir xal qiluvchi natija uchun maqsadlar belgilaydilar va so'ngra erishish lozim bo'lgan maqsadlar sari qat'iy harakat qiladilar. Odatda ular menejerlari umidga, iltimosga va yaxshi niyatlarga tayanadigan kompaniyalarga qaraganda g'oliblikka yaxshiroq nomzod bo'ladilar. Bu yerda «daromadni maksimallashtirish», «xarajatlarni kamaytirish», «samaradorlikni oshirish», «savdo xajmini oshirish» kabi iboralarni ishlatmaslik kerak.

Strategik fikrlash uchun maqsadlar ierarxiyasini rahbarlikning barcha tabaqalari uchun kompleks ravishda belgilab olish muhimdir. Bu barcha menejerlar uchun vazifalarni aniqlashtirishdan tashqari, ularga erishishning realligini ham ta'minlaydi (bu maqsadda jarayonda quyi tabaqadagi menejerlar xam ishtirok etadi).

*Maqsadni belgilashda kompaniya ta'sischilari manfaatlarini xisobga olish.*

Ta'sischilar kompaniyani kapital bilan ta'minlaydilar va buning yevaziga o'z investitsiyalaridan munosib daromad olish ulushini qo'lga kiritadilar. Kompaniyaning aksionerlari uning qonuniy mulk egalari xisoblanadilar. Binobarin, ko'pchilik korporasiyalarning maqsadi aksionerlarning daromadlarini imkon qadar ko'paytirishdan iboratdir. Ta'sischilar o'z kapitalaridan ikki xil yo'l bilan foyda oladilar:

- dividendlardan;
- bozorning ko'lami kengayganda (aksiyalarning bozor narxi ortganda) kapitalning qiymati ortishidan

Kompaniya uchun aksionerlar daromadini oshirishning eng yaxshi yo'li investitsiyalarning qaytish tezligini oshirish strategiyasidan foydalanishdir, bu esa kompaniya samaradorligini ko'rsatuvchi juda yaxshi indikator, ya'ni uning samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, dividend

to'lash qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, investitsiyalarning tez qaytishi kompaniya aksiyalariga bo'lgan talabning kuchayishiga ham olib keladi.

Tashkilot strategiyasi - bu kompaniyaning turgan joyidan erishmoqchi bo'lgan joyiga qanday qilib o'tkazish mumkin, degan masalani yechish xaqidagi yo'riqnomadir. Odatda strategiya 4 ta darajada ishlab chiqiladi:

1) korporativ strategiya (kompaniya va uning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha umumiy strategiya);

2) ishbop strategiya (kompaniyaning har bir yo'nalishi uchun strategiya);

3) funksional strategiya (kompaniyaning har bir funksional tuzilmasi uchun strategiya);

4) amaliy strategiya (asosiy tuzilmalar: zavodlar, savdo shaxobchalari va bo'limlar uchun );

*Strategiyani ishlab chiqishning asosiy tashkiliy pog'onalari.*

Strategiya faqat oliy rahbariyat miqyosidagina ishlab chiqilishi mumkin emas. Uni ishlab chiqishning quyidagi to'rtta pog'onasini ajratib olish maqsadga muvofiqdir:

- korporasiya miqyosi,
- bo'linmalar miqyosi
- funksional miqyosi
- quyi pog'ona menejerlari (dala komandirlari).

Kompaniyada strategiya ishlab chiqishning ierarxiyasi 4.1-jadvalda keltirilgan.

Kompaniya strategiyasini aniqlashga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Bu omillarning o'zaro ta'siri har bir tarmoqda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, vaqt davomida o'zgarib turadi. Strategiyani belgilovchi omillar doim bir-biridan farq qiladi. Kompaniya hamisha xam o'zi xoxlagan strategiyani

tanlay olmaydi. Uning harakatlari qonun, davlat siyosati, ijtimoiy tartiblash va jamiyat mavqei bilan chegaralanadi.

#### 4.1-jadval

Kompaniya strategiyasini ishlab chiqishning asosiy pog'onalari<sup>21</sup>

Pog'ona	Ishlab chiqishga (qaror qabul qilishga) javobgarlar	Ishlanmaning mazmuni
Korporativ strategiya	Ijrochi direktor, asosiy vitse-direktorlar (qarorlar direktorlar kengashi tomonidan qabul qilinadi va/ qayta ko'rib chiqiladi)	Xo'jalikning o'rtabog'ini portfelini tashkil qilish va boshqarish. Xo'jalikning o'rtabog'ini sinergizmini raqobatli ustunlik sifatida ta'minlash. Investitsion imtiyozlarni aniqlash va eng manfaatli tarmoqlarda resurslarni boshqarish. Xo'jalikning o'rtabog'ini rahbarlarining asosiy strategik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish, tekshirish, umumiy lashtirish
Xo'jalikning o'rtabog'ini strategiyasi	Bosh menejer, Xo'jalikning o'rtabog'ini boshliqlari (qarorlar kompaniya rahbariyati tomonidan qabul qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi)	Muvaffaqiyatli raqobatlashishga hamda raqobatda ustunlikka erishishga qaratilgan harakatlar va yondashuvlarni belgilab olish. Tashqi shartlarning o'zgarishiga javob reaksiyalarini shakllantirish. Asosiy funksional xizmatlarning strategik tashabbuslarini umumlashtirish. O'ziga xos muammolarni hal qilish
Funksional strategiya	Funksional menejerlar (qarorlar odatda rahbariyat tomonidan qabul qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi)	Biznes strategiyasini qo'llab-quvvatlashning funksional yondashuvlarni tashkil qilish va ITTKI, ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlar bilan ishlash soxalarida funksional maqsad va strategiyalarga erishish. Quyi bosqichdagi menejerlarning asosiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, tekshirish, unifikatsiyalash
Tezkor strategiya	Dala bo'limlarning rahbarlari, quyi daraja menejerlari, shu jumladan funksional menejerlar (qarorlar funksional bo'limlarning boshliqlari tomonidan qabul qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi)	Dala bo'limlari va funksional bo'limlarning maqsadlariga erishish uchun funksional va xo'jalikning o'rtabog'ini strategiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tor soxadagi va maxsus yondashuvlar va choratadbirlarni ishlab chiqish

Kompanya strategiyasini ijtimoiy talablarga moslashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1) jamiyat manfaatlari va odob me'yorlari doirasida ishchanlik ko'rsatish;
- 2) ijtimoiy afzalliklar va jamiyat ehtiyojlariga ijobiy qarab o'z

<sup>21</sup> N.Q. Yo'ldoshev. Strategik menejment. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TDIU, 2012 y. – 24-b.

faoliyatini tartibga solish;

3) tartiblashtiruvchi me'yorlar bilan ziddiyatga bormaslik uchun zarur harakatlarni o'z vaqtida amalga oshirish;

4) ta'sischiilar manfaati va jamiyat manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlash;

5) jamiyatda kompaniyaning pozitsiyasini mustahkamlash.

Tarmoqning jozibadorligi va raqobat darajasi strategiyani tanlashda katta tahamiyatga ega. Kompaniya strategiyasini notanish bo'lgan sohaga asoslab qurish mutlaqo yaramaydi. Strategiyani to'g'ri tanlash kompaniya uchun ma'lum bo'lgan faoliyatga asoslangan bo'lishi lozim.


Strategiya tanlashda hisobga olinishi va aslida uni belgilovchi birlamchi omillarning oddiy modeli 4.2-rasmda keltirilgan. Bu omillarning o'zaro ta'siri odatda kompleks xarakterga ega bo'lib, tarmoq va kompaniya uchun alohida farqlanadi.

Odatda, ichki va tashki vaziyat o'rtasidagi farq aniq bo'lmasa, raqobatli ustunlikka erishilmasa, kompaniyaning faoliyati yaxshilanmagan bo'lsa, tanlangan strategiyaning o'zi muvaffaqiyat keltirmaydi.

Strategiya tuzishga yondoshuvlar quyidagilarga bo'linadi:

1) Bosh strategik yondoshuv – bunday holda strategiya boshliqning o'zi tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu holatda boshqaruvchi faoliyatni baholashda, muqobil strategiyalarga va tanlangan strategiya detallariga asosiy e'tiborni qaratadi va yakka o'zi qaror qabul qiladi.

2) Vakolatlarni berish yondoshuvi - bunda strategiyani tuzish xodimlar yoki komissiyaga topshiriladi. Bunday xolda mas'ul boshqaruvchi strategiyani ishlab chiqishni boshkalarga, asosan strategik rejalashtirish buyicha mas'ul xodimlarga yoki ishonch bildirilgan xodimlardan tuzilgan maxsus komissiyaga topshiradi.



**4.2-rasm. Kompaniya strategiyasini belgilovchi omillar<sup>22</sup>**

3) Qo'shma (kollaborasion) yondoshuv - bu avvalgi ikki yondoshuv o'rtasidagi oralik variant. Bunday usulning eng kuchli tomoni shundaki, strategiyani ishlab chiqish kimlarga topshirilgan bo'lsa, uni o'shalarning o'zleri bajarishlari kerak bo'ladi.

4) Tashabbusli yondoshuv. Bunday yondoshuvda boshqaruvchi kelishilgan strategiyani ishlab chiqish uchun strategiya detallarini ishlab chiqishdan xam, «goyalar generatorlari» guruxini boshkarishdan xam manfaatdor emas. Bilaks, boshqaruvchi okilona strategiyani ishlab chiqish, himoya qilish va xayotga tadbik etish uchun menejerlarni o'zlarini safarbar etadi. Strategiyani ishlab chiqish uchun boshqaruvchilar foydalanishlari mumkin bo'lgan to'rt asosiy yondoshuvning birtotasi ham eng yaxshi

<sup>22</sup> N.Q. Yo'ldoshev. Strategik menejment. O'quv qo'llanma. - Toshkent, TDIU, 2012 y. - 140 b.

yondoshuv sifatida yuzaga chiqmaydi. Ularning har birini kuchli va kuchsiz tomonlari mavjud.

Kompaniya va boshqaruvchilar strategiyani ishlab chiqish buyicha variantlarni turlicha bajaradilar. Kompaniya egasi tomonidan boshqariladigan kichik kompaniyalarda strategiyani ishlab chiqish norasmiy kechadi. Yirik kompaniyalar strategiyani har yili rejalashtirib ishlab chiqishga moyildir. Strategiyani belgilashning tashkiliy jarayonida boshqaruvchilar shaxsan qatnashadilar.

Tuziladigan strategiya ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak. Kompaniyaning har bir harakati axloq-odob, ma'naviyat doirasida bo'lishi lozim. Kompaniya ta'sischi, xizmatchilar, iste'molchilar, yetkazib beruvchilar va jamiyat oldida burchlidir. Kompaniyaning iste'molchilar oldidagi burchi bozor munosabatlari asosiga quriladi. Kompaniya bilan iste'molchilar ya'ni xonadon egalari ham sherik ham o'zaro raqibdir. Shuning uchun ular o'rtasidagi munosabatlar aniq belgilab olinishi lozim.

Jamiyat nazarida har bir kompaniya «yaxshi fuqaro» tushunchasiga mos bo'lishi, o'z vazifalarini xalollik bilan bajarishi, ya'ni davlat va jamiyat oldidagi vazifa va burchlarini mas'uliyat va sidqidillik bilan bajarishlari lozim.

Agar tuziladigan strategiya kompaniyaning axvoliga mos bo'lmasa, raqobat ustunligi yaratilmasa, ish faoliyatini yaxshilashga yaramasa – bunday strategiya g'olibona strategiya deyilmaydi. G'olibona strategiyaning 3 ta belgisi bo'ladi:

- 1) Moslik darajasi mezoni;
- 2) Raqobat kurashida ustunlik mezoni;
- 3) Ishning jadalligini oshirish mezoni;

**Moslik darajasi mezoni.** Yaxshi strategiya uning imkoniyatlari va intilishlari, ichki va tashki omillar nuktai nazaridan kompaniyadagi

vaziyatga mos kelmas ekan u shubxalidir.

**Raqobat kurashida ustunlik mezoni.** Yaxshi strategiya raqobatda barqaror ustunlikka erishishga olib kelishi lozim. Strategiya yordamida raqobat kurashida kanchalik katta ustunlikka erishilsa, strategiya shunchalik kuchli va samarali bo'ladi.

**Ishlarning jadalligini oshirish mezoni.** Yaxshi strategiya kompaniya ishining intensivligini oshiradi. Ishlarni takomillashtirishning ikkita turi uta muhim bulib, ular quyidagilar:

1. Kompaniya daromadlarining oshishi.

2. Kompaniyaning uzoq kelajakdagi faoliyati hamda raqobatbardoshligining oshishidir.

4.2. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining jamiyatdagi tutgan o'ri

Insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida asosiy va muhim vazifalardan biri aholining turmush darajasini yaxshilash masalasi bo'lib kelgan. Aholini turmush darajasi, hayot kechirishi bilan bog'liq bo'lgan moddiy ne'matlar mavjudligi va ijtimoiy sohada ko'rsatilayotgan xizmatlarning tashkil etilish darajasiga bog'liq. O'z navbatida ma'naviy va moddiy ne'matlar inson tafakkurining mahsuli, samarali mehnati natijasi hisoblanadi. Hozirgi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan uslubga muvofiq dunyodagi mamlakatlarning taraqqiyot darajasi reytingi ularning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy qudratiga qarab emas, balki, aholi turmush madaniyati va inson resurslarining rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi.

Aholining turmush darajasi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy sohaning rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. O'z navbatida ijtimoiy soha aholiga moddiy va ma'naviy ne'matlar yetkazib beruvchi infratuzilmalardan tashkil topadi. Ta'lim, madaniyat, san'at, sport va sog'liqni saqlash kabi sohalar aholini komil inson qilib tarbiyalash uchun

xizmat qilsa, uy-joy xo'jaligi va kommunal xizmatlar tizimining rivojlanishi aholining farovon hayot kechirishi va munosib turmush tarzining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Dunyoda aholi statistikasi ma'lumotlari o'rganilganda, bundan bir asr oldin, 1900 yilda yer yuzida 1608 million aholi yashaganligi qayd etilgan bo'lsa, oradan bir asr o'tib 2000 yilda esa aholi soni 5300 million kishiga yetkanligini ko'rish mumkin. Albatta aholi sonining ko'payib borishiga fan va texnika taraqqiyoti, tibbiyot sohasining rivojlanishi natijasida aholiga qirg'in soluvchi yepidemiyalarni davolash imkoniyati topilganligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, aholining yashashi uchun shart-sharoitni yaxshilanishi, turmush darajasining yuksalib borishi va sog'lom farzand tarbiyasi uchun qulay imkoniyatni yaratib berishda uy-joy-kommunal xo'jaligi sohasi muhim o'rin egallaydi.

Uy-joy qurilishi va kommunal xo'jaligi tarixiga nazar solganimizda bu sohada mamlakatimizda uzoq tarixga va cheksiz manbaga ega bo'lgan maktab mavjudligining guvohi bo'lamiz. Hattoki, ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan, O'rta Osiyoda eng qadimgi hisoblanuvchi (X-asr, 980-yillarda) bunyod etilgan tarixiy obida "Samoniylar maqbarasi"ga nazar tashlar ekanmiz, uning noyob san'at asari darajasida yaratilgan arxitektura yodgorligi ekanligi bilan birga unda yog'ingarchiliklardan himoyalovchi tarnov yo'li, oqovasuv tizimi va havo aylanishini ta'minlovchi kommunikasiyalarning mavjudligini ko'ramiz. Bu esa o'sha davrda O'rta Osiyoda muhandislik tarmoqlari qurilishi sohasida ma'lum tajriba mavjud ekanligini ko'ramiz.

O'zbek-yapon olimlari tomonidan, O'rta Osiyodagi eng qadimiy hisoblangan, Surxandaryo viloyatidagi Dalvarzintepa shahri hududida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasiga ko'ra ushbu shaharga suv ta'minoti maxsus sopol quvrlar orqali amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi.

Shahrisabzda Ulug' bobomiz Amir Temir tomonidan bunyod etilgan Oqsaroy ansambli tomida ko'rkam bog' bunyod etilgan va bog' o'rtasidagi favora (fontan)dan zilol suv taralib turgan. Mazkur favoraga suv quvuri tog' qoyasidan chiquvchi buloqdan sopol quvrlar orqali olib kelingan bo'lib, quvrlar bir-biriga qo'rg'oshinni yeritib quyish orqali payvandlangan. Shuningdek, suv ta'minoti va oqova quvur tarmoqlarini Buxoro, Samarqand, Xiva kabi qadimiy shaharlarimizda saqlanib kelayotgan har bir tarixiy obidalarda uchratish mumkin. Ammo, mamlakatimizda ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan tarixiy obidalarda saqlanib qolgan muhandislik-kommunikasiya tizimlarining ilmiy jihatlari hozirgi kunga qadar mukammal o'rganilmagan.

Samarqand viloyatining Nurota tumanida XV-XVI asrlarda bunyod etilgan umumiy uzunligi 10 km.dan ortiq yer yuzasidan 10-35 metrgacha chuqurlikda o'tkazilgan suv ta'minoti inshooti hozirgi kunga qadar faoliyat ko'rsatmoqda.

Qadim zamonlardan (XI-XVII asrlar) O'rta Osiyo hududida suv manbalarining taqchilligi va tabiiy iqlim sharoitining quruq va issiqligi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, tabiiy yog'ingarchilik davrlarida suv zahiralari katta miqdorda to'plash va uzoq muddatga saqlab turishga mo'ljallangan muhandislik inshootlari yaratilishiga olib kelgan. Qadimiy Buyuk ipak yo'li xaritasi bo'ylab olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu tarixiy yo'lining aynan Markaziy Osiyo cho'llari bo'ylab o'tgan qismida Sardoba deb nomlangan, savdo karvonlarini ichimlik suvi bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi inshootlarining barpo etilganligi aniqlangan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan sardobalarni ilmiy tadqiq etish natijalari ularda aynan bahorgi yog'ingarchiliklar mavsumi tugagunga qadar, keyingi, kuzgi yomg'irlar mavsumigacha yetarli suv miqdorini yig'ilishi, quyosh nuri va ifloslanishdan himoyalash, yuqumli kasallik va zararli bakteriyalar

tarqalishining oldini olish imkoniyatlarining mujassamligi bu inshootlar qurilishi o'ta mukammal ekanligidan va ilmiy asoslanganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo hududida tarixiy manbalarda qurib ishga tushirilgan muddatlari oldingi ming yillikgacha bo'lgan davrmi o'z ichiga oluvchi, o'nlab muhandislik inshootlari mavjud bo'lib, ularning barchasi uzoq o'tmishda O'rta Osiyo hududidagi qadimiy shaharlar va doimiy (o'troq) aholi yashash manzillarida uy-joy xo'jaligi va dehqonchilikda suv ta'minoti inshootlari barpo etilganligidan va uy-joy-kommunal xo'jaligi sohasining yaratilishida aynan O'rta Osiyoda asos solinganligidan dalolat beradi.

### **4.3. O'zbekiston Respublikasining uy-joy siyosati**

Respublikamizda davlatning uy-joy siyosati O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida aks ettirilgan bo'lib, u 1998 yil 24 dekabrda 713-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan qabul qilingan va Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 dekabrda 714-I-son Qaroriga muvofiq 1999 yil I apreldan amalga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11 ta bo'lim va 141 ta moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasida uy-joy siyosati uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi<sup>23</sup>. Uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlari Uy-joy kodeksidan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Ayrim uy-joy munosabatlari uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarida tartibga solinmagan bo'lsa, ularni respublikamizda yerga oid qonun hujjatlari hamda arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlarining ana shu munosabatlarni tartibga solishga taalluqli qismi qo'llanadi.

---

<sup>23</sup> -O'zR Uy-joy kodeksi, I-moddasi.

Uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlari fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining quyidagi masalalar bo'yicha munosabatlarini tartibga soladi<sup>24</sup>:

- turar joylarga mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqining yuzaga kelishi, amalga oshirilishi, o'zgarishi hamda bekor bo'lishi;
- uy-joy fondini hisobga olish;
- uy-joy fondini saqlash, qarash va ta'mirlashni ta'minlash;
- fuqarolarning uy-joy huquqlariga rioya etilishi va uy-joy fondidan maqsadli foydalanish ustidan nazorat qilish.

Uylarni qurish, turar joylarni qayta qurish va o'zgartirish, muhandislik qurilmalaridan foydalanish, kommunal xizmatlar bilan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar Uy-joy kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Agar, qonunda yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi uy-joy munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlariga<sup>25</sup> quyidagilar kiradi:

- uy-joy fondidan foydalanish va uning asralishini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini yuritadi, uy-joy sohasini rivojlantirishning davlat kompleks dasturlarini qabul qiladi<sup>26</sup>;
- uy-joy xo'jaligi va kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha davlat boshqaruv organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

<sup>24</sup> -O'zR Uy-joy kodeksi, 2-moddasi.

<sup>25</sup> -O'zR Uy-joy kodeksi, 3-moddasi

<sup>26</sup> -O'zR 12.05 2001 y 220-II-son Qonuniga muvofiq.

- turar joylarni taqsimlash hamda arenda, ijara shartnomalari bo'yicha fuqarolarga berish, shuningdek ularni almashtirish hamda sotish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- uy-joy va kommunal xizmatlar uchun haq to'lash tizimini tartibga soladi;

- kompensatsiya, kredit hamda ssudalar berish tartibi va shartlarini tartibga soladi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi<sup>27</sup>:

- uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash;

- uy-joy fondini va kommunal ob'ektlarni boshqarishni tashkil etish;

- o'z tasarrufidagi hududda kommunal xizmatlarga oid tarif siyosatini belgilangan tartibda shakllantirish;

- uy-joy fondini hisobga olish;

- davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berish;

- davlat uy-joy fondidagi turar joylarni ulardan belgilangan maqsadda foydalanish uchun yuridik shaxslarga arenda shartnomasi shartlari asosida berish;

- uy-joy fondidan foydalanilishi va uning asralishi, aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar sifati ustidan nazoratni ta'minlash;

- aholining ijtimoiy jihatdan himoyalangan va kam ta'minlangan toifalar orasidan uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish hamda ularni aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidan uy-joy bilan ta'minlash;

---

<sup>27</sup> —O'zR.Uy-joy kodeksi, 5-moddasi.

- fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalangan va kam ta'minlangan toifalari uchun uy-joy qurish;

- uy-joy quruvchilarga uy-joy qurish uchun, shuningdek xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlariga doimiy foydalanishga belgilangan tartibda yer uchastkalari berish;

- uy-joy fondiga xizmat ko'rsatuvchi kommunal xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va transport infratuzilmasi ob'ektlarining lozim darajada saqlanishi hamda rivojlantirilishini ta'minlash;

- davlat uy-joy fondining turar joylarini bronlashtirish va almashtirish; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari uy-joy munosabatlari tartibga solish sohasida<sup>28</sup>:

fuqarolarga uy-joy fondidan foydalanishda hamda uning saqlanishini ta'minlashda ko'maklashadi;

qurish va uy yon atrofini saqlash qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

fuqarolarning maishiy-uy-joy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritadi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Kompaniya rahbariyatining rivojlanishi yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha vazifalari.

2. Missiya mazmuni va uning asosiy savollari.

3. Missiyani ifodalashga qanday talablar qo'yiladi?

4. Strategiyani ishlab chiqish bosqichlari nima?

5. Strategiya qanday darajalarda ishlab chiqiladi?

6. Strategiyani shakllantiruvchi omillar.

---

<sup>28</sup> -O'zR.Uy-joy kodeksi, 6-moddasi.

## 7. Strategiyani ishlab chiqishga qanday yondoshuvlar bo'ladi?

### Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. — СПб.: Питер, 1999. - 416 с.

2. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: человек, стратегия, организация, процесс: Учебник. — М.: Гардарики, 1995. - С. 29-43.

3. Гапоненко А.Л. Особенности управления в государственной службе // Государственная служба. 1997. №0. - С. 28-35.

4. Дункан Дж. У. Основопологающие идеи в менеджменте. Уроки основоположников управления и управленческой практики. — М.: Дело, 1996. - 272 с.

5. Карлоф Б. Деловая стратегия. — М.: Экономика, 1991.- С. 31-38.

6. Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы управления. — М.: Дело, 1992.-С. 255-286.

7. Минсберг Г., Алстренд Б., Лемпел Дж. Школы стратегий. — СПб.: Питер, 2000. - 336 с.

8. Общий и специальный менеджмент: Учебник / Под общ. ред. А.Л. Гапоненко и А.П. Панкрухина. — М.: Изд-во РАГС, 2000. - С. 79-90.

9. Саймон Г.А., Смитбург Д.У., Томпсон В.А. Менеджмент в организациях. — М.: Экономика, 1995. - 335 с. Тридцат шесть стратегем: Китайские секреты успеха / Пер. с кит. Б.В. Малявина. — М.: Белые алвы, 2000. — с-19.

10. N.Q. Yo'ldoshev. Strategik menejment. O'quv qo'llanma. — Toshkent, TDIU, 2012 y. - 140 b.

*Raqobatli strategiyaning moxiyati  
kompaniyaning o'z tashqi muhitiga  
bo'lgan munosabatidir*

*M. Porter*

---

**5-BOB: TARMOQDAGI UMUMIY HOLAT VA UNDAGI  
RAQOBAT TAHLILI**

---

**REJA:**

- 5.1. Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobat tahlilining mazmuni va usullari.**
- 5.2. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.**
- 5.3. Tarmoqdagi raqobat kuchlari va ular ta'sirining darajasi.**
- 5.4. Raqobat kuchlari tarkibida o'zgarish yasovchi omillar.**
- 5.5. Raqobat kurashida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning kalit omillari.**

*Tayanch so'zlar: milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, tarmoq, raqobat taxlili, M.Porterning raqobat ustunliklari rombi, muvaffaqiyatning asosiy omillari.*

**5.1. Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobat tahlilining mazmuni va usullari**

Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatni taxlil qilishda aloxida usullar qo'llanilib, bu usullar tarmoqda bo'layotgan o'zgarishlar va raqobat kurashini baholash imkonini beradi. Buning uchun quyidagi 7 ta savolga javob topish lozim:

1. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.
2. Tarmoqdagi raqobat kuchlari va ular ta'sirining darajasi.
3. Raqobat kuchlari tarkibida o'zgarish yasovchi omillar.
4. Kompaniya raqobat mavqeining kuchli va zaif jixatlari.
5. Raqobat kurashida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning kalit omillari.

7. Strategiyani ishlab chiqishga qanday yondoshuvlar bo'ladi?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. — СПб.: Питер, 1999. - 416 с.

2. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: человек, стратегия, организация, процесс: Учебник. — М.: Гардарики, 1995. - С. 29-43.

3. Гапоненко А.Л. Особенности управления в государственной службе // Государственная служба. 1997. №0. - С. 28-35.

4. Дункан Дж. У. Основополагающие идеи в менеджменте. Уроки основоположников управления и управленческой практики. — М.: Дело, 1996. - 272 с.

5. Карлоф Б. Деловая стратегия. — М.: Экономика, 1991. - С. 31-38.

6. Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы управления. — М.: Дело, 1992. - С. 255-286.

7. Минсберг Г., Алстренд Б., Лемпел Дж. Школы стратегий. — СПб.: Питер, 2000. - 336 с.

8. Общий и специальный менеджмент: Учебник / Под общ. ред. А.Л. Гапоненко и А.П. Панкрухина. — М.: Изд-во РАГС, 2000. - С. 79-90.

9. Саймон Г.А., Смитбург Д.У., Томпсон В.А. Менеджмент в организациях. — М.: Экономика, 1995. - 335 с. Тридцат шесть стратегем: Китайские секреты успеха / Пер. с кит. Б.В. Малявина. — М.: Белые алвы, 2000. - с-19.

10. N.Q. Yo'ldoshev. Strategik menejment. O'quv qo'llanma. — Toshkent, TDIU, 2012 y. - 140 b.

*Raqobatli strategiyaning moxiyati kompaniyaning o'z tashqi muhitiga bo'lgan munosabatidir*

*M. Porter*

---

**5-BOB: TARMOQDAGI UMUMIY HOLAT VA UNDAGI RAQOBAT TAHLILI**

---

**REJA:**

- 5.1. Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobat tahlilining mazmuni va usullari.**
- 5.2. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.**
- 5.3. Tarmoqdagi raqobat kuchlari va ular ta'sirining darajasi.**
- 5.4. Raqobat kuchlari tarkibida o'zgarish yasovchi omillar.**
- 5.5. Raqobat kurashida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning kalit omillari.**

*Tayanch so'zlar: milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, tarmoq, raqobat taxlili, M.Porterning raqobat ustunliklari rombi, muvaffaqiyatning asosiy omillari.*

**5.1. Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobat tahlilining mazmuni va usullari**

Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatni taxlil qilishda aloxida usullar qo'llanilib, bu usullar tarmoqda bo'layotgan o'zgarishlar va raqobat kurashini baholash imkonini beradi. Buning uchun quyidagi 7 ta savolga javob topish lozim:

- 1. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.
- 2. Tarmoqdagi raqobat kuchlari va ular ta'sirining darajasi.
- 3. Raqobat kuchlari tarkibida o'zgarish yasovchi omillar.
- 4. Kompaniya raqobat mavqeining kuchli va zaif jixatlari.
- 5. Raqobat kurashida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning kalit omillari.

6. Raqobat qaysi yo'nalishda borishini kim belgilaydi?

7. Foyda olish nuqtai nazaridan tarmoqning jozibadorligi

Vaziyat taxlilining maqsadi kompaniyaning ichki va tashqi muhitiga xos bo'lgan va kompaniyaning strategik yo'nalishi va imkoniyatlarini eng yorqin ifodalovchi jixatlarni aniqlashdan iboratdir. Bunda asosiy ye'tibor strategiyaga oid bir qator muhim savollarga aniq javoblar topishga qaratiladi. Sungra bu savollar kompaniyadagi strategik vaziyatning aniq manzarasini shakllantirish va uning strategik xatti-harakatlariga muqobil variantlarni belgilash uchun foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...asosiy e'tiborni narxlarni belgilashga emas, balki korxonalar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali narxlarni pasaytirishga va sifatni oshirishga qaratishimiz kerak. Xalqaro tajribani o'rganib, raqobatni olib kirish mumkin bo'lgan monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yo'l ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim" deb ta'kidlab o'tganlar<sup>29</sup>.

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, rivojlantirish usuli hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish, unga turli tomondan yondoshishni talab qiladi. Milliy tovarlar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat, tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashdilar. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste'molchilar uchun kurashdir.

---

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 25 yanvar, 2020 yil.

Jahon bozorlaridagi beqarorlik sharoitida mamlakatni barqaror rivojlantirish vazifasini hal etishda iqtisodiyotning raqobatbar-doshligini ta'minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi turli shakllarda va darajalarda namoyon

bo'ladi. Unga:

- mamlakat korxonalarini ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi;

-mamlakat korxonalarining (firmalarining) raqobatbardoshligi;

- mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining raqobatbardoshligi;

- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi;

- mamlakatning raqobatbardoshligi.

Iqtisodiyot sohasidagi ayrim mutaxassislar raqobatbardoshlikning keltirilgan oxirgi ikki shaklini birlashtirib ta'riflaydilar hamda bu tasnifga xodimlarning raqobatbardoshligini ham qo'shadilar. Mahsulotning raqobatbardoshligi uning sifati va narxiga ko'ra shu turdagi boshqa ishlab chiqaruvchilarning mahsulotidan ustunligi bilan belgilanadi.

*Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi* – halol raqobat sharoitida jahon bozori talablarini qondiruvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, hamda o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyatidir.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi masalasi doimo iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu masaladagi zamonaviy nazariyalarning ko'piga asos bo'lgan fikrlar M.Porterning izlanishlarida yoritilgan.

M.Porter mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi uning resurslar bilan yaxshi taminlanganligigagina bog'liq emasligini, raqobat ustunligini

shakllantirish, ta'minlab turish mumkinligini ko'rsatib berdi va unga mamlakat firmalarining raqobatbardoshligini ta'minlash orqali erishiladi degan fikri ilgari surdi. Raqobatbardoshlikni shakllantirish va rivojlantirishning M.Porter konsepsiyasiga ko'ra mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari "milliy romb" ni tashkil etuvchi to'rtta unsurdan iborat. 5.1-rasmda keltirilgan "Milliy romb" ni tashkil etuvchi unsurlarga qisqacha tavsif beramiz:

1. Mehnat, material, bilim, pul, infratuzilma resurslari bilan ta'minlanganlik mamlakatning raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu resurslarning ba'zilar oldindan mavjud bo'lsa, ayrimlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

2. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorlardagi talabning hajmi, tarkibi va ularning o'zgarishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu mahsulotlarga talab hajmining oshishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Raqobatbardosh hamkor tarmoqlarning mavjudligi murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, qimmat resurslarni mamlakat ichidan topish, mahsulot yetkazib beruvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, yangiliklarni joriy qilishga ko'maklashish imkonini beradi.

4. Minglab butlovchi qismlarni talab etuvchi avtomobillarni ishlab chiqarishda raqobatbardosh bo'lish shu qismlarning aksariyatini mamlakatda ishlab chiqarilishini yo'lga qo'ymasdan mumkin bo'lmaganidek, kimyoviy tolalar, tugmalar va sifatli bo'yoqlar ishlab chiqaruvchi korxonalar mamlakatda mavjud bo'lmasa, birgina paxta xomashyosining mo'l-ko'lligi ko'ylak ishlab chiqarishda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun yetarli bo'lmaydi.

5. Firmani boshqarishda raqobatning xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bunda turlicha strategiyalar va maqsadlar ishlab chiqiladi. Ichki bozorda keskin raqobatning mavjudligi firmalarni o'z faoliyatini takomillashtirishga, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun tashqi bozorlarga chiqishga undaydi. Kuchli ichki raqobat muhitida toblangan firmalar tashqi bozorlarda ham osonroq muvaffaqiyatga erishadi. Shu sababli hukumatning mamlakat ichida erkin raqobat muhitini yaratish, monopollashuvga qarshi kurashish kabi chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega.



**5.1-rasm. Tarmoq korxonalarining raqobat jihatdan usunligini tashkil etuvchi unsurlari ( M.Porterning raqobat ustunliklari rombi)<sup>30</sup>**

Ushbu to'rtala unsurga hukumatning faoliyati va tasodifiy holatlar ta'sir ko'rsatadi. "Zamonaviy raqobat kurashida so'z, birinchi navbatda, resurslar, moddiy boyliklarga egalik to'g'risida emas, balki yangiliklarni joriy eta olish qobiliyati to'g'risida boradi"<sup>31</sup>.

Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, zamonaviy texnologik uskunalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning ilg'or usullarini

<sup>30</sup> A.A.Yadgarov. Korporativ strategiya va tashkiliy dizayn. Darslik. TDIU, 2021 yil. 79- b.

<sup>31</sup> O'zbekiston jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish /O'zR FA Iqtisodiyot instituti; A.F.Rasulevning tahriri ostida - T.:KONSAUDITINFORM-NASHR, 2011. 6-b.

amaliyotga kiritish, yangi bozorlarga kirib borish orqaligina global o'zgarishlar sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlab turish mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida qilingan ishlarni ijobiy baholagan holda bu boradagi chora-tadbirlar ko'lamini uzluksiz tarzda kengaytirish zarur ekanligini qayd etishi zarur.


Hozirgi zamon iqtisodiyotida raqobatbardoshlik darajasini oshirish masalasiga innovatsion yondoshish talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni, zamonaviy ilmiy yutuqlarni sanoat tarmoqlariga jadal joriy qilish orqali jahon xo'jaligi tizimida milliy iqtisodiyotning ixtisoslashuvini kengaytirish va sanoat ishlab chiqarishi tarkibini diversifikatsiya qilish imkonini beradigan yangi raqobat ustunliklarini yaratish zarur.

Mamlakat iqtisodiyotini izchil ravishda isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqaligina ta'minlanishi mumkinligini ilg'or davlatlar tajribasi ko'rsatib turganligi prezidentimiz ma'ruzasida alohida qayd etildi.

Sifati va narxi bo'yicha jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish va yangi mahsulotlar turlarini o'zlashtirishga katta miqdordagi investitsiyalarni jalb etish hamda o'zlashtirish orqaligina erishiladi.

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muxim belgisi, rivojlantirish usuli hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish, unga turli tomondan yondoshishni talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat, tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan

narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat (5.2-rasm).



### 5.2-rasm. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlash shartlari<sup>32</sup>

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi, ular tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga xarakter qiladilar, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga kuproq nafillikka ega bo'lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi. Shunday qilib raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida raqobat kurashlari mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini qarab chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo, ikki turga -tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

<sup>32</sup> A.A. Yadgarov. Korporativ strategiya va tashkiliy dizayn. Darslik. TDIU, 2021 yil. 82- b.

Tarmoq ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi<sup>33</sup>.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasayaya boshlaydi. Foyda me'yori ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda me'yori oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat ob'ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda

---

<sup>33</sup> Ergashxujayeva Sh.J. "Marketing" fani (ma'ruza matnlari)-Toshkent: TDIU, 2011, 183 bet.

olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa solinmasin, xuddi shu tarmoq foyda me'yorlarini o'rtacha foyda me'yoriga yaqinlashtiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat sharoitida tarmoqda bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladi.

Raqobatlashuvchi korxonalar bir xil yoki bir jinsli turdosh mahsulot ishlab chiqaradi. Narxlarning bir xil darajasida iste'molchiga qaysi sotuvchidan mahsulotni xarid qilish farqsiz bo'ladi.

Erkin raqobat hozirgi o'tish davri iqtisodiyoti amaliyotida juda kam uchraydi. Ammo bir qator holatlar bu raqobat turining amal qilishini o'rganishni taqazo qiladi. • ayrim tarmoqlar mavjudki, ular erkin raqobatli vaziyatga juda o'xshash, masalan, iqtisodiyotning kishlok xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi shaxsiy sektori, maxalliy xunarmandchilik sohalari va shu kabilar. • erkin raqobatli vaziyat narxlarning tashkil topishi xajmini belgilash xaqidagi har qanday munozara uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi; • erkin raqobatli iqtisodiyotning amal qilishi real iqtisodiyot samaradorligini baholashga namuna bo'lib xizmat qiladi. Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo'ladi: tarmoq ichida ya'ni bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi raqobat va tarmoqlararo, ya'ni turli tarmoqdagi korxonalar o'rtasidagi raqobat. Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida olib boriladi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab

chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi. Biroq tovar qiymatlari alohida mehnat sarfi bilan emas, balki ijtimoiy zaruriy mehnat sarfi bilan belgilanadi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy yoki bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat odatda o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnik darajasi va mehnat unumdorligi yukori bo'lgan korxonalar ko'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jikatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. U foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitalarning oqib o'tishida ifodalanadi.

Iqtisodiyotda tarmoqlararo raqobat ikki asosiy vazifani bajaradi.

- iste'molchilar talabiga mos ishlab chiqarish tarkibi va tizimi vujudga keladi. Bu shuning uchun sodir bo'ladiki, ishlab chiqaruvchilar talabning tarmoqlar o'rtasida qayta taksimlanishiga tezda munosabat bildiradi;

- tarmoqlararo raqobat samaradorlikning bir qadar ijtimoiy zaruriy darajasini yaratadi, u foyda normasining o'rtacha darajasida ifodalanadi.

Monopoliyaga qarshi organ raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini quyidagi buzish hollari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima soladi:

- 1) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan kelishib olingan harakatlari va bitimlari uchun, shuningdek tovar yoki moliya bozoridagi ustun mavqecini suiiste'mol qilganlik uchun: yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi

sub'ektlarga - tovar yoki moliya bozorida qoidabuzarlik sodir etishning butun davrida tovarni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasining bir foizidan ikki foizigacha bo'lgan miqdorda, biroq eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda; jismoniy shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga - eng kam ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda;

2) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'shib yuborishda, qo'shib olishda va ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalami (ulushlarni) hamda boshqa mulkiy huquqlarni olish bo'yicha bitimlar tuzish chog'ida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi miqdorlarda: yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga - eng kam ish haqining yetmish baravaridan yuz baravarigacha miqdorda; jismoniy shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga - eng kam ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda;

3) raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini tugatish haqidagi, dastlabki holatni tiklash to'g'risidagi ko'rsatmalarni ijro etishdan bo'yin tovlaganlik yoki o'z vaqtida ijro etmaganlik uchun: davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga va yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga - eng kam ish haqining yetmish baravaridan yuz baravarigacha miqdorda; jismoniy shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga - eng kam ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda;

4) monopoliyaga qarshi organga axborotni taqdim etmaganlik yoki o'z vaqtida taqdim etmaganlik, noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etganlik uchun davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga hamda yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga - eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda<sup>34</sup>.

---

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" gi Qonuni. 2012 yil.

Shiddatli raqobat sharoitida mahsulotlarimizning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bu boradagi ishlarni yana bir bor tanqidiy ko'rib chiqish lozim. Bunda tashqi bozorda xaridorbop, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tayyorlash zarur.

## **5.2. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar**

Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatning taxlili asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganishdan boshlanadi. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

Bozor xajmi.

Raqobat miqyosi (maxalliy , regional, dunyo).

Bozorning o'sish sur'atlari va uni rivojlanishining qaysi bosqichda ekanligi.

Raqobatchilar soni va ularning xajmi.

Xaridorlar soni va ularning moliyaviy imkoniyatlari.

Integrasiya qaerga qarab ketayapti?

Texnologik o'zgarishlarning yo'nalishi va sur'atlari.

Tarmoqqa kirish va undan chiqish osonligi.

Raqobatchilarning maxsuloti va xizmatlarining tabaqalanish darajasi.

Kompaniyaning ishlab chiqarish xajmi, transportirovka qilish, marketing va reklamani tashkil qilishda tejamkorlikka erishish imkonining borligi.

Tarmoqdagi «o'qitish/tajriba» egri chizig'i ijobiy tendensiyaga egami?

**Tarmoqdagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning strategik axamiyati**

<b>Ko'rsatkich</b>	<b>Ko'rsatkichning strategik axamiyati</b>
Bozorning kattaligi	Kichik bozorlarda katta va yangi raqobatchilarni jalb qilish tendensiyasi kuzatilmaydi, katta bozorlar muayyan tarmoqlarda raqobatli ustunlikni mustahkamlash maqsadida turli kompaniyalarni sotib olmoqchi bo'lgan korporatsiyalarni o'ziga jalb qiladi.
Bozor xajmining o'tishi	Jadal sur'atlar bilan o'sish yangiliklarga olib keladi, o'sishning sekinlashishi esa raqobatni kuchaytiradi va zaif raqiblarni kurashdan chiqarib tashlaydi.
Ishlab chiqarish quvvatlarining ortiqchaligi yoki tanqisligi	Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari xarajatlarni ko'paytirib, daromadni kamaytiradi, ularning tanqisligi yes a xarajatlarga oid teskari tendensiyalarga olib keladi.
Tarmoqning daromadlilikigi	Yuqori daromadli tarmoqlar xam yangiliklarga olib keladi
Kirish/chiqish to'siqlari	Yuqori to'siqlar mavjud kompaniyalarning mavqini va ularning daromadlarini ximoya qiladi, to'siqlar past bo'lganda yes a yangi kompaniyalarning kirib kelishi ularga salbiy ta'sir qiladi
Tovar xaridorlar uchun qimmat	Ko'pchilik xaridorlar tovarni eng past narxlarda sotib oladilar
Stand artlashtirilgan tovarlar	Xaridorlar bir sotuvchidan boshqa sotuvchiga oson utishlari mumkin
Texnologiyaning tez o'zgarishi	Texnologiya va asbob-uskunalarga ajratilgan investitsiyalar ularning yeskirib qolishi tufayli uzini oqlamay qolishi xavfi
Kapitalga qo'yilgan talablar	Katta talablar investitsiyalarga oid qarorlarga tanqidiy munosabatda bo'ladi, investitsiyalash momenti muhim bulib boradi, kirish va chiqish tusiqlari
Vertikal integrasiya	Kapitalga qo'yilgan talablar kuchayib boradi, kupincha raqobatli differensiasiya xhamda integrasiya darajasi turlicha bo'lgan kompaniyalar
Kulamdan tejash	Narx buyicha raqobatlashish uchun zarur bo'lgan bozor xajmlari kattalashadi
Tovarning tez yangilanishi	Tovarning xayot sikli qisqaradi

Tarmoqqa zarur bo'lgan kapital sarmoyalar qo'yilyaptimi?

Tarmoqdagi daromad darajasi umumiy daromad darajasidan pastmi yoki yuqorimi?

Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha soxaning «portretini» tuzib, so'ng uni taxlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ushbu jadvalda

ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlarning strategik jihatdan muhimligiga doir ma'lumotlar keltirilgan (5.1-jadval).

### 5.3. Tarmoqdagi raqobat kuchlar va ular ta'sirining darajasi

«GARVARD» universitetining professori Maykl Porter tarmoqdagi raqobatchi kuchlarni quyidagicha guruxlagan:

Tarmoq ichida sotuvchilar o'rtasidagi raqobat.

Boshqa tarmoqdagi kompaniyalarning o'z tovarlari bilan bu tarmoqdagi xaridorlarni egallab olishga harakat qilishi.

Tarmoq ichida yangi raqobatchilarning paydo bo'lishi.

Xom ashyo va butlovchi detallar yetkazib beruvchilarning o'z shartlarini o'tkazishga urinishlari.

Xaridorlarni o'z shartlarini o'tkazishga urinishlari.

Bu taxlil kompaniya mazkur tarmoqda duch kelishi mumkin bo'lgan qulay imkoniyatlar va xavf-xatarlarni aniqlab olish maqsadida amalga oshiriladi.


Porter buning «beshta kuch» modelini taklif qilgan (5.3-rasm). U ushbu modelni asoslab berar ekan, bu ko'rsatkichlarning ta'sir kuchi qanchalik yuqori bo'lsa, mavjud kompaniyalarda narx va daromadni oshirish imkoniyati shunchalik kam bulishini ta'kidlagan yedi. Bu kuchlarning zaiflashishi esa kompaniyalar uchun qulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Kompaniya uz strategiyasini uzgartirib, ushbu ko'rsatkichlarni uz foydasiga o'zgartirishi mumkin.

Potensial raqobatchilarning kirish xavfi (Porterning birinchi kuchi) kompaniyaning daromadlariga taxdid solishi mumkin. Ikkinchi tomondan, agar bu xavf kichik bo'lsa, kompaniya narxlarni oshirib, uz daromadlarini kupaytirishi mumkin. Bu omilning raqobatchilik kuchi kirish tusiqlarining (tarmoqqa kirish qiymatining) balandligiga kuchli darajada bog'liqdir. Bunday tusiqlarning uchta asosiy manbayi bor:

xaridorlarning savdo markasiga sodiqligi (kirib kelayotgan kompaniyalar buni katta investitsiyalar yevaziga bartaraf qilishlari mumkin);

xarajatlar buyicha mutlaq ustunliklar (ishlab chiqarish xarajatlarining yanada kamligi mavjud kompaniyalar uchun yangi kompaniyalar erishishi qiyin bo'lgan katta ustunliklar beradi);

ko'lamdan tejash (bunday ustunlikka odatda katta kompaniyalar ega bo'ladilar). U standartlashtirilgan maxsulotni yoppasiga ishlab chiqarishda xarajatlarning kamaytirilishi, xom ashyo, material va tarkibiy qismlarni katta miqdorlarda sotib olishdagi chegirmalar, reklamaga sarflanadigan xarajatlarning kamaytirilishi va xokazolar bilan bog'liqdir. Bularning barchasi ishlab chiqarishni yendi boshlayotgan kompaniyalar uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi.



5.3-rasm. Porterning 5 raqobat kuchlari.

Porterning asosiy strategiyalaridan birini tanlashda, kompaniya oxir-oqibat nimaga erishmoqchi ekanligini tushunish juda muhimdir. Axir, diqqatni jamlash va farqlash strategiyalari hatto daromadning jiddiy pasayishiga olib kelishi mumkin (lekin foyda emas). Bularning barchasi operatsion kompaniyaning strategiyasini tanlashda to'liq qayta tashkil etish

talab qilinishi mumkin, bu muqarrar ravishda ishdan bo'shatilishiga olib keladi.

Garvard professori Maykl Porter 1980 yilda o'zining raqobatbardosh strategiyasi kitobida kompaniyaning raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan uchta strategiyasini taqdim etdi. O'shandan beri Porterning strategiyalari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Albatta, ko'pgina tadbirkorlar umuman umumiy ko'rinishga ega deb o'ylashadi. Ammo kuting, Maykl Porter - professor, maslahatchi - uning vazifasi aniq usullarni to'plash va ularni keng ommaga taqdim etishdir. Amaliy nozikliklar har bir ishbilarmonning shaxsiy ishidir<sup>35</sup>.

Porter o'z strategiyasini Jek Trout va Al Rays tomonidan ta'riflangan joylashishni aniqlash tushunchasi endigina ommalashib borayotgan bir paytda tasvirlab berdi. Maykl Porter strategiyasining asosiy mohiyati shundan iboratki, kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun u xaridorlarning ko'z o'ngida hamma uchun hamma narsa bo'lib ko'rinmasligi uchun, raqobatchilardan ajralib turishi kerak, bu siz bilganingizdek, hech kimga hech narsani anglatmaydi. Ushbu vazifani uddalash uchun kompaniya to'g'ri strategiyani tanlashi kerak, keyinchalik unga amal qiladi. Professor Porter strategiyaning uchta turini ajratib ko'rsatdi: xarajatlar bo'yicha etakchilik, differentsiatsiya va diqqat. Shu bilan birga, ikkinchisi yana ikkiga bo'linadi: differentsiatsiyaga e'tibor va xarajatlarga e'tibor. Keling, har bir strategiyani batafsil ko'rib chiqaylik.

Porter nazariyasi buyicha ikkinchi raqobatchi kuch tarmoqda mavjud bo'lgan kompaniyalarning raqobatlashuvidir. Bu yerda ham uchta omilning ta'sirim ko'rsatib utish mumkin:

- tarmoqdagi raqobatning strukturasi;
- talabning shart-sharoitlari;

---

<sup>35</sup> <https://v-brends.ru/uz-sayti/ma'lumotlari>.

tarmoqqa kirish tusiqlarning balandligi.

Tarmoqdagi raqobatning strukturasi tarmoqdagi *konsolidatsiya* darajasiga (uning fragmentlanganligi, oligopoliya yoki *monopoliya* sharoitlari mavjudligi) bog'liqdir. Fragmentlangan tarmoqda *potensial* xatarlar qulay imkoniyatlarga qaraganda kuproq bo'ladi, chunki *bunday* tarmoqlarga kirib kelish nisbatan yengildir.

Konsolidatsiyalangan tarmoqlarda odatda katta va *mustaqil* kompaniyalar fao liyat ko'rsatadilar. Binobarin, bir kompaniyaning raqobatchilik fao liyati boshqa raqobatchilarning bozordagi ulushiga bevosita ta'sir qiladi, natijada ular tezda bunga javoban harakat qilib, raqobat kuchayadi. Bunday kompaniyalarning narx urushi olib borish imkoniyati raqobatning asosiy xatarli kuchidir. Bunday xollarda kompaniyalar sifatdagi ustunliklar buyicha raqobatlashishga intiladilar, ya'ni raqobatchilik urushi savdo markasiga sodiqlik va narx urushi yextimolini kamaytirish pozitsiyalaridan olib boriladi. Bunday taktikaning muvaffaqiyati tarmoqda maxsulotni tabaqalash imkoniyatlariga bog'liqdir.

Tarmoqda talabning usib borishi raqobatning susayishiga va ayni paytda yekspansiya uchun katta imkoniyatlarning vujudga kelishiga olib keladi. Talab bozor bilan birgalikda usib boradi, kompaniyalar investitsiyalarning qaytish tezligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularga bo'lgan ye'tiborni kuchaytiradi. Aksincha, usishning sekinlashishi raqobatni kuchaytirib yuboradi, kompaniyalar sotish bozorlarini faqat boshqa kompaniyalardan tortib olish xisobigagina qo'lg'a kiritishlari mumkin bulib qoladi. Shunday qilib, talabning kamayishi - raqobatning kuchayishiga olib keladigan asosiy xatardir.

Tarmoqda talab kamaygan paytda chiqish tusiqlari jiddiy xavfg'a aylanadi. Chiqish tusiqlari iqtisodiy va yemotsional omillar bulib, ular kompaniyani daromadi juda kichik bo'lgan xollarda ham qo'llab-quvvatlab

turadi. Natijada ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari paydo bo'ladi, bu esa narx raqobatining jonlanishiga olib keladi, chunki kompaniyalar bekor turgan quvvatlardan foydalanishga urinib, narxni pasaytirib yuboradilar.

Odatda chiqish tusiqlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

asbob-uskunalariga ajratilgan investitsiyalarni boshqa muqobil yunalishlarga ishlatib bulmaydi va agar kompaniya bu sohani tark yesa, asbob-uskunalarini tashlab yuborishga tug'ri keladi;

chiqish qiymatining ishdan bushatiladigan ishchilarga to'lanadigan mablag'lar xisobiga qat'iy belgilab qo'yilganligi;

xo'jalikning o'rta bo'g'inlari o'rtasidagi strategik o'zaro munosabatlar, masalan, senergizm yoki ular o'rtasidagi integrasiya;

tarmoqqa iqtisodiy bog'liqlik; masalan, agar kompaniya diversifikasiyalanmagan bo'lsa, u tarmoqda qolishga majburdir.

Tarmoqdagi kompaniyaga ta'sir qilayotgan raqobat kuchlari tarmoqning xayot sikli mobaynida o'zgarib, rivojlanib boradi. Tarmoqning jadal sur'atlar bilan usishi raqobat kuchlarini zaiflashtirib qo'yadi. Bu bosqichda yekspansiya va bozor soxalarini egallab olish uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Usish sekinlashgan paytda raqobatning va ayniqsa narx raqobatining xavfi kuchayib ketadi. Yetuklik bosqichida raqobat xavfi kamayadi, narx raqobatini narx peshqadamlarining kelishuvi xisobiga cheklash imkoniyati vujudga keladi. Shuning uchun bu bosqichda daromadlar nisbatan yuqori bo'ladi. Bu bosqichda narxga bog'liq bulmagan raqobat katta rolb uynashi mumkin bulib, u maxsulotlarni tabaqalash ustunliklaridan foydalanadigan kompaniyalar uchun juda muhimdir. Tanazzul bosqichida vaziyat o'zgaradi. Chiqish tusiqlari yuqori bo'lsa, raqobat ayniqsa kuchayadi, daromad kamayadi va narx urushi xavfi vujudga keladi.

Porterning uchinchi kuchi xaridorlarning «savdolashish» imkoniyatidir. U eng yaxshi sifat yoki xizmat ko'rsatishga bo'lgan talab tufayli narxlarga bosim ko'rsatish xavfini vujudga keltiradi. Zaif xaridorlar esa, aksincha, narxlarning usishiga va daromadning ortishiga yul qo'yadilar.

Xaridorlar quyidagi hollarda ayniqsa kuchlidirlar:

yetkazib beruvchi soha bir necha kichik kompaniyalardan tarkib topgan bulib, xaridorlar kam bo'lganda;

xaridorlar tovarlarni katta miqdorda sotib olganda;

tarmoq o'z fao liyat turidan kelib chiqqan xo lda xaridorlarga kuchli darajada bog'liq bo'lganda;

xaridorlar bir necha yetkazib beruvchi tarmoqlar ichidan eng past narx taklif qilayotgan bittasini tanlash imkoniyatiga ega bo'lganda (bu ushbu tarmoqda narx raqobatini kuchaytiradi);

xaridorlar uchun turli kompaniyalardan tovar sotish olishni iqtisodiy jixatdan yaxlit bitta xarid deb qarash mumkin bo'lganda va xo kazo;

Turtinchi raqobat kuchi yetkazib beruvchilarning bosim ko'rsatishidir. Bu bosim natijasida yetkazib beruvchilar narxlarni kutarish bilan taxdid solib, kompaniyalarni yetkazib berilayotgan maxsulot miqdorini kamaytirishga majbur qiladi va daromadni pasaytiradi. Bunga muqobil ravishda - zaif yetkazib beruvchilar o'z maxsulotlariga bo'lgan narxni pasaytirishga va yuqoriroq sifatni talab qilishga imkon beradilar. Quyidagi xollarda yetkazib beruvchilar tomonidan ko'rsatiladigan bosim ayniqsa kuchli bo'ladi:

yetkazib berilayotgan maxsulotning umini bosa oladigan tovarlar kam bulib, u kompaniyaning ishonchli maxsuloti bo'lganda;

tarmoqdagi kompaniyalar ta'minotchi kompaniyalar uchun muhim bulmaganda;

yetkazib berilayotgan maxsulotlarning sifati yuqoriligi tufayli kompaniyalarning boshqa maxsulotga utishi qimmatga tushganda;

yetkazib beruvchilar ilgari tomon vertical integrasiyalanish xavfidan foydalanganda;

so'tib oluvchi kompaniyalar orqaga tomon vertikal integrasiyalanish xavfidan foydalana olmaganda.

Beshinchi raqobatchi kuch tovarning urnini bosuvchi maxsulotlarning paydo bulish xavfidir. Tovarning urnini tuliq bosa oladigan maxsulotlarning mavjudligi jiddiy xavf tug'diradi va kompaniyaning narxlarini hamda daromadlarini cheklab qo'yadi. Ammo, agar kompaniya maxsulotlarining urnini bosa oladigan tovarlar kam bo'lsa, kompaniya narxlarni oshirishi va qo'shimcha daromad olishi mumkin. Kompaniyaning strategiyasi bu faktdan foydalana olishi lozim.

Tarmoqdagi raqobat darajasiga ko'ra quyidagilarga bo'lanadi:

- Shavqasiz raqobat
- Intensiv raqobat
- Meyordagi raqobat
- Jalb qiluvchi zaif raqobat

Bozorga yangi kirib kelgan kompaniya yangi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lishi, ayrim xollarda kattagina resurslarga ega bo'lishi mumkin. Bunday kompaniyalar bozorda o'z o'rnini topib egallash uchun kurashadi. Bozorda yangi raqobatchining paydo bo'lishi quyidagi omillarga bog'liq:

Bozorga kirish yo'lidagi to'siqlar;

Bozorda ishlayotgan kompaniyalarning reaksiyasi;

Bozorga kirish yo'lidagi to'siqlar quyidagicha bo'ladi;

Ishlab chiqarish miqiyosining tejamkorligi (bunday ustunlik bozorda ishlayotgan katta xajmga ega bo'lgan kompaniyalarda bo'ladi. Yangi kompaniya esa bozorga birdaniga katta xajm bilan chiqolmaydi.)

Texnologiya va NOU-XAUga erishishning imkoniyati yo'qligi;

«O'qitish/Tajriba» egri chizig'ining samarasi;

Xaridorlarning ma'lum markalariga moyilligi;

Korxonalar xajmlariga bogliq bo'lmagan xarajatlarning teng emasligi;

Sotish kanallariga kira olish;

Nazorat qiluvchi organlarning harakatlari (litsenziya, ruxsatnomalar);

Tariflar va tarifdan tashqari cheklashlar (dempingga qarshi qonunchilik, maxalliy kompaniyalarning majburiy qatnashishlari).

Etakchilik xarajatlari strategiyasi doimiy monitoringni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiya juda xavflidir, chunki ertami-kechmi o'z xarajatlarini yanada kamaytiradigan raqobatchilar paydo bo'lishi ehtimoli katta. Bularning barchasi marketingning yaxshilanishi tufayli va tarqatish tarmog'i, texnologik taraqqiyot, menejment nou-xau, mamlakatda va dunyoda tashqi omillar, bozorga yirik global o'yinchilar paydo bo'lishi, xodimlarning ishtiyoqi yo'qolishi va boshqa omillar tufayli mumkin. va boshqalar.

#### **5.4. Raqobat kuchlari tarkibida o'zgarish yasovchi omillar**

Bozordagi vaziyat tez-tez o'zgarib turadi, chunki bozorda ishlayotgan kompaniyalar bozorga kirib kelayotgan yangi kompaniyalarni o'z siyosatini o'zgartirishga majbur qiladi. Bozorda eng ko'p ta'sir qiladigan kuchlar raqobatni harakatlantiruvchi kuchlar deb ataladi. Bu kuchlarni taxlil qilish 2 bosqichdan iborat:

1. Harakatlantiruvchi kuchlarni aniqlash.

2. Ushbu kuchlar ta'sirini aniqlash.

Bozorda eng ko'p uchraydigan harakatlantiruvchi kuchlar quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tendensiyalaridagi o'zgarish;
- Istemolchilar tarkibi va tovarlardan foydalanish usullarining o'zgarishi;
- Yangi maxsulotlarni joriy qilish;
- Texnologik o'zgarishlar;
- Marketing tizimidagi o'zgarishlar;
- Yirik kompaniyalarning bozorga kirishi yoki chiqishi;
- NOU XAU ni tarqalishi;
- Tarmoqlar globallashtiruvining o'sishi;
- Unumdorlik va xarajatlar tarkibining o'zgarishi;
- Xaridorlar moyilligining tabaqalangan tovarlardan standart tovarlarga o'tishi;
- Davlat qonunchiligi va siyosatidagi o'zgarishlarning ta'siri;
- Ijobiy qadriyatlar, moyilliklar va turmush tarzining o'zgarishi;
- Noaniqlik va tavakkalchilik omillari ta'sirining kamayishi.

Tarmoqdagi raqobat tarkibini o'rganishdagi keyingi qadam - bu raqobatlashayotgan kompaniyalarning bozordagi o'rnini aniqlashdir. Tarmoqdagi kompaniyalar raqobat mavqeini taqqoslashning asosiy usuli - bu strategik guruxlar kartasini tuzishdir.

*Strategik guruxlar kartasi* - tarmoqda raqobatlashayotgan kompaniyalarning raqobat mavqelarini aks yettiruvchi asbobdir. Bu taxliliy usul tarmoqning umumiy taxlili va har bir kompaniyaning bozordagi mavqeini bir biriga bog'laydi. Buning uchun tarmoqda ishlayotgan barcha kompaniya va kompaniyalar strategik guruxlarga bo'linadi. Strategik guruxlarga raqobat uslubi va bozordagi mavqeini bir xil bo'lgan kompaniyalar kiritiladi. Bozordagi asosiy raqobatchilar nechta bo'lsa strategik guruxlar soni xam

shuncha bo'ladi, ammo buning uchun raqobatchilarning har biri o'zining raqobat usuliga va bozorda o'z mavqeiga ega bo'lishi lozim.

*Strategik guruxlar kartasini* - tuzish tartibi quyidagicha:

-Tarmoqdagi kompaniyalarning bir biridan farqlantiruvchi belgilari aniqlanadi.

-Kartaning o'qlari bo'ylab turli xarakteristikalarni juftligi tushiriladi.

-Kartaga kompaniyalar 2 o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga asosan joylashtiriladi.

-Bitta strategik zonaga kirgan kompaniyalar strategik guruxga birlashtiriladi.

- Har bir strategik gurux atrofida aylana chiziladi. Aylananing diametri har bir strategik guruxning bozordagi o'miga proporsional bo'ladi. Ana shu ko'rsatkichlardan foydalanib strategik guruxlarning 2 o'lchamli kartasini tuzish mumkin.

Bir tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalarning nisbiy raqobat pozitsiyalarini urganish uchun strategik guruxlash jarayonlaridan foydalaniladi.

Bir strategik guruxdagi kompaniyalar maxsulotlar diapazonining kengligi, tovar harakati kanallaridan foydalanish usullari; uxshash texnologik yondashuvlar, vertikal integrasiyaning darajasi, servisning va texnologik xizmat ko'rsatish xarakteri kabi turli belgilar buyicha birlashishlari mumkin. Tarmoqda bozorga nisbatan strategik yondashuvlari bir xil bo'lgan bitta strategik gurux mavjud bulishi mumkin.

Strategik guruxlar xaritasini tuzish va kompaniyalarni u yoki bu gurux tarkibiga kiritish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Tarmoqdagi kompaniyalarni bir-biridan farqlovchi raqobatli xarakteristikalar aniqlanadi ( narx, sifat, faoliyat geografiyasi, integrasiya darajasi, maxsulot nomenklaturasi va xokazo).

1. Kompaniyalarning xolati ikki chiziqli chizmaga joylashtiriladi (tanlab olingan xususiyatlari bo'yicha).

2. Bir strategik soxaga to'g'ri keladigan kompaniyalar aniqlanadi.

3. Xar bir guruhning tarmoqdagi umumiy savdo xajmidagi ulushi aniqlanadi.

Agar jiddiy tafovutlar ikkitadan ortiq bo'lmasa, bir necha xarita tuzish maqsadga muvofiqdir.

Turli strategik guruxlar bir-biriga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, ular o'rtasidagi raqobat shunchalik kuchli bo'ladi. Yeng yaqin raqobatchilarning fe'l-atvorini urganish muhimdir. Raqobatchilarning strategiyasini, ularning kelgusida qanday yul tutishini bilmay turib, ular bilan muvaffaqiyatli raqobatlashish mumkin emas. Raqobatchilar nima qilmoqda va nima qilmoqchi - bu savollarga javob topish kompaniyaning strategik faoliyati uchun nixoyatda muhimdir, aks holda u xar doim mudofaa pozitsiyasida bo'lishga majbur bo'ladi.

Kompaniyalarning raqobatdagi kelgusi pozitsiyalarini baholash uchun ye'tiborni ularning bozordagi o'z axvolini yaxshilash imkoniyatlariga qaratish lozim. Agressiv raqobatchilar yangi strategik tashabbuslar manbaidirlar. O'z maqsadiga erishgan raqobatchilar o'zlarining xozirgi strategiyasini amalga oshirishda davom etadilar. Bezovta va moliyaviy jixatdan og'ir axvolda qolgan raqiblar xujumchi yoki mudofaachi sifatida yangi-yangi strategik xatti-harakatlarga utishlari mumkin. Shu munosabat bilan o'zingizni ushbu kompaniya menejerlarining urniga qo'yib kurishingiz va ularning qanday yul tutishlarini muloxaza qilib kurishingiz mumkin.

5.5. Raqobat kurashida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikning kalit omillari

Agar kompaniya yoki kompaniya o'z raqiblarining xatti harakatlarini kuzatib bormasa u ko'zini boglab olib raqobatlashmoqchi bo'lgan xisoblanadi. Xuddi shaxmatdagidek raqobat kurashida xam raqibning

keyingi yurishini oldindan ko'ra bilish bebaxo axamiyatga egadir. Agar raqibining keyingi qadamini bilmasa, kompaniya g'alaba qozonolmaydi. Bu boradagi raqobat kurashi quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

**1. Raqiblar strategiyasini aniqlash.** Buning uchun raqib kompaniya faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, uning bozordagi mavqei, strategik maqsadlari raqobat strategiyasi o'rganiladi.

**2. Kelajakda tarmoqning yetakchisi bo'lishi o'ki yetakchi bo'lgan kompaniyalarni aniqlash.** Buning uchun har bir kompaniyaning potensial imkoniyatlarini o'rganib ularning ichidan boshqalardan o'zib ketish o'ki o'zib bo'lgan kompaniyalar belgilanadi. Kelajakda qaysi kompaniyalar o'z mavqeini yo'qotadi, qaysi biri yetakchi bo'lishi mumkinligini to'g'ri belgilash kompaniyaning strategiyasini tuzishda muhim axamiyat kasb etadi.

**3. Raqiblarning keyingi qadamini oldindan ko'ra bilish.** Agressiv raqib odatda qandaydir yangi strategik qadam qo'yadi. O'zining bozordagi mavqeidan qanoatlanadigan kompaniyalar esa amaldagi strategiyasini saqlab turadi. Omadsiz kompaniyalarning axvoli shuqadar yomon bo'ladi-ki, ular yaxshi o'ylanmagan bo'lsa xam xujumga o'tishga majbur bo'ladilar.

Raqibning keyingi qadamini oldindan aytib berish uchun o'sha kompaniyadagi vaziyatni rahbariyatning kayfiyatini, ularning fikrlash tarzini bilish lozim. Raqib xaqida axborot yig'ishga qaratilgan razvedka faoliyati uning harakatlarini oldindan bilish va samarali qarshi choralar ko'rish imkonini beradi.

Muvaffaqiyatning asosiy omillari (MAO) - muayyan tarmoqdagi moliyaviy va raqobatli muvaffaqiyatning asosiy belgilovchi omillaridir. Ularni aniqlash - strategiya ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Ular strategiyani ishlab chiqishda hal qiluvchi rolb o'ynashi mumkin, biroq ular turli tarmoqlarda turlicha bo'ladi. Odatda bir tarmoqqa

shunga o'xshash uch-to'rtta omil xarakterli bo'lib, ularning bir-ikkitasi eng muhimi bo'lib, taxlilning vazifasi ularni aniqlashdan iborat bo'ladi.

Quyida MAOning turlari va ularning tarkibiy qismlari sanab o'tilgan:

**1. Texnologiyaga bog'liq omillar:**

- ilmiy tadqiqotlarning saviyasi;
- ishlab chiqarish jarayonlarda innovasiyalarga qodirlik;
- maxsulotda innovasiyalarga qodirlik;
- mazkur texnologiyada yeksperlarning roli.

**2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq omillar:**

- kam xarajatli ishlab chiqarishning samaradorligi (ishlab chiqarish ko'lamidan tejash, to'plangan tajriba samarasi);

- ishlab chiqarish sifati;
- yuqori fond qaytimi;
- ishlab chiqarish xarajatlarning kam bo'lishi, kafolatlanadigan xo

lda joyl ashtirilishi;

- tegishli malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash,
- yuqori mehnat unumdorligi (ayniqsa ko'p mehnat talab qiladigan soxalarda);

- arzon loyixalashtirish va texnik ta'minot;

- ishlab chiqarishning model va o'lchamlarning o'zgarishiga moslashuvchanligi.

**3. Taqsimlash bilan bog'liq omillar:**

- distribbyutorlar/dilerlarning qudratli tarmog'i;
- chakana savdodan tushadigan daromadlar yextimoli;
- kompaniyaning o'z tarmog'i;
- tez yetkazib berish.

**4. Marketing bilan bog'liq omillar:**

- savdoning yaxshi sinalgan, tekshirilgan usuli;
- qulay, arzon servis va texnik xizmat ko'rsatish;
- xarid talablarini aniq qondirilishi;
- tovarlar diapazonining kengligi;
- tijorat san'ati;
- jozibali dizayn va upakovka ;
- xaridorlar uchun kafolatlar.

#### 5. Malakaga bog'liq omillar:

- noyob iste'dodlar;
- sifatni nazorat qilish «nou-xau»si;
- loyixalash soxasidagi yekspertlar;
- texnologiya soxasidagi yekspertlar;
- aniq va sodda reklama qilish qobiliyati;
- ITTKI bosqichida ishlab chiqarish natijasida yangi maxsulotlarni  
xo'sil qilish va ularni tez bozorga olib chiqa olish.

#### 6. Tashkilotning imkoniyatlariga bog'liq omillar:

- oliy darajadagi axborot tizimlari;
- o'zgarib turgan bozor sharoitlariga tez moslasha olish qobiliyati;
- boshqaruv maxorati va boshqaruv soxasidagi «nou-xau»larning  
mavjudligi.

#### 7. MAO ning boshqa turlari:

- ijobiy imidj va obro';
- o'zini peshqadam deb xis qilish;
- qulay joyl ashuv;
- xushmuomala va muloyim xizmat ko'rsatish;
- patent ximoyasi;
- umumiy xarajatlarning kamligi.

Bundan tashqari, tarmoqning jozibadorligiga umumiy baxo berish lozim («Menejment asoslari» kursiga qarang)

Muvaffaqiyatning kalit omillari (M.K.O)-bu raqobatbardosh bo'lish va moliyaviy barqarorlikka erishish uchun kompaniya ta'minlashi

lozim bo'lgan raqobat imkoniyatlari va faoliyat natijalaridir. M.K.O shunday omillarki, ularga kompaniya aloxida ye'tibor berishi kerak, chunki ular kompaniyaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini belgilab beradi. Masalan: pivo sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq bandligini ta'minlash shunday omilga kiradi. (bu ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirib beradi) M.K.O har bir tarmoqda o'ziga xos xususiyatga, ko'rinishga ega bo'ladi. Ayrim tarmoqlarda MKO lar 4 ta bo'lishi mumkin, lekin xal qiluvchi axamiyatga 1 yoki 2 tasi ega bo'ladi.

Tarmoq va undagi raqobat taxilining pirovardida tarmoqning jozibadorligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi:

A-tarmoqning o'sish imkoniyatlari

B-harakatlantiruvchi kuchlarning tarmoqqa ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi:

V-Tarmoqqa yirik kompaniyalarning kirish (chiqish) imkoniyatlari:

G-Talabning barqarorligi:

D-Raqobat kuchlari ta'sirining kuchayishi yoki zaiflashishi:

Ye-Tarmoq oldida turgan muammolarning jiddiyligi:

J-Tavakkalchilik va noaniqlik darajasi:

Z-Raqobat natijasida tarmoqdagi daromad darajasining pasayishi yoki ko'tarilishi.

Nazorat savollari:

1. Tarmoqni ta'riflovchi asosiy ko'rsatkichlar qanday?
2. Tarmoqda qanday raqobat kuchlari bo'ladi?

3. Tarmoqdagi raqobat kuchlari nisbati nimalarni o'zgartirib yuborilishi mumkin?

4. Qanday kompaniya kuchli yoki zaif mavqega ega bo'ladi?

5. Muvaffaqiyatning kalit omili nima?

6. Tarmoqning jozibadorligi qanday aniqlanadi?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. — СПб.: Питер, 1999. - 416 с.

2. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: человек, стратегия, организация, процесс: Учебник. — М.: Гардарики, 1995. - С. 29-43.

3. Гапоненко А.Л. Особенности управления в государственной службе // Государственная служба. 1997. №0. - С. 28-35.

4. Дункан Дж. У. Основопологающие идеи в менеджменте. Уроки основоположников управления и управленческой практики. — М.: Дело, 1996. - 272 с.

5. Карлоф Б. Деловая стратегия. — М.: Экономика, 1991. - С. 31-38.

6. Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы управления. — М.: Дело, 1992.-С. 255-286.

7. Минсберг Г., Алстренд Б., Лемпел Дж. Школы стратегий. — СПб.: Питер, 2000. - 336 с.

8. Общий и специальный менеджмент: Учебник / Под общ. ред. А.Л. Гапоненко и А.П. Панкрухина. — М.: Изд-во РАГС, 2000. - С. 79-90.

9. Саймон Г.А., Смитбург Д.У., Томпсон В.А. Менеджмент в организациях. — М.: Экономика, 1995. - 335 с. Тридцать шесть стратегем: Китайские секреты успеха / Пер. с кит. Б.В. Малявина. — М.: Белые алвы, 2000. — с-19.

*Insonning faqat kuchli imkoniyatga ega ekanligiga qarab pul to'lanadi, zaifligi uchun pul to'lanmaydi.*

*Peter Drucker*

---

**6-BOB: UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI SOHA  
SUB'EKTLARI HOLATI TAHLILI**

---

**REJA:**

- 6.1. Uy-joy kommunal infratuzilma soha sub'ektlari holati tahlili.**
- 6.2. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi ta'biyining fundamental asoslari.**
- 6.3. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida strategik maqsadlarni belgilash.**

*Tayanch so'zlar: aholi uy-joy fondi, aholi punktlari, uy-joy bilan o'rtacha ta'minlanganlik, aholi punktlarini obodonlashtirish, uy-joy fondini obodonlashtirish, PEST tahlil, SWOT tahlil, strategik tahlil, ichki muhit.*

**6.1. Uy-joy kommunal infratuzilma soha sub'ektlari holati tahlili**

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi inson hayoti uchun shart-sharoitlarni, birinchi navbatda, uy-joyning qulayligini, uning muhandislik jihatdan qulay yechimlarga ega ekanligi, transport, aloqa, maishiy va boshqa xizmatlarning sifat darajasi, turmush sifati va ijtimoiy jihatdan uy-joy qurilishini takomillashtirishni belgilaydigan hududiy infratuzilmaning eng muhim qismidir.

Uy-joy kommunal xo'jaligida quyidagi kichik sohalar ajratiladi:

- \* uy-joy - ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- \* suv ta'minoti va kanalizatsiya;
- \* kommunal energiya (elektr, issiqlik, gaz ta'minoti);
- \* shahar transporti (avtobus, tramvay, trolleybus...);

\* raqamli iqtisodiyot (kabel tarmoqlari, sun'iy yo'ldosh televideniyesi, optik tolali tizimlar va elektron aloqa kanallari, kompyuter aloqasi va qo'llab-quvvatlash tizimlaridan foydalanish);

\* shahar obodonlashtirish tizimi, shu jumladan yo'l inshootlari va yo'l transporti qurilishi;

\* hududlarni sanitariya tozalash (ko'chalarni tozalash, maishiy va oziq-ovqat chiqindilarini yo'q qilish bilan uylarni tozalash);

\* yashil iqtisodiyot (shaharlarni obodonlashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbaalaridan foydalanish);

\* mehmonxona sanoati;

\* maishiy xizmatlar (hammom, kir yuvish, marosim xizmatlari va boshqalar);

\* ko'cha yoritgichlari.

Shahar xo'jaligi va uy-joy kommunal xo'jaligi tarmoqlari mintaqa iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. B.C.Chekalin, V.V.Buzirev, N.E.Bessonova, V.E.Roxchina, va boshqa olimlarning fikriga ko'ra<sup>36</sup>, "shahar iqtisodiyoti" - bu aholining kundalik maishiy, ijtimoiy-madaniy, kommunal ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan xizmatlar, korxonalar, muhandislik inshootlari va tarmoqlari majmuidir. Shahar iqtisodiyotiga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish funksiyalarini bajaradigan korxonalar, jumladan, shahar (hudud) aholisiga xizmat ko'rsatadigan transport, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa ba'zi tarmoqlar kiradi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasiga talablarning ortib borishi, uni rivojlantirish va takomillashtirish odamlar turmush darajasini yuksaltirish, turmush sharoitini yaxshilash va aholi madaniyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda.

---

<sup>36</sup> Бузирев В.В., Чекалин В.С. Экономика жилищной сферы: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2001. –256 с.

A.I. Bezlyudova, A.G. Kozlyuk, N.T. Lopatkin, V.E.Roxchin va boshqa mualliflar asarlarida ular tomonidan uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining tasnifi berilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

- \* sanitariya-texnik xizmatlar (suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya-tozalash korxonalari);

- \* umumiy foydalanishdagi shahar ichidagi yo'lovchi transporti (tramvay, trolleybus, avtobus, metro);

- \* kommunal energiya (umumiy elektr tizimlariga kirmaydigan issiqlik, elektr, gaz tarmoqlari, kommunal qozonxonalar, elektr stantsiyalari va gaz inshootlari);

- \* davlat xizmatlari (vannalar, kirxonalar, sartaroshxonalar, mehmonxonalar);

- \* tashqi shahami obodonlashtirish (yo'l va ko'priklar inshootlari, obodonlashtirish, ko'chalarni yoritish);

- \* uy-joy kommunal xo'jaligining yordamchi korxonalari (ta'mirlash zavodlari, ustaxonalar).

Shahar iqtisodiyotiga shuningdek, shahar (shahar) va tuman (mahalliy) hokimiyat organlari, moliya-kredit muassasalari, jamoat tartibini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish organlari, shaharlararo ahamiyatga ega bo'lgan fan va ilmiy xizmatlar muassasalari kiradi. Shu bilan birga, shahar iqtisodiyoti sanab o'tilgan hududlarning oddiy to'plami emas, balki shahar (hudud) xizmatining barcha elementlarini bir-biriga bog'laydigan yaxlit "qon tomir tizimi" dir.

Uy-joy kommunal xo'jaligining ko'p qirrali tuzilishiga qaramay, bu insonning normal ishlashini, hududning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining ishlashini ta'minlaydigan yaxlit tizimdir. Aholining uy-joy-kommunal xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini ushbu manbalar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 90-yillardan boshlangan uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanishning zaruriy va amaliy darajasi o'rtasidagi tafovut doimiy ravishda ortib bordi. Aholini umumiy turar joy bilan ta'minlashning o'rtacha darajasi O'zbekistonning har bir fuqarosiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich bugungi kunda mamlakatimizda o'rtacha har bir kishiga 16

m<sup>2</sup> tashkil etmoqda vaholanki 2011 yilda bu ko'rsatkich 15 m<sup>2</sup> teng bo'lgan. Biroq shuni aytish kerakki dunyoning ayrim davlatlari bilan solishtirganda bu ko'rsatkich bir muncha past ekanligini ko'rish mumkin, jumladan ushbu ko'rsatkich 17,7 m<sup>2</sup> teng ekanligini ko'rish mumkin. Tahlil qilinayotgan davrda shahar uy-joy fondi va qishloq uy-joy fondlari miqdori bir biriga yaqin ko'rsatkichni tashkil etgan (6.1-jadval).

6.1-jadval

**Aholi uy-joy fondi<sup>37</sup>**

(yil oxirligiga; uy-joylar umiimiy maydom, million kvadrat metr)

	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
<b>Jami</b>	09,5	446,4	467,9	466,2	477,1	490,8	507,5	521,2	536,8	549,0
shu jumladan										
<b>davlat</b>	3,6	3,3	3,3	3,3	3,3	3,3	3,4	3,3	3,5	3,5
nodavlat	435,9	443,1	454,6	462,9	473,8	487,5	504,1	517,9	533,3	545,5
<b>O'rtacha har bir yashovchiga, m<sup>2</sup></b>	15,0	15,0	15,1	15,2	15,2	15,4	15,7	15,8	16,0	16,0
<b>Shahar uy-joy fondi</b>										
<b>Jami</b>	231,9	235,8	237,2	240,6	245,0	249,1	269,4	266,0	273,5	279,2
shu jumladan										
<b>davlat</b>	3,3	3,1	3,1	3,1	3,1	3,1	3,1	3,1	3,1	3,1
nodavlat	228,6	232,7	234,1	237,5	241,9	246,0	256,3	262,9	270,4	276,1
<b>O'rtacha har bir yashovchiga, m<sup>2</sup></b>	15,4	15,4	15,3	15,4	15,4	15,4	15,8	16,0	16,1	16,1
<b>Qishloq uy-joy fondi</b>										
<b>Jami</b>	207,6	210,6	220,7	226,6	232,1	241,7	246,1	266,2	263,3	269,8
shu jumladan										
<b>davlat</b>	0,3	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,3	0,2	0,4	0,4
nodavlat	207,3	210,4	220,6	225,4	231,9	241,5	247,8	255,0	262,9	269,4
<b>O'rtacha har bir yashovchiga, m<sup>2</sup></b>	14,6	14,6	14,9	14,9	15,0	15,4	15,5	15,7	15,9	16,0

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2011-2020 y 289 b.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki mamlakatimizning barcha xududlari bo'yicha uy-joy fondining taqsimlanishi turlicha ko'rsatkichga ega. Jumladan, 2020 yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 649 million kvadrat metrga teng bo'lgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 439,5 million kvadrat metrga teng bo'lgan va so'ngi 10 yil ichida mamlakatimizdagi uy-joy fondi ko'rsatkichi 210 million kvadrat metrga ortganligini ko'rishimiz mumkin (6.2-jadval).

### 6.2-jadval

#### Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha uy-joy fondining TAQSIMLANISHI<sup>38</sup>

(yil oxiriga uy joylar umumiy maydonl, million kvadrat metr)

	Jami uy-joy fondi									
	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
O'zbekiston Respublikasi	439,5	446,4	457,9	466,2	477,1	490,8	507,6	521,2	636,8	649,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25,8	25,9	27,9	28,9	29,2	30,0	35,1	35,1	31,4	31,6
viloyatlar										
Andijon	26,3	27,0	27,6	28,6	29,3	30,2	31,1	31,6	32,0	32,6
Buxoro	25,0	25,0	25,0	25,9	26,2	26,5	27,4	30,0	32,2	33,6
Jizzax	15,9	16,3	16,8	17,3	17,6	18,0	18,3	18,6	19,3	19,9
Qashqadaryo	39,8	40,3	41,2	41,5	44,4	46,8	50,4	53,1	55,0	55,2
Navoiy	17,6	17,7	17,9	18,0	18,3	18,9	20,7	21,3	22,1	22,5
Namangan	37,0	37,8	39,9	41,0	41,6	42,9	40,5	41,3	44,4	46,9
Samarqand	46,0	47,0	48,3	49,6	50,9	53,1	55,6	56,8	58,0	59,3
Sunondaryo	29,9	30,2	30,5	30,7	31,0	31,3	31,7	32,2	33,1	33,9
Sirdaryo	11,3	11,7	11,9	12,2	12,3	11,6	11,5	12,1	13,0	13,2
Toshkent	38,7	39,1	41,1	41,5	41,8	42,5	42,8	43,7	45,1	47,0
Farg'ona	43,8	44,0	44,1	44,5	46,3	47,3	48,0	48,7	49,1	49,5
Xorazm	39,0	39,4	40,0	40,0	40,2	42,5	43,0	43,5	45,4	45,7
Toshkent sh.	43,4	45,0	45,7	46,5	48,0	49,7	51,4	53,2	56,7	58,1

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2011-2020 y. 289 b.

Bundan tashqari yana shuni ko'rish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha eng katta ko'rsatkich Samarqand viloyati- 59,3 mln. m<sup>2</sup>, Toshkent shahri-58,1 mln. m<sup>2</sup> va Qashqadaryo viloyati-55,2 mln. m<sup>2</sup> xududlariga to'g'ri kelgan holda ushbu hududlardagi yashaydigan aholi soniga mos ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Bundan tashqari Navoiy viloyati-22,5 mln. m<sup>2</sup>, Jizzax viloyati-19,9 mln. m<sup>2</sup> hamda Sirdaryo viloyati (13,2 mln. m<sup>2</sup> ) uy-joy fondi ko'rsatkichlari eng past darajani tashkil etmoqda. Bu ham ushbu viloyat hududida yashaydigan aholi soni bir muncha boshqa mintaq va hududlarga nisbatan kam ekanligi bilan ajralib turadi.

Quyidagi jadvalda mamlakat hududlari va mintaqalarida yashovchi har bir aholining uy-joy bilan o'rtacha ta'minlanganligi keltirilgan(6.3-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlari asosida shuni aytish mumkinki so'ngi 10 yil davomida ya'ni 2011-2020 yillar oralig'ida mamlakatimiz mintaqalarida yashovchi har bir aholining uy-joy bilan o'rtacha ta'minlanganlik ko'rsatkichi 15 million kvadrat metrdan 16 million kvadrat metrga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq, yana shuni aytish mumkinki Farg'ona viloyati (13,3 mln. m<sup>2</sup>), Surxondaryo viloyati (12,6 mln. m<sup>2</sup>) va Andijon viloyatlari (10,3 mln. m<sup>2</sup>) mamlakt bo'yicha o'rtachi ko'rsatkichdan ancha past ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Bu ham eng avvalo ushbu hududlarda yashovchi aholi sonining yuqoriligi va keyinchalik esa ushbu mintaqalarda qurilish ishlarining bir muncha kam ekanligi bilan izohlanadi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, uy-joy kommunal xo'jaligi munitsipalitetlarga tegishli bo'lgan asosiy vositalarning o'rtacha 50-70 foizini qoplaydi va shu bilan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari

faoliyatining moddiy asosi va ularning ijtimoiy mas'uliyatining eng muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

### 6.3-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha bir kishi hisobida aholining uy-joy bilan o'rtacha**

#### **TA'MINLANGANLIGI<sup>39</sup>**

(yil oxiriga uy joylar umumiy maydoni, million kvadrat metr)

	Jami									
	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	15,0	15,0	15,1	15,2	15,2	15,4	15,7	15,6	16,0	16,0
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	15,3	15,2	16,2	16,5	16,4	16,8	19,2	18,9	16,6	16,5
<b>viloyatlar</b>										
<b>Andijon</b>	9,8	9,9	9,9	10,1	10,2	10,3	10,4	10,4	10,3	10,3
<b>Buxoro</b>	14,7	14,6	14,4	14,6	14,6	14,5	14,8	15,9	16,9	17,4
<b>Jizzax</b>	13,5	13,7	13,8	13,9	13,9	13,9	13,9	13,9	14,1	14,3
<b>Qashqadaryo</b>	14,5	14,4	14,4	14,2	14,8	15,3	16,2	16,7	16,9	16,7
<b>Navoiy</b>	20,0	20,1	20,0	19,9	19,9	20,2	21,8	22,0	22,4	22,4
<b>Namangan</b>	15,4	15,5	16,1	16,2	16,1	16,3	15,1	15,2	16,0	16,5
<b>Samarqand</b>	14,0	14,0	14,1	14,2	14,3	14,7	15,1	15,1	15,1	15,4
<b>Surxondaryo</b>	13,6	13,5	13,4	13,2	13,0	12,9	12,7	12,7	12,7	12,6
<b>Sirdaryo</b>	15,5	15,7	15,8	15,8	15,7	14,6	14,3	14,6	15,5	15,4
<b>Toshkent</b>	14,6	14,6	15,1	15,1	15,0	15,1	15,0	15,2	15,5	15,9
<b>Farg'ona</b>	13,4	13,3	13,1	13,0	13,3	13,4	13,4	13,3	13,2	13,3
<b>Xorazm</b>	24,1	24,0	23,9	23,6	23,2	24,1	24,0	23,9	24,5	24,3
<b>Toshkent sh.</b>	19,9	19,9	19,5	19,7	20,1	20,4	21,0	21,4	22,3	22,0

Uy-joy kommunal xo'jaligini saqlash va ta'mirlash uchun mablag'larning etishmasligi, ularni shakllantirish va ulardan foydalanishning noratsional mexanizmi, uy-joy kommunal xo'jaligini boshqarish

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2011-2020 y 289 b.

tuzilmasining tez-tez va asossiz qayta tashkil etilishi natijasida uy-joy kommunal xo'jaligining ishonchligi keskin pasayib ketadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligini moliyalashtirishning etishmasligi xizmat ko'rsatish sohasining ushbu tarmog'i faoliyati uchun tegishli me'yoriy-huquqiy yordamning yo'qligi bilan ortib bormoqda.

Aholi turmush darajasining pasayishi va tariflarning o'sishi munosabati bilan ko'plab pullik xizmatlar turlariga (uy-joy fondini ta'mirlash va saqlash, maishiy xizmatlar va boshqalar) talab sezilarli darajada kamaydi va ularning iste'molchilari soni torayib bormoqda. Natijada, O'zbekiston va rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari hajmi va sifati bo'yicha farq keskin oshib bormoqda. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy fondi va uy-joy kommunal xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha O'zbekiston Qo'shma Shtatlaridan 5-6 baravar ortda qolmoqda. Bu jamiyatda, ayniqsa qishda va energiya tanqis bo'lgan ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaradi.

Aholining uy-joy-kommunal xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini ushbu manbalar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 90-yillarda uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanishning zaruriy va amaliy darajasi o'rtasidagi tafovut doimiy ravishda ortib borgan.

Aholining tegishli ehtiyojlarini qondiradigan uy-joy kommunal xo'jaligining kichik tarmoqlari odamlarning normal hayoti va mintaqaning ham ijtimoiy, ham ishlab chiqarish tuzilishining ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Uy-joy kommunal xo'jaligi aholining tegishli turmush sifatini, turmush madaniyati va turmush tarzini shakllantiradi, ko'p jihatdan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini, investitsion jozibadorligini belgilaydi.

Quyidagi keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasida barcha aholi punktlarini obodonlashtirish ko'rsatkichlari keltirilgan (6.4-jadval).

Mamlakatimiz mintaqalaridagi aholi punktlarining obodonlashtirish holati bo'yicha oxirgi 10 yil davomida asosan qishloq joylarida suv quvirlari bilan ta'minlanish ko'rsatkichi yuqori, ya'ni 2011 yilda ushbu ko'rsatkich 119 ta shaharlarda amalga oshirilgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 120 tani tashkil etgan, 2011 yilda 8836 ta qishloq hududlarida amalga oshirilgan bo'lsa 2020 yilda bu ko'rsatkich 9156 tani tashkil etgan. Ya'ni shuni aytish mumkinki, oxirgi yillar davomida aholi punktlarini obodonlashtirish ko'rsatkichi asosan qishloq joylarida yuqori darajani tashkil etmoqda.

#### 6.4-jadval

#### Aholi punktlarini obodonlashtirish<sup>40</sup>

(yil oxiriga)

	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Quyidagilarga yeda aholi punktlari soni										
Suv quvuri										
shaharlar	119	119	119	119	119	119	119	119	120	120
shahar turidagi poselkalar	1 015	1 020	1 029	1 033	1 036	1 030	1 024	1 025	1 023	1 023
qishloq aholi punktlari	8 836	8 855	8 885	8 910	8 924	8 951	8 963	9 066	9 104	9 156
kanalizatsiya										
shaharlar	79	79	79	79	79	71	70	71	73	74
shahar turidagi poselkalar	52	52	53	53	49	39	41	41	47	54
qishloq aholi punktlari	54	54	53	51	48	25	23	23	32	36

Uy-joy kommunal xo'jaligining xizmat ko'rsatish sohasi tarmog'i sifatida inqirozi quyidagi sabablar bilan bog'liq: sanoatning zaif texnik bazasi; qobiliyatning etishmasligi; rivojlantirish va joriy ta'mirlash uchun zarur mablag'larning yo'qligi va boshqalar. Ularning asosi ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyot uchun tariflarni belgilash va to'lovlarni yig'ish mexanizmi, to'lov tizimlari va uy-joy qurilishini rivojlantirish uchun

<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ozbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2011-2020 y. 289 b.

resurslardan foydalanish ustidan nazorat qilishning samarasiz va nomuvofiqligidir. Bundan tashqari aholi turmush sharoitining yaxshilanishi bir qator omillarga bog'liqligi ma'lum, jumladan isitish tizimining mavjudligi va issiq suvdan foydalanish imkoniyatlari, tabiiy gazdan foydalanish darajasi hamda kanalizatsiya tizimining mavjudligi aholining turmush sifati va turmush sharoitlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Navbatdagi keltirilgan 6.5-jadvalda mamlakatimizda uy-joy fondini obodonlashtirish ko'rsatkichlari keltirilgan.

### 6.5-jadval

#### Uy-joy fondini obodonlashtirish<sup>41</sup>

(yil oxiriga: foiz hisobida)

	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
<b>Jami uy-joy fondi jihozlangan</b>	66,2	66,5	67,1	67,0	66,7	67,5	66,2	65,7	66,9	67,9
kanalizatsiya	31,8	31,7	32,2	32,4	32,5	32,3	32,0	32,1	33,2	35,0
isitish	42,8	43,0	43,0	43,2	43,2	43,6	43,1	42,9	46,5	47,1
tabiiy gaz	79,5	79,8	80,4	79,8	79,0	74,2	67,9	67,2	67,3	68,2
issiq suv	24,5	24,3	26,2	26,7	27,0	28,5	28,7	28,8	30,7	32,2
<b>Shahar uy-joy fondi jihozlangan uy-joy maydoni ulushi</b>	81,7	61,8	82,8	82,9	82,9	84,1	82,9	62,3	84,6	64,8
Suv quvuri										
kanalizatsiya	52,7	52,7	53,9	54,1	54,5	54,7	53,8	53,7	55,4	57,7
isitish	59,0	59,2	59,0	59,3	59,6	60,2	59,4	59,2	63,0	63,9
tabiiy gaz	86,7	86,9	87,5	87,4	87,1	85,6	82,7	62,2	82,8	83,6
issiq suv	43,4	43,2	45,4	46,2	46,6	47,7	47,7	47,6	50,5	51,6
<b>Qishloq uy-joy fondi jihozlangan</b>	49,0	49,2	50,3	50,1	49,6	50,4	48,8	48,4	48,6	50,4
kanalizatsiya	8,4	8,3	8,9	9,2	9,3	9,2	9,3	9,7	10,2	11,6
isitish	24,7	24,8	25,8	26,0	25,9	26,5	26,2	26,0	29,3	29,8
tabiiy gaz	71,5	71,7	72,1	71,7	70,5	62,5	52,5	51,6	51,2	52,4
issiq suv	3,3	3,2	5,5	6,0	6,4	8,6	8,9	9,2	10,2	12,2

Ushbu jadvaldan ham shuni ko'rish mumkinki yillar bo'yicha mamlakatimizda kanalizatsiya tizimi, tabiiy gazdan foydalanish hamda

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ozbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2011-2020 y. 289 b.

aholining issiq suv bilan ta'minlanganlik darajasi ortib borayotganligini ko'rish mumkin. O'zbekistonda kommunal xizmat ko'rsatishning etakchi kichik tarmoqlarining holati bugungi kunda jiddiy tashvish uyg'otadi:

Suv ta'minoti. O'zbekistonda ichimlik suvi ta'minotining asosiy manbalari er usti suvlari (taxminan 70%) va faqat 30% er osti suvlaridir. So'nggi yillarda suv sifati bilan bog'liq muammolar keskin yomonlashmoqda. Suv manbalari hamma joyda ifloslangan, chunki ular nafaqat maishiy va sanoat ehtiyojlari uchun suv olish uchun, balki kanalizatsiya - maishiy va sanoat suvlarini qabul qilish uchun ham ishlatiladi.

Mavjud ob'ektlar va suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlarining ishlash darajasi mavjud bo'lganda, 2020 yilga kelib oqava suvlarni tozalash darajasi 60-65% gacha kamayadi. Ichimlik suvini tozalashda qo'llaniladigan kimyoviy reaktivlar va dezinfektsiyalash vositalarining yetishmasligi tufayli respublikamizning qator hududlarida ichimlik suvi sanitariya-texnik ko'rsatkichlar talablariga javob bermaydi. Oqava suvlarning 24% ga yaqini tozalanmagan suv havzalariga tashlanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda bir kishi uchun kunlik suv iste'moli normasi 150-200 litrni tashkil qiladi. Rossiyada har bir aholiga kuniga o'rtacha 306 litr suv sarflanadi. Bunday ortiqcha suv iste'moli suv ta'minoti tizimlarining texnik darajasining pastligi (uning to'g'ridan-to'g'ri yo'qotishlari har yili etkazib beriladigan suv hajmining taxminan 10 foizini tashkil qiladi) va iste'molchilar tomonidan suvdan noratsional foydalanish bilan bog'liq.

## **6.2. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi tahlilining fundamental asoslari**

Korxonalar va tashkilotlarda boshqarish tizimini tashkil etish bir qator zamonaviy tahlil usullari yordamida amalga oshiriladi. Bularga, xususan,

STEP- (yoki PEST-) SWOT- (SVOT) tahlil usullari kiradi. Ularning yordami bilan tadqiqotchilar strategik savollarga javob izlaydilar:

- tashkilotning hozirgi holati qanday?
- tashkilot kelajakda qanday holatda bo'lishi mumkin?
- belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida qanday to'siqlar paydo

bo'lishi mumkin va tashkilotga nima yordam beradi?

- erishish uchun qanday imkoniyatlarni amalga oshirish kerak bu maqsadlar?
- strategiyani amalga oshirishni qanday boshqarish kerak?

STEP va SWOT tahlillari natijalariga ko'ra boshqariladigan tizim - firma, tashkilot, jamiyatning strategik rivojlanish yo'nalishlari shakllanadi. STEP- (yoki PEST-) tahlili bu tashqi muhitning "xulq-atvori"ni tahlil qilish va shunga mos ravishda tashkilotning kelajakdagi strategiyasini loyihalash uchun qulaydir qulay tahlil usulidir. Agar biz makro muhitning kamida to'rt turdagi omillaridan iborat bo'lgan kompleks tashkil etishga ta'sirini adekvat baholasak (ijtimoiy (S), texnologik (T), iqtisodiy (E), siyosiy(P)). Ushbu omillar nomlarining bosh harflari tashkilotning tashqi muhitini tahlil qilishning ushbu usulining qisqartmasini tashkil etadi. STEP bu omillarni tahlil qilish (STEP tahlili) yoki PEST tahlili ham deb nomlanadi. Bu ekspert tahlilining bir turi bo'lib. Mutaxassislar odatda tashkilotning asosiy quyi tizimlari soniga ko'ra jamoalarga bo'linadi. Ular makromuhitning asosiy muhim omillari tarkibini aniqlaydi va ularni ahamiyatiga ko'ra, har bir omillar guruhi uchun alohida-alohida tartiblaydilar. Natija ikki bosqichda jamlanadi: birinchidan, individual barcha ishtirokchilarning fikrlari, keyin esa jamoalarning fikrlari.

STEP omillarini tahlil qilishning afzalliklari:

1. Menejer va uning eng yaqin xodimlari STEP omillari bilan ishlaganda, ular tashqi muhit haqida o'ylay boshlaydi, bu haqda shunchaki gapirmaydi.

2. Odamlarda tashqi muhit haqida oldindan "ko'rish" vujudga keladi. Bu orqali xodimlarda tashqi muhit omillarini hisobga olish madaniyati shakllantiriladi.

3. Siz omildan omilga erkin harakat qilasiz va tashqi muhitning yaxlit rasmini qurasiz.

4. Tashqi muhitni tahlil qilish uchun umumiy tushunish tili ishlab chiqiladi.

5. Tashqaridan mulohaza yuritishning barqaror odati shakllanadi.

Tarmoqlar rivoji strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilashiga bog'liq. Shu bois, tarmoq korxonalarini ustivor rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda tarmoqlarda strategik tahlilni to'g'ri amalga oshirishning fundamental jihatlarini o'rganishni talab etadi.

*Strategik tahlil* - bu korxonaning faoliyati va bozorini o'rganish hamda baholash jarayoni bo'lib, natijada turli tashkilot va kompaniyalar uzoq muddatli raqobat strategiyasini ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlarni oladi. Korxonaning strategik vaziyatli tahlili muhim qadam hisoblanadi. Korxonaning to'g'ri tayyorlangan strategik tahlili asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi va sohada xavf bo'lishini kamaytiradi. Strategik tahlilning mazmuni. Korxonani strategik tahlil qilishning to'rtta asosiy bosqichi mavjud:

- Rejalashtirilgan rivojlanish strategiyasi doirasida muhim bo'lgan joriy ko'rsatkichlarni aniqlash. Korxonadan belgilangan maqsadlar va real ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqni taqqoslash va tahlil qilish;

- Bashorat qilinayotgan ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi strategik omillarni yaratish va tahlil qilish, ularni ahamiyati bo'yicha tartiblash;

- Strategik muqobillarni izlash. Bir nechta muqobillardan birini tanlash va strategik reja tuzish.

Mavjud ko'rsatkichlarni aniqlash uchun ichki omillarni o'rganish muhim: kompaniya tuzilishi, uning kadrlar va ishlab chiqarish salohiyati, resurslar va moliyaviy imkoniyatlar. Korxonada qanday sharoitlarda ish olib borishini, uning ishbilarmonlik muhiti, mijozlar, etkazib beruvchilar, raqobatchilar bilan munosabatlari qanday o'rnatilishiga qaratiladi<sup>42</sup>.

Strategik tahlil natijasida korxonada rivojlanishining kelajakdagi mumkin bo'lgan holatini bashorat qilish, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

*Strategik tahlil nima uchun qo'llaniladi?* Strategik tahlil quyidagi vazifalarni hal qilish uchun zarur:

- ◆ biznes-reja tuzish;

- ◆ korxonaning raqobatbardoshlik darajasini baholash va takomillashtirish;

- ◆ korxonaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish yo'llarini topish;

- ◆ korxonada o'sishining imkoniyatlari va shartlarini aniqlash;

- ◆ muvaffaqiyatli reklama kompaniyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ◆ maqsadli auditoriyani to'g'ri belgilash va samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish;

- ◆ korxonaning mahsulot portfelidagi ayrim mahsulot guruhlarini rivojlantirish to'g'risida qaror qabul qilishga imkon beradigan bozorning asosiy korxonaning optimal tashkiliy va kadrlar tarkibini shakllantirish;

- ◆ risklarni boshqarish va muvozanatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

---

<sup>42</sup> <https://www.gd.ru/articles/10374-strategicheskiy-analiz>

Oliy maqsadni ko'zlayotgan korxonalar bevosita strategik tahlilni o'tkazgandan so'ng, menejer korxonaga mavqeini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun strategik rejasi bo'lishi talab etiladi.

*Ichki muhitni tahlil qilish.* Bunda kompaniyaning o'zi yoki savdo tarmog'iga kiritilgan barcha savdo nuqtalarining imkoniyatlarini tahlil qilishdir. Odatda, korxonaning tadqiqotlari doirasida tahlil qilinishi kerak. Korxonada qanday munosabatlar o'rnatilishini baholash kerak, ya'ni: bo'ysunuvchilar va menejerlar o'rtasida, ichki bo'limlar o'rtasida, norasmiy aloqa - ya'ni korxonaning korporativ madaniyati darajasi qanchalik balandligini tekshirish lozim. Mavjud kadrlar tuzilmasi firma mijozlarining barcha ehtiyojlarini qondirish va uning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun qanday maqbulligini aniqlash. Xodimlarining sa'y-harakatlari qanday taqsimlanganligini, ular qanchalik samarali ekanligini tushunish uchun (6.6-jadval).

*Resurslar:* kadrlar, moddiy, moliyaviy, texnik va boshqalar.

*Texnologiyalar:* bunga uskunalar, asbob-uskunalar va xodimlarning kasbiy mahorati - xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar kiradi.

*Tashqi muhitni tahlil qilish.* Bu sanoat tarmoqlari va bozorni tahlil qilish, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilishdan iborat. Barcha manfaatdor tomonlar va tashkilot farovonligiga va uning rivojlanish holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omillar aniqlanadi. Turli tahdidlar va imkoniyatlar baholanadi.

*Atrof muhit omillari orasida:* mahsulot etkazib beruvchilar, mijozlar, nazorat qiluvchi organlar, auditorlar, banklar, investitsiya kompaniyalari.

*Korxonaga faoliyat ko'rsatadigan sharoitlar:* geografik, siyosiy, iqtisodiy va boshqalar. Faqat tashqi omillarni emas, balki ma'lum bir kompaniya uchun muhim bo'lgan, unga tahdid yoki foyda keltiradigan

omillarni ta'kidlash kerak.

6.6-jadval

**Tarmoq kompaniyalaridagi strategik tahlil bosqichlarining xususiyatlari<sup>43</sup>**

<i>Bosqichlar</i>	<i>Vazifa va maqsadlarni tahlil qilish</i>	<i>Ichki muhitni tahlil qilish</i>	<i>Tashqi muhitni tahlil qilish</i>	<i>Umumiy atrof-muhitni tahlil qilish</i>
<i>Vazifalar</i>	Vazifa va rivojlanish maqsadlarini aniqlash	Strategik salohiyatni baholash	Strategik iqlimni baholash	Strategik pozitsiyani baholash. Raqobat ustunligini baholash.
<i>Vositalar</i>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kompaniyaning ishlab chiqarish-iqtisodiy tizimining modeli.</li> <li>• Strategik boshqaruv tizimining modeli.</li> <li>• "Maqsad daraxti".</li> </ul>	Porterning "rentabellik - bozor ulushi" jadvali	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Majburiy maydonlarni tahlil qilish</li> <li>• STEP tahlil</li> <li>• Strategik yo'nalishlar</li> <li>• Harakatlantiruvchi kuch kontsepsiyasi</li> <li>• Porterning 5 raqobatdosh kuchlari</li> <li>• Muvaffaqiyatning asosiy omillari</li> </ul>	Ansoff matritsasi "mahsulot bozori" SWOT-tahlil "xaridor - sotuvchi" matritsasi
<i>Yechimlar</i>	Missiya tarkibini tanlash. Rivojlanish maqsadini tanlash. "Maqsadli daraxt" tuzilishini tanlash	Ichki muhit (imkoniyat) tuzilishining variantini tanlash. Usullarni tanlash. Imkoniyani baholashni tanlash.	Tashqi muhit (sharoitlar) tuzilishining variantini tanlash. Usullarni tanlash Iqlimni baholash ni tanlash.	Strategik makon Tuzilmasi variantini tanlash. Usullarni tanlash. Lavozimni baholashni tanlash Lavozim bo'yicha strategiyalarni aniqlash

Tarmoq korxonalaridagi strategik tahlil bosqichlarining xususiyatlaridan

ko'rish mumkinki, vazifa va maqsad to'g'ri quyilsa strategiya samarali amalga oshadi.

Sohani tahlil qilish quyidagi ko'rsatkichlarni baholashni o'z ichiga oladi:

<sup>16</sup> <https://www.gd.ru/articles/10374-strategicheskiy-analiz>

- tarmoq rentabelligi va uning o'sish sur'ati;
- potensial xaridorlar soni va ularning moliyaviy imkoniyatlari;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga xaridorlarning ehtiyoji;
- sohadagi raqobatdosh korxonalar soni.

*Strategik tahlil usullari SWOT - tahlil. SWOT tahlilining maqsadi* - kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek potensial imkoniyatlar va tahdidlar to'g'risida mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish orqali korxonani rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish. Bunga kompaniyaning ichki kuchli va kuchsiz tomonlarini bozor ularga beradigan imkoniyatlar bilan taqqoslash orqali erishiladi. Muvofiqlik sifatiga asoslanib, tashkilot o'z biznesini qaysi yo'nalishda rivojlantirish kerakligi va oxir-oqibat resurslarni segmentlar bo'yicha taqsimlash belgilanadi.

SWOT - tahlil nomi ingliz tilidan olingan bo'lib kuchli, kuchsiz, imkoniyatlar, tahdidlar - kuch, kuchsizlik, imkoniyatlar, tahdid so'zlaridan kelib chiqqan.

Kuch - bu kompaniyaning tajribasi, rivojlanishi, yutuqlari, raqobatdosh ustunliklari. Zaiflik - bu firmaning etishmasligi, bu uning bozordagi mavqeini chayqaladigan va himoyasiz qiladi. Imkoniyatlar - bu o'sish va rivojlanish, raqobatdosh ustunliklarni oshirish uchun istiqbollarni ochib beradi. Tahdidlar (xavf- xatarlar) - bu kompaniyaning raqobatbardoshligini pasaytirishi yoki uning tugatilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ekologik omillar: arzon tovarlarning paydo bo'lishi, kattaroq kompaniya tomonidan qabul qilinish xavfi, noqulay siyosiy o'zgarishlar va yangi qonunlar(6.7-jadval).

SWOT tahlil ma'lumotlari maxsus tuzilgan matritsaga kiritiladi va korxonani strategiyasini shakllantirish uchun ishlatiladi. Natijada, u kuch va imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishga va tashqi tahdidlardan himoyalanişga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

SWOT - tahlil to'rt yo'nalishda olib boriladi: S - (strong) - kuchli tomonlari W - (weakness) - zaif, kuchsiz tomonlari O - (opportunitu) - imkoniyatlari T - (tnreat) - to'siqlar.

*Taqqoslash usuli* korxonani baholashga va rejalashtirilgan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlaridan chetga chiqish sabablarini aniqlashga yordam beradi. Taqqoslashda: hisobot ko'rsatkichlarini hozirgi va o'tgan davrlarning rejalashtirilgan ko'rsatkichlari bilan har bir kun uchun ishlash ko'rsatkichlari; ushbu korxonaning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan ishlashi; raqobatchilar mahsulotlarining sifati bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati taqqoslanadi.

#### 6.7-jadval

#### SWOT - tahlilining tarkibiy tuzilishi<sup>44</sup>

<p><b>Kuchlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mahalliy ishlab chiqarish buyurtmalarni tezkor ravishda qayta ishlashga imkon beradi.</li> <li>• Biznesni targ'ib qiluvchi ko'plab doimiy mijozlar.</li> <li>• Bepul trafik olish uchun qidiruv tizimining yaxshi reytinglari.</li> </ul>	<p><b>Zaif tomonlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mahalliy futbolkalarning narxi raqobatbardosh emas.</li> <li>• Yuqori xarajatlar ombor xarajatlari tufayli moddiy imkoniyatlarning kamroq bo'lishini anglatadi.</li> <li>• Mijozlar o'lovchovlarni o'zlari bajarishni voqtirmaydilar.</li> </ul>
<p><b>Imkoniyatlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O'lovchov jarayonini soddalashtirish uchun texnologiyadan foydalanish savdo hajmini oshirishi mumkin.</li> <li>• Instagram va Pinterest kabi yangi pullik reklama kanallari samarali bo'lishi mumkin.</li> <li>• Hozirgi kunda Internetdan kiyim sotib olish - bu tendentsiya.</li> </ul>	<p><b>Tahdidlar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ayni paytda bir nechta raqobatchilar narxlarni pasaytirishmoqda.</li> <li>• Veb-saytni mobil qurilmada ishlatish qiyin, garchi mobil trafik ko'paymoqda.</li> <li>• Kuchli dollar xalqaro savdoni kamaytirishi mumkin.</li> </ul>

Taqqoslash usulida taqqoslangan ko'rsatkichlarni nazarda tutadi: agar u mahsulot bo'lsa, unda bitta assortiment guruhi, agar savdo ko'rsatkichlari bo'lsa unda bitta mintaqada mavsumdagi holat hisobga olinadi.

*Faktor tahlil* uslubi ma'lum bir omillarning ma'lum bir funksiyaga qanday ta'sir qilishini (masalan, mehnat unumdorligi) aniqlaydi. Aniqlangan omillar muhimligi bo'yicha tartiblanadi. Bu hisob-kitoblarni va modelni

<sup>44</sup> <https://aggregator-mlm.ru/uz/4-swot-analiz-swot-analiz>

ishlab chiqishni talab qiladigan juda mashaqqatli usul.

*Balans usuli* bir-biriga ta'sirini aniqlash uchun tegishli ko'rsatkichlarni taqqoslaydi.

*Grafik usul* o'rganilayotgan omillarni vizual ravishda baholash uchun grafikalar va diagrammalar tuzadi.

### **6.3. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida strategik maqsadlarni belgilash**

Uy-joy kommunal xo'jaligi issiqlik va elektr energiyasining muhim iste'molchisi hisoblanadi. Mamlakat energiya resurslarining deyarli beshdan bir qismi faqat uy-joylarni isitish uchun sarflanadi. Shu bilan birga, isitish qozonlarining umumiy hajmida quvvati 3 Gkal/soatgacha bo'lgan kichik, samarasiz qozonxonalar ustunlik qiladi. Ularning ulushi 68% ni tashkil qiladi, ayni paytda ular umumiy issiqlik hajmining atigi 10% ni ishlab chiqaradilar. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkin, mamlakatimizda uy-joy kommunal xo'jaligi tizimini jadal rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning hosilasi sifatida qarashimiz mumkin. Bu esa ushbu uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida strategik maqsadlarni belgilab olishni talab etadi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida strategik maqsadlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlarini, o'rta muddatli maqsad va vazifalarini belgilash;

-uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi huquqiy munosabatlar ishtirokchilari, investorlar, resurslar va uy-joy kommunal xo'jaligi iste'molchilari o'rtasida uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari bo'yicha umumiy ko'rsatmalar va taxminlarni shakllantirish;

-ko'zlangan maqsadlarga erishishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlarni belgilab olish.

Strategiyani amalga oshirish makroiqtisodiy muhitga, jumladan, narxlar dinamikasiga, kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga, aholi daromadlari darajasiga, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy omillarga, hududiy va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va xususiyatlarga bevosita bog'liq.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida strategiya yaratishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-ko'p qavatli uylarda o'z uy-joyiga oid qarorlar qabul qilish uchun barcha huquqlarga va ushbu huquqlarni amalga oshirishning real imkoniyatlariga, shuningdek qabul qilingan qarorlar uchun ma'lum darajadagi javobgarlikka ega bo'lgan faol va mas'uliyatli binolar egalarini shakllantirish;

-tadbirkorlikni rivojlantirish, raqobat muhitini mustahkamlash va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb etish;

-ko'p qavatli uylardagi binolar egalari, boshqaruvchi tashkilotlar va resurslar bilan ta'minlovchi tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini takomillashtirish;

- uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida energiya samaradorligini oshirish.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

-uy-joy fondida fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash, shu jumladan ko'p xonadonli uylarni boshqarish, ko'p xonadonli uylardagi umumiy mulkni kapital ta'mirlash, shu jumladan lift uskunalarini modernizatsiya qilish, shuningdek, fuqarolarni favqulodda uy-joy fondidan ko'chirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

-kommunal resurslar bilan ta'minlash (davlat xizmatlarini ko'rsatish) sohasida tartibga solinadigan faoliyatni amalga oshirish (elektr energiyasi va gaz ta'minoti masalalari boshqa strategik rejalashtirish hujjatlarida ko'rib chiqiladi), shu jumladan sovuq suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiq suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, shuningdek qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish ishlarini olib borish;

-ijtimoiy siyosat, kadrlar siyosati, shuningdek, jamoatchilik nazorati kabi sohalarni o'z ichiga olgan uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatishning ochiq elektron axborot tizimini shakllantirish.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini strategik rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-fuqarolarga qulay yashash sharoitlarini ta'minlash maqsadida iste'molchilarga sifatli uy-joy-kommunal xizmatlari ko'rsatish;

-uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi turli ishtirokchilarning manfaatlari muvozanatining mavjudligini ta'minlash.

-uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha ishtirokchilarning (resurs ta'minoti tashkilotlari, iste'molchilar, ko'p qavatli uylarni boshqaruvchi yoki ko'p qavatli uydagi umumiy mulkni joriy saqlash bo'yicha xizmatlar (ishlarni bajaruvchi) shaxslar) huquqlari, qonuniy manfaatlari va majburiyatlari bo'lishi kerak, uy-joy-kommunal xo'jaligi sohasidagi huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari manfaatlarini aniq shakllantirish va hisobga olish va rivojlantirish zarur. Har bir bunday ishtirokchining barqaror ishlashi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda zararsiz faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish kerak;

-ekologik tozalikni ta'minlash (atrof-muhitni muhofaza qilish, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish va ulardan foydalanish, kommunal resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, energiya

samaradorligi standartlarini oshirish) asosida rivojlanishni tashkil etish. Ushbu chora-tadbirlar uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini jadal rivojlanishini ta'minlaydi.

Nazorat savollari:

1. Strategik tahlil kompaniyaning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega.
2. Ishlab chiqarishni maqsadga muvofiq ravishda qisqartirish xodimlar faoliyatiga qanday ta'sir qiladi.
3. Turli xil o'sish strategiyasi ishlab chiqarishga qanday ta'sir qiladi.
4. Rivojlangan bozorda sotish uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish jarayonini yoriting.
5. SWOT tahlilining maqsadi nimadan iborat.
6. Sanoatda raqobatbardoshlik tahlili nimadan iborat.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risidagi Qonuni". //Xalq so'zi, 2012-yil, 6 yanvar.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 - jild. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil. 17 - bet.
3. A.Ortiqov. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik, T.: 2014 y.
4. М.П. Афанасев. Корпоративное управление на российских предприятиях: [Научн. монография] - М.: Интерексперт, 2000. 445 с.
5. В.П. Багов. Корпоративный менеджмент-М.: Изд-во РЕА, 1999. - 246 с.
6. Ламбен Ж.Ж. Стратегический маркетинг. М.: Прогресс, 2008, 164-бет.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. Ozbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2011-2020 y.289 b.
8. <https://www.gd.ru/articles/10374-strategicheskiy-analiz>
9. <https://aggregator-mlm.ru/uz/4-swot-analiz-swot-analiz>

*Tashkilotlar uzoq vaqt davomida muvaffaqiyat qozonishadi, chunki ular mijozlariga yoqadigan narsani raqobatchilardan ko'ra yaxshiroq bilishadi.*

*Robert Keyz, Gari Pisano va Devid Apton*

---

## **7-BOB: STRATEGIYA VA RAQOBAT USTUNLIGI**

---

Reja :

### **7.1. Raqobatning umumiy strategiyalari.**

7.2. Raqobat ustunligini saqlab qolish uchun xujumkorlik strategiyasidan foydalanish.

7.3. Raqobat ustunligini ximoya qilish uchun mudofaa strategiyalaridan foydalanish. Vertikal integrasiya strategiyasi.

*Tayanch so'zlar: raqobat strategiyalari, raqobat ustunligi, mudofaa strategiyalari, tarmoq ichidagi raqobat, tarmoqlararo raqobat, erkin raqobat, vertikal integrasiya strategiyasi.*

### **7.1. Raqobatning umumiy strategiyalari**

Kompaniyaning raqobat strategiyasi - bu biznesga yondoshuv va mijozlarni jalb qilishga qaratilgan tashabbuslar, kompaniyaning bozordagi pozitsiyani mustaxkamlash uchun olib boradigan kurashidan iborat. Bozordagi raqobatni urushga o'xshatish mumkin. Bu urushda raqiblar yarador bo'lishi, zarar ko'rishi mumkin. Bunda faqat eng yaxshi strategiya galaba qozonadi. Kompaniyaning raqobat strategiyasi xujumkorlik va mudofaa harakatlarini, qisqa muddatli taktik va uzoq muddatli harakatlarni o'z ichiga oladi.

Bozordagi raqobatchilar nechta bo'lsa raqobatchilik strategiyasining variantlari va ko'rinishlari shuncha bo'ladi. Biroq ularning turi qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning o'xshashliklari topiladi. Strategiyaga yondoshishning keng tarqalgan 5 ta varianti mavjud bulib ular quyida keltirilgan:

1. *Xarajatlar buyicha ilgorlik strategiyasi.* Tovar va xizmatlarni ishlab chikarishda tula xarajatlarini pasaytirishni kuzda tutadi. Bu esa kup sonli xaridorni jalb qiladi.

2. *Keng tabaqalashirish strategiyasi.* Kompaniya tovarlariga raqobatchi

kompaniyalar tovarlaridan fark kildiradigan uziga xos chizgilarni berishga karatilgan. Bu xam xaridorlarni jalb etishga yordam beradi.

3. *Optimal xarajatlar strategiyasi.* Xaridorlarga past xarajatlar va maxsulotni keng tabaqalashtirishni uygunlashtirish xisobiga kimmatali tovar olish imkoniyatini beradi. Asosiy vazifa uxshash tovarni ishlab chikaruvchilarga nisbatan optimal xarajat va past baxolarni ta'minlashdan iboratdir.

4. *Fokuslangan strategiya.* Bunda strategiya past xarajatlarga asoslangan bulib, xaridorlarning tor segmentiga yunaltiriladi. Bunda kompaniya uz raqobatchilaridan ancha past baxolar xisobiga utib ketadi.

5. *Ifodalangan strategiya yoki maxsulotni tabaqalashtirishga asoslangan bozor uyasi strategiyasi.* Uning maksadi - tanlangan segmentlar namoyondalarini ularning did va talablariga yanada tularok javob beradigan tovar va xizmatlar bilan ta'minlashdir.

*Raqobat iqtisodiyot tarmoqlarining harakatlantiruvchi kuchidir.* Bugungi kunda raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, rivojlantirish usuli hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish, unga turli tomondan yondoshishni talab qiladi. Erkin tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat, tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashdilar. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste'molchilar uchun kurashdir.

Sanoat tarmoqlariga resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat, o'zlarining iqtisodiy resurslarni yuqori baholarda sotish uchun boradi. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlarini rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yuzaga keladi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi, ular tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga harakat qiladilar, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq nafilikka ega bo'lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni

tezroq sotib olish uchun kurashadi. Shunday qilib raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

*Raqobat* - bir maqsad sari intilayotgan bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashdan iboratdir<sup>45</sup>. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbaalari uchun ular orasidagi kurash bo'ladi.

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida xaridorlar, ya'ni iste'molchilar sarflagan har bir so'm xarajati evaziga ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashadi, ularning xar biri arzon va sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga harakat qiladi. Turli tovarlar: iste'mol tovarlari, xomashyo, energiya, stanoklar, mashinalar, asbob-uskunlar, ishchi kuchi kabilar taklifi talabdan kam bo'lsa, iste'molchilar ulardan tezroq va ko'proq olish uchun harakat qiladilar va natijada bahoning ijtimoiy qiymatidan yuqorilanishiga sabab bo'ladi.

*Raqobatning iqtisodiy asosini*, avvalo ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida alohidava mustaqil tashkil etadi. Chunki, har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulq egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bir jihatdan qaraganda raqobat iqtisodiy munosabatlar sub'ektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq xarakterlaydi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa sharti - bu tovar pul munosabatlarining ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

So'z o'mida aytish joizki, mulk egalarning alohidalashuvi va mustaqil bo'lishi bilan birga tovar - pul munosabatlari yoki bozor xo'jaligi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyotining dastlabki belgilari paydo bo'lishi bilan birga unga xos bo'lgan raqobat ham yuzaga keladi.

---

<sup>45</sup> Kalka Regina, Myossen Andrea. Marketing. Karmannoe posobie. Per. s nem.-M.: Finansi i statistika, 2003.-160 s.

*Raqobatning asosiy sohasi bozor, chunki unda erkin iqtisodiy sub'ektlarning alohidalashgan manfaatlari to'qnashuvi ro'y beradi.*

Tadqiq qilingan ayrim iqtisodiy adabiyotlarda raqobatchilik munosabatlarining rivojlanishi umumlashtirilib, uning ikki muhim bosqichi alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bu erkin raqobat bosqichi va monopol raqobat bosqichi. Ba'zi iqtisodchilar bu bosqichlarni inkor qilmagan holda, raqobatchilik munosabatlari rivojini to'laroq tahlil qilib, uni to'rt bosqichga ajratadi:

*1. Bozor iqtisodiyotining dastlabki shakllariga o'tishi* davridagi mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat bosqichi. Bu bosqichda raqobat bir turdagi tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida, mahalliy bozorlar doirasida boradi. Ishlab chiqaruvchilarning mehnat maxoratini oshirib borish raqobat kurashining asosiy usuli hisoblanadi. Raqobat rivojining bu bosqichi kapitalistik ishlab chiqarish usuli qaror topguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrgacha raqobat rivojlana boshlagan bo'lsada, jamiyatning xo'jalik hayotida belgilovchi o'rinni egallagan. Jamiyatda turli xil g'ayri iqtisodiy cheklashlar, monopol tuzilmalar, raqobat uchun yopiq zonalar saqlanib qolgan.

*2. Kapitalistik erkin raqobat bosqichi.* Bu bosqich tovar munosabatlari hukmron munosabatlarga aylanishi, tovarlar, kapital va ish kuchining erkin xarakati yo'lidagi g'ayri iqtisodiy cheklashlar olib tashlanishi, yagona milliy va keyinchalik jahon bozori vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda raqobat iqtisodiyotni bozor yo'li bilan tartibga solishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Yangi texnika va texnologiyani joriy qilish, mehnat unumdorligini o'stirish, yangi turdagi tovarlarni ishlab chiqish raqobatda g'olib chiqishning asosiy shartlari hisoblanadi.

*3. Monopolistik raqobat bosqichida* monopoliyalarning baholarni belgilashdagi mutloq imkoniyati raqobatni cheklaydi, texnika taraqqiyotiga intilishni sundiradi va har qanday iqtisodiy tashabbusni bo'g'adi. Monopoliyalar raqobatni cheklasalarda, uni yo'qota olmaydi, faqat xarakterini tubdan o'zgartiradi. Tarmoqdagi mayda kapitallarning erkin raqobati o'rniga, tarmoqlararo, milliy iqtisodiyot va jahon miqyosida ish yurituvchi yirik monopoliyalar o'rtasidagi raqobat vujudga keladi va u hal kiluvchi rol o'ynay boshlaydi.

*Monopolistik raqobat bosqichida* raqobat kurashi bir qator ko'rinishlarni oladi: bir tarmoq monopoliyalari o'rtasidagi raqobat, turli tarmoq monopoliyalari o'rtasidagi raqobat, monopoliyalar bilan monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat, monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat va turli mamlakatlar monopoliyalari o'rtasidagi raqobat.

Monopolistik raqobat bosqichi iqtisodiyotga yirik monopol tuzilmalar xukmron mavqega ega bo'lishini xarakterlaydi. Bu bosqichda iqtisodiyot monopol raqobat va erkin raqobat sohalariga ajraladi. Iqtisodiyotda monopol raqobat yetakchi bo'lib, erkin raqobat iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda keyingi o'ringa suriladi. Raqobat iqtisodning monopollashgan va monopollashmagan sohalarida hamda bu sohalar o'rtasida boradi. Raqobat kurashida an'anaviy usullar bilan birga bozorni egallab olish, siyosiy hokimiyatdan foydalanish kabilar ham qo'llaniladi.

*4. Aralash iqtisodiyotga xos bo'lgan raqobat bosqichi.* Bu bosqichga kelib raqobat doirasi mislsiz kengayadi, u ishlab chiqarishdan tashqari xizmat ko'rsatish va faoliyatning barcha boshqa sohalarini qamrab oladi. Xalqaro bozorda raqobatlashishga intilish kuchayadi.

Yangi texnologiya joriy qilish, talabga javoban tovar turlarini tez o'zlashtirish, malakali ishchi kuchiga ega bo'lish va zamonaviy marketing xizmatidan foydalanish kabilar raqobat kurashida g'olib chiqish shartiga aylanadi.

O'zbekistonda shiddatli raqobat muhitining shakllanishi jarayonida korxonalar raqobatbardoshligini oshirish sohasidagi ishlarning holati bo'yicha asosiy masalalar ishlab chiqarish korxonalarini har tomonlama rag'batlantirish, iqtisodiy faoliyat yuritishlarida keng imkoniyatlarni ochish va iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlantirishdan iboratdir. Shunday ekan, mavjud ishlab chiqarish korxonalarini tashqi sarmoyadorlar va iqtisodiyotga zarur bulgan xo'jalik faoliyatlarini sarmoyalar bilan investitsiyalashni shakllantirish orqali samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, yuritilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarning ko'zguda aks ettirilishi, bozor iqtisodiyoti jarayonlari barqarorligi hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga yaratiladigan imkoniyatlarning kafolati hisoblanadi.

Keyingi yillarda ishlab chiqilgan davlat dasturining belgilangan vazifalarini hal

etishda eng muhim masalalardan biri, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy mezonini sifatida korxonalar raqobatdoshligini oshirish, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlantirish orqali erishish bilan bog'liqdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida raqobat kurashlari mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini qarab chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo, ikki turga - tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

*Tarmoq ichidagi raqobat* ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

*Tarmoq ichidagi raqobat* tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi<sup>46</sup>.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

*Tarmoqlararo raqobat* turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi mablag'lar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasayadi. Shuningdek, foyda me'yori ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda me'yori oshadi.

---

<sup>46</sup> Ergashxujayeva Sh.J. "Marketing" fani (ma'ruza matnlari).-Toshkent: TDIU, 2005, 183 bet.

Natijada tarmoqlararo raqobat ob'ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa yo'naltirilmasin, xuddi shu tarmoq foyda me'yorlarini o'rtacha foyda me'yoriga yaqinlashtiradi. Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

*Erkin raqobat* sharoitida tarmoqda bir xil maxsulot ishlab chiqaruvchi juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladi. Raqobatlashuvchi korxonalar bir xil yoki bir turdagi mahsulot ishlab chiqaradi. Narxlarning bir xil darajasida iste'molchiga qaysi sotuvchidan mahsulotni xarid qilish farqsiz bo'ladi.

*Erkin raqobatli bozorda* alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki, har bir korxonada umumiy ishlab chiqarishning uncha katta bo'lmagan xajmini beradi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

*Erkin raqobat sharoitida* yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lganlari esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarining paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga xuquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Erkin raqobat hozirgi o'tish davri iqtisodiyoti amaliyotida juda kam uchraydi. Ammo bir qator holatlar bu raqobat turining amal qilishini o'rganishni taqazo qiladi.

- ayrim tarmoqlar mavjudki, ular erkin raqobatli vaziyatga juda o'xshash, masalan, iqtisodiyotning qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi shaxsiy sektori, mahalliy hunarmandchilik sohalari va shu kabilar.

- erkin raqobatli vaziyat narxlarning tashkil topishi hajmini belgilash haqidagi har qanday munozara uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi;

- erkin raqobatli iqtisodiyotning amal qilishi real iqtisodiyot samaradorligini

baholashga namuna bo'lib xizmat kiladi.

*Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo'ladi:* tarmoq ichida ya'ni bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi raqobat va tarmoqlararo, ya'ni turli tarmokdagi korxonalar o'rtasidagi raqobat. Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasidan olib boriladi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi. Biroq tovar qiymatlari alohida mehnat sarfi bilan emas, balki ijtimoiy zaruriy mehnat sarfi bilan belgilanadi.

*Tarmoq ichidagi raqobat* tovarlarning ijtimoiy yoki bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat odatda o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnik darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

*Tarmoqlararo raqobat* turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yukori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. U foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishida ifodalanadi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Tegishlicha foyda normasi xam pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga talab ularni taklif qilishdan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi ham ko'payadi.

Natijada tarmoqlararo raqobat ob'ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishini ta'minlaydi. Tarmoqlararo raqobat

kapital qaysi tarmoqqa yo'naltirilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga "baravarlashtiradi". Bu kapital mablag'lar kam foyda keltiradigan tarmoqlardan oqib o'tishiga intilish natijasida sodir bo'ladi.

*Tarmoqlararo raqobat* tushunchasi boshqa hodisani, ya'ni bir xil o'xshash ehtiyojni qondira oladigan va shu sababli bozor iste'moli uchun raqobat qiladigan har xil tarmoq ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi kurashni xarakterlash uchun ham ishlatiladi.

Tarmoqlararo raqobat iqtisodiy resurslarni tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlab, ularning mahsulotiga talab yuqori bo'lgan sohalarga o'tishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotda tarmoqlararo raqobat ikki asosiy vazifani bajaradi.

- iste'molchilar talabiga mos ishlab chiqarish tarkibi va tizimi vujudga keladi. Bu shuning uchun sodir bo'ladiki, ishlab chiqaruvchilar talabning tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlanishiga tezda munosabat bildiradi;

- tarmoqlararo raqobat samaradorlikning bir qadar ijtimoiy zaruriy darajasini yaratadi, u foyda normasining o'rtacha darajasida ifodalanadi.

Samaradorlikning ushbu darajasi barcha ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarishni tashkil etishni va mahsulot sotishni doimo takomillashtirishga majbur kiladi. Raqobat sharoitida tovarlarning, kapital va ishchi kuchining erkin harakati yo'lidagi to'siqlar bartaraf qilinadi, yagona milliy va keyinchalik esa jahon bozori shakllanib boradi. Raqobat ishlab chiqarishga rag'bat beruvchi bosh dastakka aylanadi, iqtisodiy o'sish jadallashadi.

## **7.2. Raqobat ustunligini saqlab qolish uchun xujumkorlik strategiyasidan foydalanish**

Raqobat ustunligiga deyarli har doim muvaffaqiyatli xujumkor strategik harakatlar xisobiga erishiladi. Ustunlikka erishishni ta'minlash uchun muvaffaqiyatli xujumkor strategiyaga kancha vakt talab yetilishi tarmokdagi raqobat tavsifiga bog'lik. Ustunlikni ta'minlash vakti kiska bulishi, xizmat ko'rsatish soxasidagi kabi, murakkab texnologik jarayonli kapital talab etadigan tarmoklardagi kabi ancha davomli bulishi xam mumkin. Ideal darajada sozlangan harakatlar mikyosi ancha katta bo'lgan (masalan, yangi kimmatbaxo dorining patentiga farmasevtikada ega

bulish sezilarli ustunlikni ta'minlaydi) yoki uncha katta bulmagan (masalan, tikuvchilik sanoatida. Bunda kiyimlarning yangi modadagi fasonlari osongina uzlashtirilishi mumkin, nusxa kuchirish orkali) raqobat ustunligini yaratishi mumkin.

Muvaffakiyatli xujumdan sung «mevalarning samarasini» kurish davri keladi. Bu davrning davomiyligi esa rakiblarga yukotilgan pozitsiyalarni kaytarib olish uchun xujumga utishga kancha vakt kerak bulishiga boglikdir.

Rakiblar kompaniya yaratgan ustunlikka qarshi jiddiy qarshi xujum boshlashlari bilan uning yemirilishi boshlanadi. Egallangan mavkeini saklab kolish uchun kompaniya ikkinchi strategik xujumni amalga oshirishi kerak. Uning fundamentini esa raqobatchi ustunlikka erishish maksadida kurashni kuchaytirgan paytlarida xujumga utishga tayyor turish uchun «mevalarni samarasini» kurish davrida ko'rib kuyish kerak bo'ladi. Raqobat ustunligini saklab turish uchun kompaniya rakiblardan bir bosh baland bulishi kerak. Bozordagi uzining pozitsiyasini mustaxkamlash uchun ketma-ket strategik xujumlar uyushtirishi va xaridorlarning moyilligini saklab turishi lozim.

Xujumkor strategiyaning oltita asosiy turi ajratiladi:

1. Raqobatchining kuchli tomonlariga qarshilik ko'rsatish yoki ulardan o'zib ketishga qaratilgan harakatlar.
2. Raqobatchining zaif tomonlaridan foydalanishga qaratilgan harakatlar.
3. Bir nechta frontlarda bir vaqtda xujumga o'tish.
4. Egallanmagan bushliqlarni egallash.
5. Partizan urushi.
6. Zarbalar.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy mezoni sifatida korxonalarining raqobardoshligini oshirish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, korxonalarda marketing tadqiqotlarini o'tkazish muhim o'rin tutadi. Erkin yoki mutloq monopoliya bitta firma mahsulotning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanib, bu mahsulotning yaqin o'rnini bosuvchilari bo'lmasa mavjud bo'ladi. Erkin monopoliyaning o'ziga xos belgilari quyidagilar:

1. Tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot

(xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.

2. Mahsulotning yaqin o'rnini bosuvchilari yo'q bo'lishi sababli, iste'molchi monopolistdan mahsulotni sotib olishga majbur. Taklif qilinadigan mahsulot yoki xizmatning turiga qarab monopolist keng reklama bilan shug'ullanishi ham yoki shug'ullanmasligi ham mumkin. Masalan, brilliant kabi zebi-ziynat buyumlarini sotuvchi erkin monopolist o'z mahsulotiga talabni ko'paytirishga harakat qilib, keng reklamani amalga oshirishi mumkin. Boshqa tomondan, mahalliy kommunal xizmati idorasi reklamaga katta harajatlar qilishining hojati yo'q. Suv, gaz va elektr energiyaga zaruriyat sezgan mahalliy aholi, bu xizmat turlarini kimdan sotib olishni reklamasiz ham biladi.

3. Erkin monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi, taklifning umumiy xajmi ustidan nazorat qiladi.

4. Monopoliyaning mavjud bo'lishi tarmoqqa kirish uchun to'siqlarning mavjud bo'lishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy, texnik, huquqiy yoki boshqa to'siklar yangi raqobatchilarning tarmoqqa kirishiga yo'l qo'ymaydi. Tarmoqqa kirish uchun to'siklar har xil ko'rinishlarni oladi. Bular quyidagilar:

a) Ishlab chiqarish miqyosi taqozo qiladigan to'siqlar, shu jumladan, moliyaviy to'siqlar ko'p holatlarda shunchalik katta bo'ladiki bu tarmoqqa kirishni ta'qiqlash bilan barobar. Masalan, yirik ishlab chiqaruvchi hisoblangan avtomobil sanoatigakirish, yangi texnologiyaga asoslangan zarur uskunalarni sotib olishga juda katta pul- kapital talab qiladi.

b) Tabiiy monopoliyalar tabiati taqozo qiladigan to'siqlar. Buning mazmuni shundan iboratki, bir qancha tarmoqlarda raqobat mavjud bo'lmaydi, uni amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy foydalanishdagi bunday tarmoq korxonalari tabiiy monopoliyalar deyiladi. Tabiiy monopoliyalarga elektr, gaz va suv ta'minoti, kabelli televidenie va aloqa korxonalari misol bo'la oladi. Bu tarmoqlarga odatda davlat tomonidan cheksiz imtiyozlar beriladi. Shu sababli davlat bunday monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda o'z huquqini saqlab koladi. Agar tarmoqlar davlat

mulkchiligiga asoslangan bo'lsa, bunday ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar tartibga solinadigan yoki davlat tomonidan tuzilgan monopoliyalar deyiladi.

v) Patent va litsenziyalar kabi qonuniy to'siklar. Davlat patent va litsenziyalar berib tarmoqqa kirish uchun qonuniy to'siqlar xam yaratadi. Patentlar tadqiqotchiga mahsulotini to'liq nazorat qilish huquqini beradi. Patentlar albatta tadqiqotchi uchun amal kilib turgan davrdagina monopol holatni ta'minlaydi. Tarmoqqa kirish yoki faoliyat turi bilan shug'ullanish davlat tomonidan litsenziya berish yo'li bilan cheklanishi mumkin. Masalan, davlat miqyosida radio va televizion eshittirishlarga tegishli vazirlik litsenziya beradi. Yirik shaharlarda shaxsiy avtomobilidan taksi sifatida foydalanish uchun mahalliy hokimiyatdan litsenziya olish zarur. Taksi taklifini shu orqali cheklash taksi egalari va shofyorlarga monopol daromadni ta'minlaydi.

g) Xomashyoning muhim turlariga, xususiy mulkchilik monopoliyalar tomonidan potensial raqobatchlar uchun samarali to'siq yaratish vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur hisoblangan xomashyoga ega bo'lgan yoki uni nazorat qiluvchi firma, raqobatlashuvchi firmalarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

d) G'irrom raqobat. Firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, yetakchi mutaxassislarni og'dirib olish orqali bahoni keskin tushirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir. Real hayotda faqat erkin raqobat bo'lmagani kabi uning qarama-qarshisi faqat "erkin monopoliya" ham mavjud bo'lmaydi. Erkin raqobat va erkin monopoliya - bu bozorli vaziyatning ikki qutbini ifodalovchi nazariy abstrakt tushunchalar hisoblanadi.

#### *Oligopoliyaning asosiy belgilarini to'laroq qarab chiqamiz:*

1. Tarmoqda ko'p bo'lmagan korxonalarining mavjud bo'lishi oligopoliyaning eng muhim belgisi. Qachonki tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan ham sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, tarmoq oligopolistik hisoblanadi. Oligopolistik tarmoqdagi korxonalarining soni aniq belgilanmaydi. Chunki, bozorning oligopoliya modeli erkin monopoliya bilan monopolistik raqobat oralig'idagi katta

sohani qamrab oladi.

2. Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, ko'rg'oshin, temir va shu kabilar - fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvuvchi vositalar, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

3. Oligopoliya qanday usul bilan rivojlanishidan qat'iy nazar, ko'p bo'lmagan firmalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining baho siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi. Oligopolistik uchun narx o'rnatishda eng muhimi xarajatlar va talab haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

4. Ko'p bo'lmagan firmalarning umumiy o'zaro bog'liqlikda joylashishi yashirincha kelishishga qulaylik tug'diradi. Yashirincha kelishish baholarni qayd qilish, bozorni bo'lish yoki taqsimlash va boshqacha yo'llar bilan o'zlari o'rtasidagi raqobatni cheklashdan iborat. Yashirincha kelishish bir qator shakllarda bo'lishi mumkin. Uning eng oddiy shakli kartel bitimi hisoblanadi. Kartel bitimiga kirgan firmalar narxlar va ishlab chiqarish hajmini kelishib oladi. Kelishilgan narxni ushlab turish mumkin bo'lishi uchun ishlab chiqarish xajmi tartibga solinishi, ya'ni bozorga bo'lingan bo'lishi zarur.

5. Bahodagi rahnamolik yashirincha kelishishda ham o'z o'rmini tutadigan norasmiy vosita hisoblanadi. Bunda tarmoqdagi katta yoki ancha samarali firma narxni o'zgartirishi, boshqa firmalar esa uning orqasidan ergashishi mumkin.

6. Oligopolistik tarmoqda bozor ulushi odatda narxsiz raqobat asosida aniqlanadi. Oligopolistik narxsiz raqobatga asosiy o'rin beradi, chunki birinchidan, raqobatchilarga reklama va mahsulotni o'zgartirish ancha murakkab, ikkinchidan, oligopolistik kamdan kam holda narxsiz raqobatni moliyalashtirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'ladi.

Biz qarab chikkan raqobatning to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni erkin holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohasini batafsil

o'rganish, cheksiz ko'p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Shu sababli erkin raqobatli bozorning xarakterli belgilari bilan, erkin monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyaning xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib berish foydali. Bunday taqqoslashni yengillashtirish uchun bozorning keyingi uchta modelini bildirish uchun "takomillashmagan" yoki "nomukammal" raqobat degan umumiy nomdan foydalaniladi.

### **7.3. Raqobat ustunligini ximoya qilish uchun mudofaa strategiyalaridan foydalanish. Vertikal integrasiya strategiyasi**

Raqobat bozorlarida barcha kompaniyalar raqobatchilar uyushtiradigan xujumlarning ob'ektlari bulishi mumkin. Xujumlar xuddi yeski, amaldagi kompaniyalar tomonidan bo'lganidek, yangi kompaniyalar tomonidan bo'lganidek, yangi kompaniyalar tomonidan xam bulishi mumkin. Ximoyaviy strategiyaning maksadi xujumga uchrash xavfini kamaytirish yoki ularni eng kam yukotish bilan utkazib yuborish. Ximoya strategiyasi kompaniyaning raqobat ustunligini kuchaytirmasa xam, raqobat pozitsiyasi atrofida mudofaa inshootlarini tashkil etish va raqobat ustunligini saklab kolish imkonini beradi.

Raqobat ustunligini ximoya qilishning bir kancha yullari mavjud. Ulardan biri - raqobatchilarning sozlangan harakatlarni boshlashlari uchun xalal berish. Bunday yondoshuv kuyidagi asosiy kadamlarni kuzda tutadi:

1. Bush bozor uyalarini tuldirish uchun maxsulot nomenklaturasini kengaytirish.

2. Raqobatchilar ega bo'lgan yoki ega bulishi mumkin bo'lgan modellar va maxsulotlar sortlarini ishlab chiqish.

3. Pastrok narxlarda raqobatchilarning maxsulotlariga yakin modellarni taklif etish.

4. Raqobatchilarni vositachi va distribbyuterlarning taksimlash tarmogidan sikib chikarish uchun ular bilan shartnomalar imzolash.

5. Vositachilar va distribbyuterlar boshka ta'minotchilar bilan aloka

boglashlariga xalal berish uchun ularga sezilarli skidkalarini kafolatlash.

6. Iste'molchilarni bepul yoki past narxlarda ukitishni taklif etish.

7. O'z maxsulotiga iste'molchilar talabini saqlab kolish uchun choralar ko'rish.

8. Kreditga sotish xajmlarini oshirish.

9. Butlovchi qismlar yetkazib berish vaktini qisqartirish.

10. Muqobil texnologiyalarni patentlash.

11. Xususiy nou-xaularni ximoyalash.

12. Eng yaxshi ta'minotchilar bilan yetksklyuziv kontraktlar imzolash.

13. Raqobatchilarni yakinlashtirmaslik uchun xom ashyolarni katta xajmlarda sotib olish.

14. Raqobatchilar bilan ishlaydigan ta'minotchilardan voz kechish.

15. Tovarlar va raqobatchilar harakatlarni doimo nazorat qilib turish.

Ximoyaviy strategiyaga bo'lgan ikkinchi yondoshuv raqobatchilarga ularning harakatlari javobsiz kolmasligi va kompaniya xujumiga tayyor ekanligini yetkazib turishdan iborat.

Raqobatchilarning xujumkor harakatlariga qarshilik ko'rsatishning boshka yuli raqobatchilarni uziga jalb etadigan va ularni xujumkor harakatlarga undaydigan foydani kamaytirishga urinishdan iborat.

Kompaniyaning foydaliligi kanchalar yuqori bo'lsa, bu boshkalar uchun uziga jalb etadigan «xurak» vazifasini utaydi va xujumkor harakatlar qilish istagini tugdiradi. Bunday sharoitda kompaniya xisob mexanizmlari yordamida ximoyalanishi mumkin.

Kompaniya mablaglarini vertikal integrasiyaga investitsiya qilishning asosiy sababi uning raqobat pozitsiyasini kuchayishidir. Agar vertikal integrasiya kompaniya xarajatiarini sezilarli darajada pasayishiga yoki kushimcha raqobat ustunligiga erishishga olib kelmas ekan, u strategik xisoblanmaydi va unga mablag sarflashning foydasi yuk.

«Orqaga» integrasiya shundagina xarajatlarni pasayishiga olib keladiki, unda

ishlab chikarishning talab yetiladigan xajmi shu darajada yuqori bo'ladiki, u xuddi ta'minotchilardagi kabi ishlab chikarish miqyoslarida shunday tejamkorlikni ta'minlaydi.

«Oldinga» vertikal integrasiya xam ana shunday ildizlarga ega.

Vertikal integrasiyaning kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

1. Integrallashgan kompaniyalar yangi texnologiyalarga sekin kunikish tendensiyasiga ega bo'ladilar, chunki bu katta xarajatlar bilan boglik.

2. Integrasiya ta'minotchilarni yerkin tanlash xususida kompaniyaning imkoniyatlarini cheklaydi.

3. Vertikal integrasiya kadriyatlar zanjiridagi har bir boskichda kuvvatlarni balansligi bilan boglik bo'lgan muammolarga olib keladi.

4. «Oldingi» yoki «orkaga» integrasiya turli malaka, maxorat va ishbop kobiliyatlarini talab etadi.

Shunday qilib, vertikal integrasiya strategiyasining xam kuchli, xam kuchsiz tomonlari bulishi mumkin. Integrasiyaning kandy yunalish va kandy miqyoslarini tanlash quyidagilarga boglik:

1. Integrasiya kompaniyaning strategik jixatdan muhim bo'lgan ish soxalari xarajatlarini pasaytirish yoki tabaqalashtirishni chuqurlashtirish tomoniga yaxshilashga kodirmi?

2. Kapital xarajatlar, javobiy reaksiyaning chapdastligi va tezligiga, ma'muriy xarajatlarga kandy ta'sir ko'rsatadi?

3. Raqobat ustunligini yaratishga kodirmi?

Nazorat savollari:

1. Raqobat strategiyalarining turlari.

2. Xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyasi qandy vaziyatda qo'llaniladi?

3. Tabaqalashtirish strategiyasi qachon qo'llaniladi?

4. Xujumkorlik strategiyasining turlari.

5. Raqiblar xujumini oldini olish uchun nimalar qilinadi?

6. Raqobat ustunligini himoyalash yo'llari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risidagi Qonuni". //Xalq so'zi, 2012-yil, 6 yanvar.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 - jild. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil. 17 - bet.
3. Ergashxujaeva Sh.J. "Marketing" fani (ma'ruza matnlari).-Toshkent: TDIU, 2005, 183 bet.
4. Калка Регина, Мёссен Андреа. Маркетинг. Карманное пособие: Пер. с нем.-М.: Финансы и статистика, 2003.-160 с.
5. В.П. Багов. Корпоративный менеджмент-М.: Изд-во РЕА, 1999. 246 с.
6. Ламбен Ж.Ж. Стратегический маркетинг. М.: Прогресс, 2008, 164-бет.
7. <https://www.gd.ru/articles/10374-strategicheskiy-analiz>
8. <https://aggregator-mlm.ru/uz/4-swot-analiz-swot-analiz>

Strateg kompaniya hukumat yoki strategiyalashning har qanday ob'ektini o'tmishdan kelajakka yetaklovchi navigator sifatida amal qiladi, bunda prognozlardan foydalanadi, bashorat qilish va strategiyalashni amalga oshiradi, kelajakning salohiyatli tahdidlari va to'siqlariga javob qaytaradi, imkon qadar ulardan saqlanadi.

*V.L.Kvint*

---

## **8-BOB. MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH**

---

REJA:

- 8.1.Faoliyat yo'nalishi portfelining imkoniyatlarini tahlil qilish.
- 8.2. Rivojlanishning asosiy strategiyalari.
- 8.3.O'sish strategiyalari.
- 8.4.Raqobatchilik strategiyasi.

*Tayanch so'zlar: "o'sish-bozor ulushi" matritsasi, tovar bozorlarining tipologiyasi, BKG matritsasi, intensiv o'sish strategiyasi, bozorga kirib borish strategiyalari, progressiv integratsiya, gorizontal integratsiya, diversifikatsion o'sish.*

### **8.1.Faoliyat yo'nalishi portfelining imkoniyatlarini tahlil qilish**

Portfel tahlili strategik marketing jarayonlarini aniqlashtirish va yakunlanishidir. Qaysi usul qo'llanishidan qat'iy nazar tahlil quyidagilarga asoslanadi:

- tovar bozori yoki segmentlar bo'yicha faoliyat yo'nalishini aniq taqsimlanishi;
- turli yo'nalishdagi strategik qadriyatni solishtirishga olib keluvchi jalb etuvchanlik va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari;
- strategik holat bilan iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalar (ayniqsa BKG uslubida).

O'z portfelini tahlil qilish ko'p yo'nalishli firmaga cheklangan resurslarni o'zi faoliyat olib borayotgan turli bozorlar o'rtasida taqsimlashda yordam beradi. Umuman olganda, vazifa har bir ko'rib chiqilayotgan tovar bozorini ikki mustaqil mezon bo'yicha: asosiy bozorning jalb qiluvchanligi va firmaning raqobatchilik kuchi bo'yicha tasniflashdan iboratdir.

Bu maqsad uchun tahlilning matritsalar qo'llaniladigan, jalb qiluvchanlik va raqobatbardoshlikning turli xil ko'rsatkichlaridan foydalaniladigan turli usullari ishlab chiqilgan. Biz ikki eng ommabop usulni ko'rib chiqish bilan kifoyalanamiz: bu Boston konsalting guruhining (BKG) «o'sish-bozor ulushi matritsasi» deb ataluvchi usuli va «Djeneral elektrik» va «MakKinzi» firmalarining «jalb qiluvchanlik-raqobatbardoshlik matritsasi» usulidir. Bu usullar o'xshash bo'lsa ham, ular turli sabablarga asoslangan va u yoki bu usulning tanlanishi olinadigan natijalarga bog'liqdir.

«O'sish-bozor ulushi» matritsasi. BKG matritsasi ikki mezon bilan foydalaniladi: birinchi mezon jalb qiluvchanlik indikatorining sifatidagi maqsadli segmentning o'sish sur'ati bo'lsa, ikkinchisi raqobatbardoshlik indikatorining sifatidagi eng xavfli raqobatchiga nisbatan bozor ulushidir. Bunda bo'lish chiziqlari bilan to'rt kvadrantga ajratilgan ikki kirishli jadval hosil bo'ladi.

Birinchi, o'sish sur'atlari yuqori va past bo'lgan bozorlarni ajratib turuvchi asosiy chiziq «bozorning o'sishi» o'qiga nisbatan yalpi milliy mahsulotning natural ko'rsatkichlardagi o'sish sur'atiga yoki firma faoliyat ko'rsatayotgan turli segmentlardagi o'sish sur'atlarining o'rtacha qiymatiga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan esa, «bozor ulushi» o'qi uchun ajratish chizig'i odatda 1 yoki 1,5 nuqtalari orqali o'tkaziladi. Bozor ulushi bu ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, katta, aks holda esa kichik hisoblanadi.

Matritsa shu tarzda avval kiritilgan bozorning nisbiy ulushi tushunchasidan kelib chiqadi, bu tushuncha eng xavfli raqobatchi egallab turgan bozor ulushiga nisbatan aniqlanadi.

Agar A markaga bozorning 10 % qismi tegishli bo'lsa va unda eng yirik raqobatchi (B marka) 20 %lik ulushga ega bo'lsa, A markaning nisbiy ulushi 0,5 ga (10% 20%) teng bo'ladi. Bu kichik bozor ulushidir, chunki u 1 dan kichikdir. B marka uchun esa tegishli ulush 2 ga teng (20% 10%).

Nisbiy bozor ulushi tushunchasiga murojaat qilinishi bozor ulushi bilan tajriba o'rtasida va, demakki, rentabellik o'rtasida musbat korrelyatsiyaning mavjudligi haqidagi gipotezaga asoslangan. Bu nuqtai nazardan qaraganda, bozordagi eng yaqin

raqobatchi 40 yoki 5 %lik ulushga bo'lganda 20 %lik ulushga ega bo'lish mutlaqo turli xil raqobatli vaziyatlarga to'g'ri keladi.

Demak, to'rtta kvadrantning har biri bir-biridan tubdan farq qiluvchi vaziyatni anglatib, bu vaziyatlarning har biri moliya bilan ta'minlash va marketing strategiyasini ishlab chiqish nuqtai nazaridan alohida yondashuvni talab qiladi.

**Tovar bozorlarining tipologiyasi.** Ikkala gipoteza ham to'g'ri bo'lgan hollarda tovar bozorlarining turli ustuvor strategik maqsadlar va moliyaviy ehtiyojlarga mos keluvchi to'rt guruhini ajratish mumkin.

–«Sog'in sigirlar» (sekin o'sish yuqori ulush): bozor ulushini qo'lda tutib turish uchun talab qilinadigan miqdordan ko'proq mablag' keltirishi mumkin bo'lgan tovarlar. Ular diversifikatsiya yoki tadqiqotlarni rivojlantirishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'larning manbalari hisoblanadi. Bu yerda ustuvor strategik maqsad «hosilni yig'ib olish»dan iborat bo'ladi.

–«Itlar» (sekin o'sish kichik ulush): bozordagi eng ko'ngilsiz pozitsiya. Odatda harajatlar jihatdan yomon ahvolda bo'ladilar va shuning uchun bozor ulushining ko'payish ehtimoli kam bo'ladi, buning ustiga bozordagi kurash asosan yakunlangan bo'ladi. Odatda bunday tovarlarning saqlab turilishi katta moliyaviy sarf-harajatlarga olib kelib, ahvolning yaxshilanish ehtimoli kam bo'ladi. Bu holatdagi ustuvor strategiya qayta investitsiyalash va kamharajatlilikdir.

–«So'roq belgilari» (tezkor o'sish kichik ulush): bu guruhdagi tovarlar o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun katta mablag'lar talab qiladi. Ularning ahvoli peshqadamga qaraganda unchalik yaxshi bo'lmasa ham, ularda ma'lum darajada muvaffaqiyat qozonish ehtimoli bor, chunki bozor hali kengayib bormoqda. Bu tovarlarga moliyaviy yordam ko'rsatib turilmasa, ular hayot sikli bo'ylab harakatlanish davomida «itlar»ga aylanib boradi. Shuning uchun bu yerda muqobil variant bor: bozor ulushini oshirish yoki qayta investitsiyalash.

–«Yulduzlar» (tezkor o'sish yuqori ulush): tezkor o'sib borayotgan bozordagi peshqadam tovarlar. Bu tovarlar ham o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun katta mablag'larni talab qiladi. ammo bunday tovarlar raqobatbardosh bo'lganligi tufayli katta daromad keltiradi; bozor yetilib borgan sari avvalgi «sog'in sigirlar»ning o'rmini

egallaydi.

Punktir chiziqlar - ushbu obyektning harajatlarini anglatadi.

To'g'ri chiziqlar - "sog'in sigirlar" dan tushgan mablag'larni taqsimlash yo'nalishini belgilaydi.

Kelgusida BKG matritsasini qo'llash ko'lami bir muncha kengayadi. U bir tarmoqda raqobatda bo'lgan firmalar mavqeini tahlil qilishda qo'llana boshladi. Bundan tashqari, "yovvoyi mushuklar" guruhiga kiruvchi raqobatchilarni "so'roq" yoki bo'lmasa "murakkab go'dak" tarzida ham ifodalash ko'pgina chet el adabiyotida uchraydi. Ba'zi adabiyotlarda esa gorizontol o'qlarning joylashuvi chapdan o'ngga qarab o'sib borish tartibida tasvirlanadi. Shu tufayli ushbu BKG matritsasining bir muncha takomillashgan tasvirda uchrashiga ijobiy yondashish kerak.

Demak, keltirilgan BKG matritsasi yordamida 2 vazifani hal yetish mumkin:

- 1) bozordagi mavqe xususida qaror qabul qilish;
- 2) SXZ ni kegusida moliyaviy ta'minlash xususida axborot olish.

Shu bilan birga, BKG matritsasidan foydalanishda ayrim kamchiliklar ham mavjud.

Jumladan, nobarqarorlikni nazarda tutish mumkinligi, har bir SXZ uchun mahsulot va texnologiyalarning hayotiy davrlarni hisobga olish qiyinligi. Demak,

**BKG matritsasi** - agar kelgusida o'sish sur'atlari ishonchli o'lchov vositasi bo'lsa va raqobatda bozor ulushiga asoslanib mavqeini aniqlash imkoni bo'lsada uni qo'llash samarali hisoblanadi.

**SXZ** - tashqi muhit sharoitlariga moslashish, kelgusi bozor va talab ko'lami o'zgarishlarini inobatga olish va firma ravnaqi uchun samarali bo'lgan strategiyani amalga oshiruvchi tayinli strategik vazifalarni hal etuvchi bo'linma.

**SXM** - firma ichki muhitida barcha vakolat va mas'uliyat bilan ta'minlangan tashkiliy tuzilma.

Strategiyani amalga oshirish dastaklari o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi yalpi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Strategik rejani aniqlashda uning maqsadi, uslubi, taktik o'zgartirishlar, tadbirlar yetakchi o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan strategik rejalashtirish jarayonini keng ko'lamda ko'rib chiqamiz.

Strategiyani amalga oshirishda qo'llaniladigan dastaklarni quyidagi tizimda ifodalash mumkin: tashkiliy konsepsiya, taktika, siyosat, tadbirlar, qoidalar va huquqiy asoslar.

Agar amaldagi va kelgusidagi raqobat o'ta murakkab bo'lsa, bu ikki o'lchamli matritsada imkoni boricha nisbatan barqaror ko'rsatkichlarni ifodalash zarurati vujudga keladi.

Bir muncha farqli baholash uslubini "Djeneral Elektrik" - "Makkinzi" matritsasida ko'rishimiz mumkin. "D.E.-M" korporatsiyalari taklif etgan matritsa vertikal va gorizontal o'qlarda mos ravishda SXZ jalb etuvchanligi - raqobatda firma portsiyasi belgilangan.

Ushbu matritsaning afzalligi - keltirilgan ko'rsatkichlarning talab va texnologiyani barcha hayotiy davrida va turli raqobat intensivligida qo'llash mumkinligidadir. Matritsani to'ldirishda foydalaniladigan ko'rsatkichlarni aniqlash uslubi xuddi BKG matritsasidek qo'llanadi. Lekin ushbu matritsa uchun zarur bo'lgan firmaning raqobatchilik mavqei hamda SXZ jalb etuvchanligini miqdoriy jihatdan hisoblashda bir muncha mushkullik mavjud. Jumladan, hisob-kitobning murakkabligi.

Shu bilan birga ushbu matritsadan foydalanishda ayrim cheklanishlar mavjud:

- strategik tanlovni firma dastavval istiqbolni oldindan tasavvur etib baholash va bunda yangi talab, yangi mahsulot, yangi texnologiya kabi omillarning yetarlicha nazarga olinmasligi;

- uslubda qo'llanadigan noaniqliklar va oldindan ko'ra bilmaslik darajasining yuqoriligi;

SXZ taqdirini hal yetish uchun axborotlarning kamligi va boshqaruv xodimlarining qaror qabul qilishning mushkulligi.

Demak, yuqorida keltirilgan matritsalaridagi eng sezilarli kamchilik ularning hayotiy davr mobaynida SXZ o'sishi va o'zgarish tendensiyalarini inobatga olish imkonining yo'qligidir. Ushbu kamchiliklarni hayotiy davr balansi matritsasida hal etsa bo'ladi.

Har qanday biznesni (faoliyat turi) shu ko'rinishdagi matritsaga solish

mumkin. Uning ko'lamini yuzasining maydoni savdo yoki tushum hajmiga mutanosib bo'lgan doira bilan belgilash mumkin. Tahlilni dinamik rejimda, har bir biznesning vaqt davomida rivojlanishini kuzatib borgan holda o'tkazish kerak.

## **8.2. Rivojlanishning asosiy strategiyalari**

O'sish strategiyasini ishlab chiqishning birinchi bosqichi egallab turilgan raqobatli ustunlikning tabiatini aniqlab olishdan iborat bo'lib, bu ustunlik kelgusidagi strategik va taktik qadamlar uchun asos bo'lib qoladi.

Yuqorida raqobatli ustunlikni ikki xil o'lchash orqali: «unumdorlik» (harajatlar bo'yicha ustunlik) va «bozor kuchi» (maqbul maksimal sotish narxiga nisbatan ustunlik) bo'yicha aniqlash mumkinligi ko'rsatilgan edi. Firmaning xususiyatlari, uning kuchli va kuchsiz tomonlari hamda uning raqobatchilarini hisobga olgan holda qaysi ustunlikni tanlash kerak? degan savol tug'iladi. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir tovar bozorida qaysi ustunlikni himoya qilish osonroq?

Bunday ustunlikni aniqlab olish uchun raqobatli vaziyatni tahlil qilib chiqib, quyidagi savollarga javob berish lozim:

-ko'rib chiqilayotgan tovar bozori yoki segmentda muvaffaqiyatning hal qiluvchi omillari qaysilar?

-mana shu hal qiluvchi omillar nuqtai nazaridan eng xavfli raqobatchining qanday kuchli va kuchsiz tomonlari bor?

Firma bu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda: (a) qaysi raqobatli ustunlikka nisbatan eng yaxshi pozitsiyada ekanligini aniqlab olishi; (b) muayyan sohada bunday ustunlikka erishishga qaror qilish; (v) o'z raqiblarning raqobatli ustunligini bartaraf yetishga urinishi mumkin.

Shunday qilib, tanlanadigan asosiy strategiyalar bir-biridan qaysi ustunlikka tayanishi bilan farq qiladi. Porterning fikricha, faqat uchta asosiy raqobatli strategiya mavjud bo'lib, ular o'zining maqsadli bozori bilan (butun bozor yoki uning ma'lum bir segmenti) va amalga oshirilayotgan raqobatli ustunlik turi bilan (harajatlar yoki tovarning ustun sifatleri bo'yicha) farq qiladi.

Harajatlarni iqtisod qilish hisobiga liderlik strategiyasi markazida raqobatchiga

nisbatan past harajat bo'ladi. U doimiy harajatlarni nazorat qilishni, ishlab chiqarishga investitsiya. yangi texnologiya konstruksiyalari ustida yaxshilab ishlashni, savdo harajatlarini kamaytirishni nazarda tutadi.

Asosiy strategiya uchinchi - maxsuslashtirish strategiyasi, ya'ni konsentratsiya bir segment yoki haridorlarning raqobatchi guruhlarini bozorni harakatsiz egallab olishdir. Maqsad bu yerda tanlangan maqsadli segmentni raqobatchiga nisbatan ehtiyojini qondirishdir. Bu strategiya differensiativada ham, harajatni iqtisod qilishda ham bo'ladi, bunda faqat maqsadli segment doirasida bo'ladi. Harajatlarni iqtisod qilish hisobiga liderlik strategiyasi. Bu strategiyani markaz e'tiborida - raqobatchiga nisbatan kam harajatlar asosiy o'rinda turadi. Harajat munosabatiga afvzalliklar 5 ta raqobatli kuchga qarshi samarali himoyani tashkil etadi:

- firma o'zini to'g'ri raqobatchisi bilan narx jangida ham qarama-qarshi turishga loyiq va narxda foyda olishga ega;

- kuchli mijozlar kuchli raqobatchi uchun darajasidan narxni pasayishiga erisha olmaydi;

- past harajatlar kuchli ta'minotchilarga qarshi himoyani ta'minlaydi;

- past harajatlar yangi raqobatchilar uchun kirish to'siqlarini tashkil qiladi va bir vaqtning o'zida tovar-o'rinbosarlarga qarshi yaxshi himoya tashkil qiladi. Barcha strategiyalar markaz e'tiborida raqobatchilar bilan solishtirganda past harajatlar bo'ladi.

### **8.3.O'sish strategiyalari**

Ko'pchilik firmalarning strategiyalari o'sish maqsadlarini: savdo hajmining, bozor ulushining, firma daromadining yoki o'lchamining o'sishini ko'zda tutadi. O'sish firmaning faoliyatiga ta'sir qiluvchi, tashabbusini rag'batlantiruvchi hamda firma jamoasi va rahbariyatining motivatsiyasini kuchaytiruvchi omildir.

O'sish maqsadlari uchta turli xil darajada ifodalagan:

- asosiy bozorga nisbatan o'sish; biz buni intensiv o'sish deb ataymiz;

- ishlab chiqarish zanjiriga nisbatan o'sish - asosiy faoliyatga nisbatan «olg'a» yoki «orqaga» integratsiyalanish; bu integrativ o'sishdir.

Bu o'sish maqsadlarining har biriga mumkin bo'lgan strategiyalarning ma'lum

bir soni to'g'ri keladi. Ularning turlari quyida keltirilgan.

**Intensiv o'sish strategiyasi** firma o'zi faoliyat ko'rsatayotgan bozorlardagi tovarlari bilan bog'liq barcha imkoniyatlardan foydalanib bo'lmaguncha dolzarb bo'lib qolaveradi. Bunday holatda quyidagi muqobil variantlar bor.

**Bozorga kirib borish strategiyalari.** Kirib borish strategiyalari doirasida mavjud bozorlarda tovarlar savdosining hajmini oshirishga urinib ko'rish lozim. Bunga bir necha xil yo'l bilan erishish mumkin.

**Birlamchi talabni rivojlantirish:** global talabning tarkibiy qismlari ta'sir ko'rsatib, quyidagi usullar bilan bozorning hajmini oshirish:

- tovar yordamida yangi foydalanuvchilarni jalb qilish;
- haridorlarni tovardan tez-tez foydalanishga undash;
- haridorlarni kattaroq miqdorda bir martalik ist e'mol qilishga undash;
- yangi foydalanish imkoniyatlarini topish.

Bunday strategiya bozorning kengayishidan hammadan ko'proq manfaatdor bo'lgan peshqadam firmaga xosdir.

**Bozordagi o'z ulushini oshirish:** tovarlarni o'tkazish bo'yicha faol xatti-harakatlar orqali raqobatchi firmalarning sobiq mijozlarini jalb qilish, masalan: sotilayotgan tovar yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarni yaxshilash; marketing pozitsiyasini o'zgartirish; narxni sezilarli kamaytirishga jur'at yetish; sotish tarmog'ini mustahkamlash; sotishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bunday xatti-harakatlar birlamchi talab kengaymadigan bo'lib qolgan, ya'ni tovar hayot siklining yetuklik bosqichida bo'lgan bozorlarga xosdir.

**Bozorlarni quyidagi yo'llar bilan sotib olish:**

- raqobatchi firmani uning bozordagi ulushini qo'lga kiritish maqsadida sotib olish;
- bozordagi katta ulushni nazorat qilish maqsadida qo'shma korxonani tashkil qilish.

Bozordagi o'z mavqegini himoya qilish (mijozlar bilan aloqa, sotish tarmog'i, imij): shu maqsadda operatsion marketingni faollashtirish, masalan:

- tovar yoki uning pozitsiyasini birmuncha yaxshilash;

-narxni shakllantirishning mudofaa strategiyasi;

-sotish tarmog'ini mustahkamlash;

-sotishni rag'batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirish yoki qayta yo'naltirish.

**Bozorni ratsionallashtirish:** harajatlarni kamaytirish yoki operatsion marketing samaradorligini oshirish maqsadida xizmat ko'rsatilayotgan bozorlarni qayta tashkil qilish. Masalan:

-eng rentabelli segmentlarga e'tiborni jamlash;

-eng samarali distributorlarga murojaat qilish;

-eng kam buyurtma hajmini belgilab, mijozlar sonini kamaytirish;

-ba'zi segmentlardan ketish.

**Bozorni tashkil qilish:** iqtisodiy s ektorning samaradorlik darajasiga qonunchilikda ruxsat berilgan darajada ta'sir ko'rsatish.

Masalan:

1) boshqaruv organlarining yordamidan foydalangan holda tegishli tarmoqdagi raqobatchilik kurashi qoidalarini o'rnatish;

2) professional tashkilotlar tashkil qilish (masalan, bozor haqidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun);

3) ishlab chiqarishni qisqartirish yoki barqarorlashtirish to'g'risida bitim tuzish.

Bu so'nggi uch strategiya ko'proq mudofaa harakteriga ega bo'lib, ularning maqsadi bozorga kirib borish darajasini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Integratsion o'sish tegishli firmaning faoliyat doirasi egallab turgan tarmoqda yetarlicha mustahkam bo'lganda, aynan o'sha tarmoq miqyosida rivojlanish yo'llarini nazarda tutadi.

**Xususan, regressiv integratsiya** - firmaning ta'minotchilarini turli uslublar bilan nazoratga olishi yoki ularga nisbatan mustahkamroq mavqe'ga ega bo'lishi uchun qiladigan urinishlar tushuniladi. Masalan, poligrafiya kompaniyasining selluloza ishlab chiqaruvchi ta'minotchi kompaniyaning 50 % aksiyalarini sotib olishi va uning ustidan moliyaviy nazoratni o'natishi.

**Progressiv integratsiya** esa tegishli firmaning taqsimot tizimi ustidan

mustahkam mavqega ega bo'lishi, nazorat yetishi tushuniladi. Masalan, qandolatlar ishlab chiqaruvchi kompaniyaning barcha mintaqalarda o'zining ulgurji kompaniyalarini barpo yetishi yoki qandolatlar bilan savdo qiluvchi maxsus chakana savdo shahobchalarini ochishi.

**Gorizontal integratsiya** - tegishli firmani raqobatchi korxonalar ustidan yuqori mavqega ega bo'lishi, nazorat yetishi borasidagi urinishlari tushuniladi. Masalan, bir bozorda tayinli tovar guruhi bo'yicha raqobatlashayotgan A firmaning tur raqobatchisi bo'lgan V firmaning sotuvga qo'yilgan ortiqcha quvvatlarini sotib olishi va unga nisbatan o'z mavqeini mustahkamlashi.

**Diversifikatsion o'sish** - tegishli firmani o'zi faoliyat ko'rsatayotgan tarmoq imkoniyatlariga nisbatan boshqa tarmoq yo'nalishida rivojlanishi samarali yoki maqsadga muvofiq bo'lgan holda belgilanadi. Lekin, buning uchun tegishli firma o'zga tarmoqda rivojlanishi uchun to'plagan tajribasi, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar asosida mavjud kamchiliklarni bartaraf yetish, dastlabki tarmoq bo'yicha ixtisoslashuvini o'zgartirish yo'llari va imkoniyatlarini baholagan bo'lishi shart. O'z navbatida diversifikatsion o'sish quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

a) **konsentrik diversifikatsiya** - firmaning o'z mahsulotlari ko'lamini malting nuqtai nazaridan safdosh, to'ldiruvchi mahsulotlar bilan boyitishi borasidagi urinishlarini anglatadi: masalan, faqat kitoblarni chop yetish bilan shug'ullanuvchi kompaniyaning jumallarini chop yetishni ham yo'lga qo'yishdi;

b) **gorizontal diversifikatsiya** - tegishli firma mahsulotlari assortimenti nuqtai nazaridan o'xshash bo'lmagan, ammo o'zaro bog'liq bo'lgan mahsulotlar bilan boyitish borasidagi urinishlari tushuniladi; masalan: musiqa asboblari ishlab chiqaruvchi kompaniyaning bolalar uchun musiqa maktabini tashkil yetishi;

v) **onglomerat diversifikatsiya** - firmaning mahsulot ko'lamini texnologik, iste'mol, jihatdan umuman bog'liq bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarishga, sotishiga taalluqli bo'lgan urinishlar tushuniladi. masalan, farmatsevtik kompaniyaning kompyuter dasturlari ishlab chiqish yo'nalishi bo'yicha rivojlanish xatti-harakatlari.

Firmalar o'sish yo'nalishlari aynan bir yo'nalishda amaliyotda namoyon

bo'lmaydi, ayrim SXZ uchun turlicha tarzda va ko'lamda belgilanadi. Masalan, Germaniyaning BASF kompaniyasi nafaqat kino va fotografiya uchun mahsulotlar ishlab chiqaradi, balki qishloq xo'jaligi uchun mineral moddalar ham ishlab chiqaradi va ularning tarkibini takomillashtirish bo'yicha izlanishlarni tashkil etadi. Bunga yana yorqin misol bo'lib yirik yapon firmalarini keltirish mumkin. Jumladan, **Mitsubisi, Toyota, Nissan** firmalari bir-biriga texnologik va iste'mol jihatidan ham umuman bog'liq bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va ilmiy izlanish ishlarini amalga oshiradilar. Bunga asosiy sabablardan biri ushbu firmalarning tegishli sohalar va yo'nalishlar bo'yicha yetarli tajriba to'plaganligi, firma salohiyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha yuksak ahamiyat berganidir. Demak, istiqbolni yanada keng imkoniyatli faoliyat masshtabiga aylantirish uchun mumkin qadar diversifikatsiya yo'nalishida rivojlanishni tashkil yetish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **8.4.Raqobatchilik strategiyasi**

F. Kotler firmaning bozordagi ulushidan kelib chiqqan holda raqobatchilik strategiyasini 4 ta turga ajratib ko'rsatadi:

1. **Lider strategiyasi.**
2. **"Kurashga chaqiruvchi" strategiya.**
3. **"Lider orqasidan boruvchi" strategiya.**
4. **Mutaxassis strategiyasi.**

Odatda lider bu asosiy bozorni rivojlantirishga katta hissa qo'shuvchi firmadir. Liderning javobgarligini aniqlovchi eng tabiiy strategiya bo'lib, yangi iste'molchilarni egallashga, mavjud tovarlarni qo'llashda yangi tashviqotga yoki tovarlarni bir marta iste'molini o'stirishga yo'naltirilgan global talabni kengaytirish strategiyasi bo'lib hisoblanadi.

**Mudofaa strategiyasi** bozor liderining strategiyasi bo'lib, u orqali korxonada bozorda raqobat kurashida qo'lga kiritgan yutuqlarini, pozitsiyalarini (masalan, bozorda katta ulushni saqlab qolish, mahsulot markasini obro'sini ko'tarish, tovar harakati kanallarini ustidan nazoratni saqlab qolish)ga intiladi. Mudofaa strategiyasi bozor sardori tomonidan o'zining biznesini raqobatchilar tajovuzidan doimo himoya

qilish maqsadida tanlanadigan strategiyadir. Mudofaa strategiyasining quyidagi turlari mavjuddir: pozitsiyali mudofaa, qanot mudofaasi, mudofaa qayta hujumga o'tish yo'li bilan, mobil mudofaa va qisilib qolayotgan mudofaa. Hujum strategiyasini qo'llash natijasida firma bozorda o'z ulushini oshirishga harakat qiladi. Bundan maqsad tajriba samarasini keng ishlatish hisobiga rentabellikni oshirishdan iboratdir. Demarketing strategiyasi esa bozor liderining to'rtinchi strategiyasi bo'lib, lider firma monopolizmga ayblanishdan qochish uchun bozordagi o'z ulushini qisqartirishni ko'rib chiqishi mumkin. Unga erishish yo'llarini bittasi ko'rsatilayotgan hizmatlarni, reklama va talabni rag'batlantirish maqsadida qisqartirish, ayrim segmentlarda narxni oshirish hisobiga talab darajasini pasaytirish maqsadida demarketing tamoyillarini qo'llash hisoblanadi.

**“Kurashga chaqiruvchi” strategiyasining maqsadi - lider o'rnini egallashdir.** Bu yerda 2 ta muammo muhim hisoblanadi:

1. Liderga hujum qilish uchun vaziyatni tanlash.
2. Uning imkoniyatlarini va himoyasini baholash.

Vaziyatni tanlashda front bo'yicha hujum yoki qanot hujumi muqobillari hisobga olinadi.

**Hujum strategiyasi raqobat strategiyasi bo'lib, u bozor da'vogari tomonidan sotuv bozorlarini egallash kurashida qo'llaniladi.**

Front bo'yicha hujum raqobatchi korxonaning kuchsiz tomonlaridan kura kuchli tomonlaridan ustun kelish bo'yicha faol harakatlar orqali uning pozitsiyasiga ( mahsulotlar, reklama, narxlar va boshqalar bo'yicha) hujum qilish tushuniladi. Uni amalga oshirish uchun korxonaga raqobatchiga nisbatan ko'p resurslarga ega bo'lishi hamda uzoq muddatli "jang harakatlari"ni olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

**Qanot hujumi raqobatchilar faoliyatini kuchsiz joylariga yo'naltirilgan bo'lib,** bu joylarda ustunlikka erishish uchun asosiy kuchlar tashlanadi; u shunga asoslanganki raqobatchi ko'pincha o'z resurslarining eng kuchli pozitsiyalarini saqlab qolish uchun yo'naltiradi, masalan sifati bo'yicha sardorlik (liderlik) pozitsiyasini saqlab turishi mumkin, ayni vaqtda esa o'z faoliyatida kuchsiz joylarga ega bo'lishi mumkin, masalan vositachilar bilan ishlashga uncha ahamit berishmaydi. Ushbu

strategiya bozor da'vogari raqobatchiga nisbatan kam resurslarga ega bo'lsa yaxshi natija berishi mumkin. U ko'pincha raqobatchilarga qarshi kutilmaganda ishlatiladi. O'rab olish orqali hujum - bu raqobatchini barcha pozitsiyalarga birdaniga hujum qilinish, uni bir vaqtning o'zida hamma yo'nalishdar bo'yicha mudofaa olib borishga majbur etadi; bu esa bozor da'vogari juda katta resurslarga ega bo'lganda qo'llaniladi hamda qisqa vaqt ichida raqobatchini bozordagi pozitsiyasini yemirilishiga imkoniyat yaratadi. U quyidagi variantlarida amalga oshirishi mumkin, ya'ni mahsulot modifikatsiyasi (turlari) sonini ancha ko'paytirib, raqobatchi harakat qilayotgan barcha bozorlarda o'z mahsulotini sotishi. Chetlab o'tish hujumi tug'ridag-to'g'ri bo'lmagan hujum turi bo'lib, ko'pincha quyidagi yo'nalishlardan birida amalga oshiriladi: ushbu korxonaga uchun mutlaqo yangi bo'lgan mahsulot turini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, yangi geografik bozorlarni o'zlashtirish, texnologiyada yangi bosqichni o'zlashtirish, bozor da'vogari uchun dastlab eng "yengil" bozorlarda amalga oshirilib, u yerlarda ustunlikka erishilgandan so'ng esa, raqobatchining asosiy faoliyati sohalarida hujum uyushtiriladi.

**Partizon hujumi** raqobatchini tushkunlikka tushurish maqsadida, har zamonda uncha katta bo'lmagan hujumlarni uyushtirib, unda o'ziga nisbatan ishonchsizlik tuyg'usini rivojlantirishdir (narxlarni har zamonda pasaytirish va mahsulotni jaddal sur'atlar bilan siljitish, oqibatda esa raqobatchini o'zi uchun zararli bo'lgan qarshi harakatlarni qilishga majbur yetish va x.k.lar). Bunday strategiyani ko'pincha uncha katta bo'lmagan cheklangan resurslarga ega firmalar, ancha yirik bo'lgan raqobatchilarga nisbatan qo'llaydilar. Biroq tez-tez amalga oshiriladigan partizan hujumlari- bu katta harajatlarga olib keladigan tadbirlar, uning ustiga raqobatchilar ustidan g'alaba qozonish uchun, unga boshqa turdagi hujum harakatlari bilan qo'llab-quvvatlab turish kerak.

**"Lider orqasidan boruvchi"** - bu bozorda ulushi uncha katta bo'lmagan raqobatchidir. Ushbu xulq-atvor ko'proq oligapoliya holatidagi o'rinlarga ega bo'lib, unda differensatsiya imkoniyatlari kam, har bir raqobatchi barcha firmalarga zarar keltirishi mumkin bo'lgan kurashdan qochadi.

Mutaxassis strategiyasida mutaxassis butun bozor bilan emas, balki bir yoki bir necha

sengment bilan qiziqadi. Uning maqsadi katta daryoda kichik baliq bo'lish emas, balki kichik daryoda yirik baliq bo'lishdan iborat. Bu raqobatchilik strategiyasi asosiy strategiyalardan biri bo'lgan konsentratsiya strategiyasiga mos keladi. Mutaxassis e'tibor berayotgan chuqurcha rentabellik bo'lishi uchun u beshta shartni qondirishi lozim:

1. Yetarli potensial foydaga ega bo'lishi kerak.
2. Potensial o'sishga ega bo'lishi.
3. Raqobatchilar uchun ham jalb etuvchi bo'lishi kerak.
4. Firmaning maxsus imkoniyatlariga mos kelishi kerak
5. Kirishni barqaror to'siqlariga ega bo'lishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. O'zingiz bilgan birorta firma yoki kompaniya uchun «jalb qiluvchanlik raqobatbardoshlik» ko'p mezonli matritsasini tuzing.
2. G'oyatda noyob sohaga ixtisoslashgan, dunyoga mashhur bo'lgan, ammo resurslari g'oyatda cheklangan kichik bir firma uchun qanday strategiyani taklif qilgan bo'lar edingiz?
3. Bizda qahva G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaga nisbatan juda kam ist e'mol qilinadi. Siz jahonga mashhur qahva markasining boshqaruvchisi bo'lib qolsangiz, O'zbekiston bozori uchun qanday strategiyani tanlaysiz?
4. O'sish strategiyalarining qanday turlarini bilasiz?
5. Raqobatchilik strategiyalari turlarini aytib bering.
6. BKG matritsasining afvzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat?
7. Diversifikatsion o'sish strategiyasini tushuntirib bering.
8. Hujum strategiyasining mazmuni va uning turlarini aytib bering.
9. Intensiv o'sish deganda nimani tushunasiz?
10. Integratsion o'sish strategiyasini mazmunini aytib bering.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Панкрухин А.П. Маркетинг: Учебник. -М.: Омега-Л, 2006.
2. Ламбен Жан Жак. Стратегический маркетинг. - С-Пб.: Наука, 1996.
3. Qosimova M., Ergashxo'jaeva Sh., Abduxalilova L., Muxitdinova U., Yuldashev M. Strategik marketing. -T.: O'qituvchi, 2004.
4. Дэвид Кревенс. Стратегический маркетинг.-М; Изд. дом «Билямс», 2003.
5. Marketihg. -Oxford : Blachwell ,1992.

Maqsadni belgilash, bu - strategiyani amaliy voqelikka aylantirishning boshlanashidir. Missisiyaning mazmuniy qoidalaridan kelib chiqqan holda va nuqtai nazarning falsafiy poydevoriga asoslanib, maqsadni belgilash ustivor jihatlarini sifatli yo 'naltirish, detallashtirish, ob 'ekt alohida maqsadlari subordinatsiyasi va o 'zaro aloqasini aks ettiradi.

V.Kvint

---

**9-BOB: DIVERSIFIKATSIYALASHNING KORPORATIV STRATEGIYALARI**

---

REJA:

- 9.1. Vertikal integratsiya va firmaning qamrov doirasi.
- 9.2. Global strategiya va ko'pmillatli korporatsiya.
- 9.3. Diversifikatsiya strategiyasi.
- 9.4. Korporativ strategiyani amalga oshirish: Ko'p tarmoqli firmani boshqarish.
- 9.5. O'sishning tashqi strategiyalari: qo'shilish, sotib olish.

*Tayanch so'zlar:* vertikal integratsiya, firmaning qamrov doirasi, global strategiya, ko'pmillatli korporatsiya, diversifikatsiya strategiyasi, korporativ strategiy, ko'p tarmoqli firmani boshqarish.

**9.1. Vertikal integratsiya va firmaning qamrov doirasi**

Firmalar ishlab chiqarishni tashkil qilishda samaradorlik ustunliklari tufayli vujudga keldi. Keling, ushbu masalani batafsil o'rganib chiqamiz va uning firma chegaralariga ta'sirini aniqlaymiz. Garchi kapitalistik iqtisodiyotni tez-tez "bozor iqtisodiyoti" deb atashsa-da, u aslida iqtisodiy tashkilotning ikki shaklini o'z ichiga oladi. Ulardan biri - bu bozor mexanizmi, bu erda shaxslar va firmalar bozor narxlarini boshqarib, tovar va xizmatlarni sotib olish va sotish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilishadi.

Ikkinchisi firmalarning ma'muriy mexanizmi bo'lib, unda ishlab chiqarish va resurslarni taqsimlashga oid qarorlar menejerlar tomonidan qabul qilinadi va ierarxiya orqali amalga oshiriladi. Bozor mexanizmi Adam Smit tomonidan

"ko'rinmas qo'l" sifatida tavsiflandi, chunki uning muvofiqlashtiruvchi roli ongli rejalashtirishni talab qilmaydi.


Alfred Chandler firmalarning ma'muriy mexanizmini "ko'rinadigan qo'l" deb atadi, chunki u faol rejalashtirish va yo'nalishni o'z ichiga oladi. Firmalar va bozorlar ishlab chiqarishni tashkil qilishning muqobil institutlari sifatida qaralishi mumkin. Firmalar markaziy pudrat organi bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bo'yicha bir qator shaxslarni o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Ammo ishlab chiqarishni bozor operatsiyalari orqali ham tashkil etish mumkin. Poydevorimni qayta qurganimda, ishni bajarish uchun yakka tartibdagi quruvchi bilan shartnoma tuzdim. U o'z navbatida chilangarga, elektorchiga, duradgorga, gipsokartonna o'rnatuvchi va rassomga ishlarning subpudrat shartnomasini topshirdi. Garchi bu ish bir nechta shaxslarning muvofiqlashtirilgan faoliyatini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, ushbu yakka tartibdagi mutaxassislar mehnat munosabatlari bilan emas, balki bozor shartnomalari bilan ("elektr simlari, chiroqlar va elektr tarmoqlarini o'rnatish uchun 4000 AQSh dollari") bog'liqdir.

